



Et docere et discere servitute legis

O'ZBEKISTON TERGOVCHISI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

№4 (11) 2025

ILMIY — AMALIY YURIDIK JURNALI

СЛЕДОВАТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА

научно-практический юридический журнал

THE INVESTIGATOR OF UZBEKISTAN

scientific – practical law journal



www.proacademy.uz
ISSN 3093-8910

JURNAL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI OLIIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI RAYOSATINING 2023-YIL 31-MARTDAGI
335-SONLI QARORI BILAN ILMIY NASHRLAR RO'YXATIGA KIRITILGAN





№4 (11) 2025

O'ZBEKISTON TERGOVCHISI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

Bosh muharrir:
Yevgeniy Kolenko

Mas'ul kotib:
Davurxon Nodirov

Tahrir kengashi:
Nig'matilla Yo'ldoshev
Baxriddin Valiyev
Salom Samadov
Muzaffar Egamberdiyev
Richard Djoys

Tahrir hay'ati:
Halim Boltayev
Baxtiyor Po'latov
Faxri Raximov
Muzaffarjon Mamasiddiqov
Uyg'un Nigmatdjanov
Jahongir Maksimov
Vahobjon Karimov
Adham Odinayev
Baxtiyor Kayumov
Muxtaram Radjapova
Xurshid Karimov
Alisher Hidayatullayev
Istam Astanov
Aziz Xikmatov
Rustam Kabulov
Baxrom Axrorov
Rustam Zufarov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligida
2023-yil 23-martda 070684-sonli
guvohnoma bilan olingan.
Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2023-yil 31-martdagi
335-sonli qarori bilan yuridik fanlar
bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farq qilishi mumkin.
Jurnalda chop etilgan materiallardan
foydalanilganda "O'zbekiston tergovchisi"
jurnalidan olingan deb ko'rsatilishi shart.
Tahririyat taqdim etilgan materiallarni
taqriz qilish va qaytarish majburiyatini
olmagan.

Manzil:
100190, Toshkent shahri,
Rixsiliy ko'chasi, 9-uy
veb-site: www.proacademy.uz
e-mail: publish@proacademy.uz

Sahifalovchi:
J. ABDUQAHHOROV
Buyurtma №278-23. Adadi 583
Jurnal «Credo Print» MCHJ kitob
fabrikasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 160.
Tel.: 71 234-44-01/05.
www.credoprint.uz

Mundarija/Оглавление/Table of contents

SH. TUXTASHEV	Jinoyat ishini to'xtatib turish protsessida prokuror nazoratini takomillashtirish masalalari 3
M. SADIKOV	Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari 9
S. ALIMOV	Qasddan odam o'ldirish jinoyatini tergov qilishda ayrim noan'anaviy usullarning o'ziga xos jihatlari: xorijiy tajriba 18
S. SHOMIRZAYEV	Bojxona organlarining surishtiruv sohasidagi faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari 24
F. BADALBOYEV	Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni isbotlashda raqamli izlardan foydalanish 29
B. KUDRATOV	Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishga doir xorijiy tajriba va xalqaro standartlar 35
A. BOBOXONOV	Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining qayerda ekanligi aniqlanmaganda jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni to'xtatishni takomillashtirish masalalari 40
R. DJURABAYEV	Особенности использования достижений цифровой криминалистики в тактике задержания разыскиваемых в расследовании преступлений 48
H. OLIMJONOV	Jinoyat ishini qo'zg'atish jarayonida prokuror nazorati tushunchasi va mazmun-mohiyati 53
A. AHMADOV	Illicit financial flows: issues of measurement and combatting in Uzbekistan 61
A. ABDULLAYEV	Guvoh va jabrlanuvchilarning bila turib bergan yolg'on ko'rsatuvlarini aniqlash taktikasi 70
F. ZARIPOV	Dastlabki tergov bosqichida advokat stajyorining ishtiroki va uning stajirovkasini tashkil etish tartibi 80
B. RAJABOV	Tergov sifati: mohiyat va nazariy xususiyatlar 86
Z. IBROHIMOVA	Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyatining yuridik tahlili va jinoyat qonunini takomillashtirish istiqbollari 91



Sherzod TUXTASHEV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

JINOYAT ISHINI TO‘XTATIB TURISH PROTSESSIDA PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Maqolada jinoyat ishlarini to‘xtatib turish institutining amaliy va nazariy muammolari tahlil qilingan. Qonunchilikda belgilangan tergov muddatlari, surishtiruvchi va tergovchining qarorlari ustidan prokuror nazoratidagi kamchiliklar, nazorat mexanizmlarining yetarli samara bermayotgan jihatlari yoritib berilgan. Maqolada amaliy misollar asosida jinoyat ishlarini asossiz to‘xtatish holatlari, prokurorlik nazoratidagi huquqiy bo‘shliqlar hamda jarayonni raqamlashtirish zaruriyati bayon etilgan. Shuningdek, “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasi doirasida jinoyat ishlarini elektron yuritish, prokurorning masofaviy nazoratini kuchaytirish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье проанализированы теоретические и практические проблемы института приостановления уголовных дел. Освещены недостатки прокурорского надзора за решениями дознавателя и следователя, а также низкая эффективность существующих механизмов контроля за соблюдением процессуальных сроков, установленных уголовно-процессуальным законодательством. На основе практических примеров рассмотрены случаи необоснованного приостановления уголовных дел, правовые пробелы в прокурорском надзоре и необходимость цифровизации всего процесса. Кроме того, в статье представлены предложения по повышению эффективности деятельности за счёт внедрения электронного ведения уголовных дел, усиления дистанционного контроля прокурора и применения технологий искусственного интеллекта в рамках стратегии «Цифровая прокуратура – 2030».

ABSTRACT. The article analyzes theoretical and practical issues related to the institution of suspension of criminal cases. It highlights shortcomings in prosecutorial supervision over decisions taken by investigators and inquiry officers, as well as the low effectiveness of existing control mechanisms ensuring compliance with procedural time limits established by criminal procedure legislation. Based on practical examples, the study examines cases of unjustified suspension of criminal proceedings, legal gaps in prosecutorial oversight, and the need for comprehensive digitalization of the entire process. In addition, the article proposes measures to enhance effectiveness through the introduction of electronic criminal case management, strengthening remote prosecutorial supervision, and applying artificial intelligence technologies within the framework of the “Digital Prosecution–2030” strategy.

Kalit so‘zlar: jinoyat jarayoni, jinoyat ishini to‘xtatish, tergovni to‘xtatish, prokuror nazorati, protsessual muddatlar, raqamli prokuratura, raqamlashtirish, inson huquqlari, elektron jinoyat ishi yurituvchi.

Ключевые слова: уголовный процесс, приостановление уголовных дел, прокурорский надзор, процессуальные сроки, цифровая прокуратура, цифровизация, права человека, уголовное электронное делопроизводство.

Key words: criminal procedure, suspension of criminal cases, prosecutorial supervision, procedural time limits, digital prosecution, digitalization, human rights, electronic criminal case management.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan murakkab jinoyatlar soni oshib, jinoyatchilar doirasini aniqlash, ularning aybini fosh etish va yashirib turgan ayblanuvchilarni ushlash hamda jazo muqarrarligini ta’minlashda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Har qanday jinoyat tabiatidan qat’i nazar, qonun buzilishi bo‘lib, unga nisbatan zudlik bilan munosabat bildirilmaslik, ya’ni jinoyatni fosh qilib, aybdor shaxslarni aniqlash va qonun doirasida adolatli jazolash choralari ni ko‘rmaslik — yangi huquqbuzarliklar sodir etilishiga zamin yaratadi hamda jamiyatda kriminogen vaziyatning yomon tomonga o‘z-

garishiga olib keladi.

Xususan, ish bo‘yicha ayblanuvchi sifatida jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxsning aniqlanmasligi yoki ayblanuvchining qayerda ekani noma’lumligi sababli dastlabki tergovning to‘xtatilishi jamiyatda huquq-tartibot idoralarining jinoyatchilik oldida ojiz ekanligi haqidagi qarashlar shakllanishiga yoki surishtiruv va tergov organlarining faoliyati samarasiz degan xulosaga olib kelishi mumkin.

Shu ma’noda jinoyat ishini to‘xtatishga — bu faqatgina qonunda belgilangan huquqiy jarayon emas, balki ma’lum ma’noda ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta’sir ko‘rsatadigan omil sifatida ham qaralishi kerak.



Respublikamizda jinoyat protsessida inson huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha kafolatni kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangilangan tahrirdagi Konstitutsiyaning muqaddimasida ham inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda Konstitutsiya qabul qilinishi va e'lon qilinishi ta'kidlandi¹.

Qonun ustuvor bo'lgan, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi turishga qodir davlatni barpo etish nafaqat jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish, balki uning normalarini amaliyotda qo'llash jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qonundan chetlashishlarni ham barrafar etishni talab qiladi.

Jinoyat ishini to'xtatib turish asoslari jinoyat-protsessual qonunchiligida aniq belgilanishi hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud bu talablarga qat'iy rioya qilishi shart.

Bugungi kunda Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasiga muvofiq dastlabki tergov jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch oydan oshmagan muddatda yakunlanishi lozim bo'lib, tergov muddati tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va unga tenglashtirilgan prokuror tomonidan besh oygacha uzaytiriladi. Keyinchalik muddat faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlari tomonidan yetti oygacha uzaytirilishi mumkin.

Tan olish kerak, bugungi kunda surishtiruv va dastlabki tergov ustidan prokurorlik nazoratini ta'minlashda muayyan huquqiy bo'shliq va noto'g'ri shakllanib qolgan ama-

liyot mavjud.

Bu salbiy holat protsessual muddatlarga rioya etilishi ustidan samarali prokuror nazoratini o'rnatishda ham o'z aksini ko'rsatmoqda.

Jinoyat ishini to'xtatib turish hech qachon jinoyat ishi bo'yicha muddatni tiklab olish "vositasi" bo'lib xizmat qilmasligi kerak.

Dastlabki tergov muddatini turli sabablarga ko'ra o'tkazib qo'ygan yoki "boshi berko'chaga" kirib qolgan surishtiruvchi, tergovchi jinoyat ishini orqa sana bilan 10 kun yoki 15 kungacha to'xtatib qo'yib, keyin uni yana tiklab, surishtiruv va tergov muddatini uzaytirib olish kabi noto'g'ri amaliyotdan foydalanishi hali ham barham topmagan.

Bizning nazarimizda, so'nggi yillarda jinoyat ishini to'xtatib turish institutini takomillashtirish bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchilikda ham, tashkiliy-huquqiy masalalarda ham sezilarli yangiliklar joriy etilmadi. Jinoyat ishini to'xtatib turish instituti jinoyat protsessining boshqa institutlaridan ma'lum ma'noda "orqada" qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotga ko'ra, prokurorlar tomonidan surishtiruv va tergov organlari tomonidan jinoyat ishini to'xtatish to'g'risida qabul qilingan 2023-yilda 10 067 ta qarordan 776 tasi, 2024-yilda 11 614 ta qarordan 936 tasi, 2025-yilning 9 oyi davomida esa 25 621 ta qarordan 654 tasi asossiz bo'lganligi sababli bekor qilingan².

Yuqorida aytilganlar, ya'ni qonunchilikning mukammal darajada emasligi, jinoyat ishini to'xtatib turish masalalarining nazariy jihatdan yetarli darajada rivojlanmaganligi, surishtiruv-tergov xodimlarining malakasi pastligi, samarali prokurorlik nazorati o'rnatilmasligi kabi omillar yagona katta muammoni keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumki, "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 27-moddasiga muvofiq jinoyatlar to'g'risida-

1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yil, 3-bet

2 O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ma'lumotnomasi



gi arizalar va xabarlarni ko‘rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonunchilikda belgilangan protsessual tartibi, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat **prokuror nazoratining** predmeti hisoblanadi³.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) 382-moddasida prokurorning vakolatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra prokuror o‘z vakolati doirasida: “Surishtiruv va dastlabki tergov organlari, shuningdek tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlardan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergov ishlari borishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma‘lumotlarni talab qilib oladi; surishtiruvchilar, tergovchilar va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxslarining qonunga xilof yoki asossiz qarorlarini bekor qiladi; dastlabki tergov va surishtiruv muddatlarini JPKda belgilangan hollarda va tartibda uzaytiradi; JPKda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga, shuningdek tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish, ishlarni qo‘zg‘atish va tergov qilish

bilan bog‘liq ko‘rsatmalar beradi va ushbu ko‘rsatmalar organlar uchun majburiydir”⁴ deb belgilanadi.

Yuqorida qayd etilganlar samarali prokuror nazoratini ta‘minlash imkoniyatini beruvchi mexanizm mavjudligini ko‘rsatadi.

Jinoyat ishini yuritishda prokuror nazoratini tavsiflash borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan va bu jarayonda prokurorning o‘rniga olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildiriladi.

Masalan, B.X.Pulatov surishtiruv va tergovni to‘g‘ri tashkil qilish hamda ularni amalga oshirishda qonunlarga rioya qilinishi ustidan prokuror nazoratini yo‘lga qo‘yish jinoyatlarni tezkorlik bilan to‘liq ochish, uni har tomonlama, xolisona tergov qilish asosli va adolatli qaror chiqarilishining kafolati hisoblanadi⁵ deb ta‘kidlaydi.

V.A.Yefanova jinoyat sudlov ishlari yuritishda prokuror nazoratini kuchaytirish orqali ko‘plab muammolarni hal qilish mumkin deb hisoblaydi⁶.

G.K.Smironovning fikricha, jinoyat protsessi bosqichida prokuror nazorati inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish va qo‘riqlashning kafolati hisoblanadi⁷.

V.A.Lazarevaning fikricha, sudgacha bo‘lgan bosqichlarda prokurorlik nazorati bu butun faoliyatda qonuniylikni nazorat qilishdir.⁸ Shunga o‘xshash fikrni N.P.Kirillova,⁹ O.A.Kojevnikovlar¹⁰ ham bildiradi.

V.F.Kryukovning fikricha, prokuror bir qator protsessual vazifalar qatori huquqni himo-

3 “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent sh., 2001-yil 29-avgust, 257-II-son

4 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Toshkent sh., 1994-yil 22-sentyabr, 2013-XII-son

5 Pulatov B. X. “Prokuror nazorati”. Darslik. “O‘ZBEKISTON”, 2009-yil, 178-bet

6 Эфанова В.А. О проблемах прокурорского надзора в уголовном судопроизводстве // Судебная власть и уголовный процесс. 2016 г., № 4, – С. 42.

7 Смирнов Г.К. Проблемы совершенствования института участия прокурора в досудебном производстве // Рос. юстиция. 2008 г., № 11, – С. 52.

8 Лазарева В.А. Судебная власть и ее реализация в уголовном процессе. Самара: Самарский ун-т, 1999. – С. 15.

9 Кириллова Н.П. Прокурорский надзор: учебник и практикум для бакалавриата и специалитета / Н.П.Кириллова. 2-э изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2018 г., – С. 96-100.

10 Козевников О.А. Участие прокурора в досудебных стадиях уголовного судопроизводства. М.: Вольтерс Клувер, 2011 г., – С. 41-67.



ya qilish vazifasini ham amalga oshiradi¹¹.

K.Yu.Vinokurov ushbu jarayonda prokuror nazorati samaradorligini inkor qiladi va uni "juda past darajada" deb hisoblaydi¹².

Sh.M.Abdul-Qodirov esa boshqacha fikrda bo'lib, prokurorlar yetarli huquqiy vositalarga ega bo'lmagan holda har qanday vositadan foydalanishga majbur deb hisoblaydi. Masalan, jinoyat-protsessual va boshqa qonunchilik buzilishlarini bartaraf etganligi prokuror ta'sir chorasi hisoblanmasa-da, bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin¹³ deb ta'riflaydi.

Olimlar B.Pulatov, G.Smirnov, V.Yefanova va F.V.Kryukovlarning fikriga to'liq qo'shilamiz. Haqiqatdan ham jinoyat ishlarini xolisona tergov qilish, asosli va adolatli qaror chiqarilishining kafolati sifatida prokuror nazoratining o'rni juda katta.

Lekin aynan jinoyat ishini yuritishni to'xtatish to'g'risidagi surishtiruvchi va tergovchining qarorlari ustidan prokuror nazoratining tavsiflanishida L.Yu.Vinokurov va Sh.M.Abdul-Qodirovlarning fikrlarini ham inkor qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi "Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida"gi 129-sonli buyrug'ining 5.29-bandida surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish haqida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi bir oy muddatda nazorat qiluvchi prokurorlar tomonidan o'rganilishi; 5.30-bandida esa surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatilgan ishlar bo'yicha jinoyatni

fosh etish, ayblanuvchilarning muqarrar javobgarligini ta'minlashga qaratilgan barcha choralar ko'rilganligi sinchkovlik bilan tekshirilishi, tergovning sansalorlikka solinishiga, jinoyat sodir etgan shaxs aniq bo'lgan holda jinoyat fosh etilmaganligi yoki boshqa vajlar bilan asossiz to'xtatish holatlariga yo'l qo'yilmasligi; 5.31-bandda esa surishtiruvni, dastlabki tergovni to'xtatish yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi asossiz qarorlar o'z vaqtida bekor qilinishi va tergovni sifatli o'tkazish sabablari tanqidiy muhokama qilib borilishi lozimligi, prokurorlar tomonidan JPKning 351 va 381⁷-moddalariga muvofiq qo'shimcha tergov yoki surishtiruv muddati belgilab, tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona o'tkazilishi hamda qonuniy qaror qabul qilinishi ustidan nazorat olib borilishi¹⁴ belgilangan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 364-moddasiga muvofiq dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi va uning nusxasini prokurorga yuboradi.

Lekin kodeksda jinoyat ishini to'xtatish to'g'risidagi qaror nusxasini prokurorga yuborishning aniq muddati belgilab qo'yilmagan. Ya'ni surishtiruvchi, tergovchi qaror nusxasini 3 kundan keyin ham, 7 kundan keyin ham yuborishi mumkin.

Bosh prokurorning 129-sonli buyrug'ining 5.29-bandida surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish haqida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi bir oy muddatda nazorat qiluvchi prokurorlar tomonidan o'rganilishi belgilangan.

Bu holatda prokuror jinoyat ishini to'xtatish qarorining qonuniyligiga munosabat bildirgungacha bir oydan ortiq vaqt o'tib keta-

11 Крюков В.Ф. Правовой статус прокурора в уголовном преследовании (досудебное и судебное производство): дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2012 г., – С. 4.

12 Винокуров А.Ю. К вопросу о классификации надзорных полномочий прокурора // Проблемы укрепления законности и правопорядка: наука, практика, тенденции. 2010 г., № 3, – С. 279.

13 Абдул-Кадиров Ш.М. Функции и полномочия прокурора в стадии возбуждения уголовного дела // Законность. 2012 г., № 9, – С. 12-15.

14 O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevral "Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida"gi 129-sonli buyrug'i



di. Masalan, IIB tergovchisi 2025-yil 6-may kuni ish yurituvdagi jinoyat ishini JPKning 364-moddasiga asoslanib to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Qaror nusxasini 14-may kuni prokurorga yuboradi. Prokuror jinoyat ishi materiallarini o‘rganib chiqib, 2025-yil 12-iyun kuni surishtiruvchi yoki tergovchining qarorini bekor qiladi. Ya’ni jinoyat ishi to‘xtatilgandan 37 kun o‘tgandan keyin munosabat bildiriladi.

Yoki bo‘lmasa, IIB tergovchisi 2025-yil 6-may kuni ish yurituvdagi jinoyat ishini JPKning 364-moddasiga asoslanib to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va qaror nusxasini 11-may kuni prokurorga yuboradi. 21-may kuni esa jinoyat ishi yurituvini tiklab, tergovni davom ettirishga kirishadi.

Ushbu holatda nazorat qiluvchi prokuror 2025-yil 6-may kuni qabul qilingan qarorning asoslilikiga munosabat ham bildiray olmaydi. Sababi 6-may kuni qabul qilingan qaror asossiz bo‘lgan taqdirda ham bu vaqtda jinoyat ishining ish yurituvini tiklangan va tergov harakatlari olib borilayotgan bo‘ladi.

Qayd etilgan misollarda nazorat qiluvchi prokurorning qonuniy vakolatlari ham, texnik imkoniyatlari ham chegaralanib qolmoqda.

Bugungi kunda bu muammoni bartaraf etish va prokuror nazoratini samarali ta’minlash maqsadida prokurorlarga masofaviy nazorat qilish imkoniyati yaratilishi lozim. Ya’ni jinoyat ishi yurituvining barcha bosqichlarini elektron shaklga o‘tkazish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali ayrim tergov jarayonlarini tahlil qilish va tavsiyalar berishning huquqiy asoslari yaratilishi lozim.

Bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabr kuni qabul qilingan “Raqamli prokuratura — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini muhim huquqiy hujjat sifatida e’tirof etish lozim bo‘ladi.

Hujjat bilan mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatini raqamlashtirish ishlarini yanada kengaytirish hamda raqamli nazorat tizimini joriy etish maqsadida tergov va prokuror nazorati jarayonlarini elektron shaklga o‘tkazish asosiy maqsad sifatida belgilandi hamda jinoyat ishlariga oid ish yurituvni elektron shaklga o‘tkazish, jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar kelib tushganidan jazoni ijro etishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladigan yagona axborot tizimini yaratish, uni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatiga joriy etish hamda tegishli davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tergov sifatini oshirib borish¹⁵ muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash uchun birinchi navbatda bu talablar jinoyat-protsessual qonunchiligida aks etishi lozim bo‘ladi. Bu esa muayyan vaqt, kuch, mablag‘ va boshqa resurslarni talab qilishi tabiiy holdir.

Shu jihatlarni e’tiborga olgan holda amaldagi JPKning quyidagi normalarini takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Birinchidan, JPKning 364-moddasida dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qarorning nusxasi zudlik bilan prokurorga yuborilishi belgilanishi lozim. Bugungi kunda prokuratura hamda surishtiruv va tergov organlaridagi texnik imkoniyatlar bu talabning ijrosini amalda ta’minlab beradi.

Ikkinchidan, JPKda hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining “Jinoyat-

15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrda “Raqamli prokuratura — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli farmoni



chilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida"gi 129-sonli buyrug'ida prokurorlar tomonidan jinoyat ishini to'xtatish to'g'risidagi qarorning qonuniyligini o'rganish uchun 10 kunlik muddatni qat'iy belgilash lozim. Prokuror jinoyat ishini to'xtatish to'g'risidagi qarorning o'zidan kelib chiqib haqiqiy holatga baho bera olmasligi tabiiy jarayon.

Bu holatda prokuror jinoyat ishi materiallarini to'liq o'rganib chiqishi lozim bo'ladi.

Bugungi kundagi amaliyotga ko'ra surishtiruv va tergov organlari har oyning yakuni bo'yicha hisobot topshirish vaqtida to'xtatilgan jinoyat ishlarini prokuratura organlariga taqdim etishadi.

Uchinchidan, JPKning 369-moddasiga tegishli o'zgartirish kiritib, surishtiruvchi, ter-

govchi tergovni to'xtatgach, bu haqda jabrlanuvchini, fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni va ularning vakillarini darhol xabardor qilish hamda ularning jinoyat ishi materiallari bilan tanishish imkonini beradigan tartibni o'rnatish.

To'rtinchidan, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning qonuniy vakillari harakatdan to'xtatilgan jinoyat ishi materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish huquqini beradigan normalarni jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritish lozim bo'ladi.

Kelgusida surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish institutini takomillashtirish orqali jinoyat protsessida qonuniylikni ta'minlash fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytiradi hamda jamiyatda adolat va qonuniylik prinsiplari mustahkamlanadi.



Murodjon SADIKOV,

Bosh prokuratura Yashirin iqtisodiyot ko‘lamini tahlil qilish ilmiy-tadqiqot markazi boshlig‘i o‘rinbosari

GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning o‘ziga xos jihatlari hamda tergov jarayonida erta profilaktika choralari amalga oshirish masalalari tahlil qilingan. Muallif tomonidan narkotik laboratoriyalarni aniqlash, ularning faoliyati uchun zarur bo‘lgan xomashyo — prekursorlar aylanmasi ustidan nazorat qilish, shuningdek, alohida topshiriq berish va taqdimnomalar kiritish orqali jinoyatlarga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish mexanizmlari yoritilgan. Shu bilan birga, giyohvandlik jinoyatlarini tergov qilishda tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish va ularni profilaktik maqsadlarda qo‘llashning amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy tergov amaliyoti, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalari asosida giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются особенности расследования преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств, а также вопросы осуществления мер ранней профилактики в процессе расследования. Автор рассматриваются механизмы выявления наркотических лабораторий, контроля за оборотом прекурсоров и применения отдельных поручений и представлений в целях устранения причин и условий, способствующих совершению наркопреступлений. Особое внимание уделено практическим аспектам проведения оперативно-розыскных мероприятий и их использованию в системе следственной профилактики. На основе анализа следственной практики, международного опыта и норм национального законодательства сформулированы научно обоснованные предложения, направленные на повышение эффективности противодействия наркопреступности.

ABSTRACT. The article analyzes the specific features of investigating crimes related to illicit drug trafficking, with a focus on the implementation of early preventive measures within the investigation process. The author examines practical mechanisms for detecting drug laboratories, controlling the circulation of precursors, and using procedural tools such as separate assignments and submissions to eliminate the causes and conditions of drug-related crimes. Special attention is given to the role of operational-search activities in investigative prevention. Based on the analysis of investigative practice, international experience, and national legislation, the article proposes practical recommendations aimed at improving the effectiveness of combating drug-related crimes.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik vositalari, tergov, erta profilaktika, narkotik laboratoriya, alohida topshiriq, taqdimnoma, tezkor-qidiruv tadbirlari, prekursorlar.

Ключевые слова: наркотические средства, расследование, ранняя профилактика, наркотическая лаборатория, отдельное поручение, представление, оперативно-розыскные мероприятия, прекурсоры.

Key words: narcotic drugs, investigation, early prevention, drug laboratory, separate assignment, submission, operational-search activities, precursors.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar nafaqat jinoyatchilikning alohida turi, balki davlat xavfsizligi, jamoat tartibi va aholi salomatligiga bevosita tahdid soluvchi tizimli muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jinoyatlar transchegaraviy xususiyat kasb etib, zamonaviy texnologiyalar, moliyaviy sxemalar va yashirin logistika zanjirlari orqali amalga oshirilayotgani ter-

gov amaliyoti oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6017-sonli farmoni¹, 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonu-

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6017-sonli farmoni. 30.06.2020-y.



niy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida²gi 73-sonli farmoni² kabi hujjatlar mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida muayyan normativ-huquqiy baza shakllangan bo'lsa-da, amaliyot shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarni faqat aniqlash va fosh etishga qaratilgan yondashuv ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish uchun yetarli emas. Ayniqsa, sintetik giyohvandlik moddalarining tarqalishi, yashirin narkotik laboratoriyalar faoliyati va prekursorlar aylanmasi ustidan nazoratning murakkablashuvi tergov jarayonida profilaktika institutini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tergov amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tergov organlari tomonidan jinoyat ishi doirasida amalga oshirilayotgan protsessual harakatlar ko'p hollarda jinoyatning oqibatlarini bartaraf etish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, jinoyat-protsessual qonunchilik tergov organlariga jinoyatning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlarni taqdim etadi. Mazkur imkoniyatlardan tizimli va maqsadli foydalanish giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida profilaktika choralarini amalga oshirishning huquqiy tabiati, amaliy imkoniyatlari va mavjud muammolarini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada tergov amaliyotida profilaktika institutining o'rnini, narkotik laboratoriyalarni aniqlash va prekursorlar aylanmasi ustidan nazorat qilish

mexanizmlari, shuningdek, alohida topshiriqlar va taqdimnomalar orqali profilaktik ta'sir ko'rsatish masalalari kompleks ravishda tahlil qilinadi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning nazariy-huquqiy asoslari

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 270 – 276-moddalarida³ nazarda tutilgan bo'lib, ushbu normalar jinoyatlarning turli shakllari — ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, ta'shish, o'tkazish va prekursorlar bilan bog'liq harakatlarni qamrab oladi. Mazkur jinoyatlarining o'ziga xosligi shundaki, ular ko'p hollarda uyushgan guruhlar tomonidan, oldindan rejalashtirilgan va yashirin tarzda sodir etiladi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, giyohvandlik jinoyatlari bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirish ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati hamda prokuratura organlari vakolatiga kiradi. Shu bilan birga, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha tergov jarayoni oddiy jinoyat ishlaridan farqli ravishda yuqori darajadagi maxsus bilim, texnik imkoniyatlar va idoralararo hamkorlikni talab qiladi.

Tergov amaliyotida giyohvandlik jinoyatlarini fosh etishda quyidagi nazariy-amaliy xususiyatlar alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, mazkur jinoyatlar latent xarakterga ega bo'lib, ko'p hollarda aniq jabrlanuvchi mavjud emas. Bu esa isbotlash jarayonida klassik dalil manbalarining cheklanganligiga olib keladi va tergov organlarini tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari, ekspertiza xulosalari va bilvosita dalillarga tayanishga majbur qiladi.

Ikkinchidan, giyohvandlik vositalarining turlari va tarkibi tez-tez o'zgarib borayotgani, ayniqsa, sintetik moddalarning paydo bo'lishi

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi 73-sonli farmoni. 06.05.2024-y.

3 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi — <https://lex.uz/docs/111453>



ekspert-tadqiqot ishlarini murakkablashtiradi. Bu holat tergov jarayonida yuqori malakali kimyoviy ekspertlar va zamonaviy laboratoriya vositalarini jalb etishni talab qiladi.

Uchinchidan, giyohvandlik jinoyatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi ortib bormoqda. Darknet platformalari, kriptovalyutalar va shifrlangan aloqa vositalari jinoiy faoliyatni aniqlash va hujjatlashtirishda qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi.

To‘rtinchidan, ushbu jinoyatlarning aksariyati transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lib, xalqaro-huquqiy yordam mexanizmlaridan foydalanishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasining 1988-yilgi Vena konvensiyasiga⁴ qo‘shilgani giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik uchun huquqiy asos yaratgan bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu mexanizmlardan foydalanish doim ham samarali emas.

Beshinchidan, tergov jarayonida tezkor-qidiruv tadbirlarining ahamiyati alohida o‘rin tutadi. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonun normalari tergov organlariga prokuror sanksiyasi asosida qator tezkor tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq amaliyotda ushbu tadbirlar ko‘pincha jinoyatni fosh etishga qaratilgan bo‘lib, profilaktik imkoniyatlar yetarlicha ishga solinmayotgani kuzatiladi.

Shu bois giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish nazariy va huquqiy jihatdan yetarli asosga ega bo‘lsa-da, mazkur asoslarning amaliy qo‘llanilishida profilaktika yo‘nalishining institutsional va metodik jihatdan zaifligi mavjud.

Tergov jarayonida profilaktikaning protsessual tabiati va amaliy imkoniyatlari

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ushbu to-

ifadagi ishlar bo‘yicha samarali natijaga erishish faqat jinoyatni fosh etish bilan cheklanib qolmasdan, jinoyatga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarga o‘z vaqtida ta’sir ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq. Shu ma’noda tergov profilaktikasi tergov faoliyatining qo‘shimcha elementi emas, balki uning amaliy samaradorligini ta’minlovchi muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tergov profilaktikasi deganda⁵ tergov organlari tomonidan jinoyat ishi doirasida aniqlangan xavf omillarini bartaraf etish, nazorat tizimidagi zaif nuqtalarni aniqlash va ularni yo‘qotishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar tushuniladi. Ayniqsa, giyohvandlik jinoyatlariga xos bo‘lgan takroriy xarakter, uyushganlik va yuqori darajadagi xufiyonalik xususiyatlari tergov jarayonida profilaktik yondashuvni kichiktirmasdan qo‘llashni taqozo etadi.

Tergov jarayonida aniqlanishicha, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga olib kelgan sabablar ko‘p hollarda tizimli xarakterga ega bo‘lib, ular alohida shaxslar harakatlari bilan emas, balki nazorat va boshqaruv mexanizmlaridagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois tergov jarayonida birinchi navbatda jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda farmatsevtika korxonalarida hisob va nazoratning yetarli darajada ta’minlanmagani, prekursorlar muomalasidagi nazorat zaifligi, bojxona va chegara nazorati tizimidagi bo‘shliqlar, shuningdek, ayrim hollarda korrupsiyaviy omillar alohida tekshiriladi.

Tergov profilaktikasining navbatdagi muhim yo‘nalishi giyohvandlikka moyil shaxslar bilan ishlash⁶ hisoblanadi. Tergov amaliyotida ko‘pincha giyohvandlik vositalarini iste’mol qiluvchi shaxslar jinoiy faoliyatga jalb etilgani yoki keyinchalik tashkilotchilar tomonidan foydalanilayotgani aniqlanadi. Bunday holatlarda tergov organlarining

4 UNODC. World Drug Report 2023. Vienna, 2023.

5 Isroilov Sh.R. Jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini tergov qilish jarayonida aniqlash. Toshkent, 2022-yil

6 Rahimov Z.U. Giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishda profilaktika choralarining roli. Toshkent, 2023-yil



vazifasi faqat aybni isbotlash bilan cheklanib qolmasdan, ushbu shaxslarning keyinchalik jinoyat muhitiga qayta kirib ketishining oldini olish choralari ko'rishdan iborat bo'ladi. Shu maqsadda profilaktik suhbatlar, tibbiy muassasalar bilan hamkorlikda reabilitatsiya masalalarini hal etish, tegishli organlarga axborot kiritish amaliyoti qo'llaniladi.

Shu bilan birga, tergov jarayonida giyohvandlik vositalari aylanmasida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan tashkilotlar faoliyati ham tahlil qilinadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonuniy faoliyat yuritayotgan ayrim korxonalar — kimyoviy reaktivlar savdosi bilan shug'ullanuvchi firmalar, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati subyektlari nazorat kamchiliklari tufayli giyohvandlik jinoyatlariga sharoit yaratib berishi mumkin. Bunday holatlarni aniqlash tergov profilaktikasining muhim amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hududiy omillarni o'rganish ham tergov profilaktikasining ajralmas qismi hisoblanadi. Tergov har bir aniq jinoyat sodir etilgan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, giyohvandlikka oid jinoyatlar tez-tez qayd etiladigan xavfli nuqtalarni, aholi o'rtasidagi tendensiyalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar keyinchalik profilaktika ishlarini maqsadli rejalashtirish uchun asos bo'ladi.

Alohida e'tibor yoshlar o'rtasidagi profilaktikaga qaratiladi. Amaldagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarning **40-45 foizi** aynan **18-30 yosh oralig'idagi shaxslar tomonidan sodir etiladi**⁷. Ushbu holat tergov jarayonida olingan ma'lumotlardan yoshlar o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil etishda faol foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Tergov natijalari ta'lim muassasalari, mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlarni rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tergov profilaktikasini amalga oshirishda qo'llanilayotgan usullar ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Jinoyat ishi

bo'yicha tergov harakatlari rejalashtirilayotganda faqat isbotlash vazifalari emas, balki profilaktik ahamiyatga ega holatlarni aniqlash maqsadi ham ko'zda tutiladi. Ekspertizalar tayinlash jarayonida moddaning turini aniqlash bilan birga uning ishlab chiqarilish texnologiyasi va xomashyo manbalarini belgilash yangi jinoyatlarning oldini olish imkonini beradi.

So'roq qilish jarayonida esa shaxsning giyohvandlik muhitiga qanday yo'l bilan kirib qolgani, uni bunga undagan omillar va samarali profilaktika choralari haqida ma'lumotlar olinadi. Bu ma'lumotlar alohida topshiriqlar va taqdimnomalar orqali amaliyotga tatbiq etiladi.

Profilaktika ishlarining samaradorligini baholash formal hisobot ko'rsatkichlari bilan cheklanmasdan, aniq amaliy natijalar orqali amalga oshirilishi lozim. Bu borada quyidagi ko'rsatkichlar alohida ahamiyat kasb etadi: tergov natijasida kiritilgan **taqdimnomalar soni va ular asosida ko'rilgan real chora-tadbirlar, alohida topshiriqlar soni va ularning ijro darajasi, profilaktik hisobga olingan shaxslar soni hamda ular bilan olib borilgan individual profilaktika ishlarining natijalari**, shuningdek, **mazkur shaxslar o'rtasida takroran jinoyat sodir etish holatlarining kamayishi**. Mazkur ko'rsatkichlarning tahlili tergov profilaktikasining samaradorligini obyektiv baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va keyingi profilaktika choralari ni maqsadli rejalashtirish imkonini beradi.

Narkotik laboratoriyalarni aniqlash va prekursorlar aylanmasi bo'yicha profilaktik mexanizmlar

So'nggi yillarda sintetik giyohvandlik moddalarining keng tarqalishi giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar tabiatida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Agar avval asosiy e'tibor giyohvandlik vositalarini olib kirish va tarqatish kanallarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda ichki ishlab chiqarish zanjirlarini,



xususan, yashirin narkotik laboratoriyalar faoliyatini aniqlash masalasi birinchi o‘ringa chiqmoqda. Bu esa tergov amaliyotida yangi profilaktik yondashuvlarni talab qiladi.

Narkotik laboratoriyalarni aniqlashda asosiy muammo ularning yuqori darajada xufiyonaligi va tez ko‘chuvchanligi bilan bog‘liq. Amaliyotda bunday laboratoriyalar ko‘pincha xususiy uy-joylarda, ijaraga olingan binolarda yoki sanoat obyektlari niqobi ostida faoliyat yuritadi. Shu sababli ularni faqat an‘anaviy tergov harakatlari orqali aniqlash aksar hollarda samara bermaydi.

Tergov va tezkor-qidiruv amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, narkotik laboratoriyalarni aniqlashda bilvosita belgilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jumladan, prekursorlar va kimyoviy reaktivlarning muntazam va iqtisodiy jihatdan asossiz miqdorda xarid qilinishi, muayyan obyektlarda elektr energiyasi va suv iste‘molining keskin oshishi, ventilyatsiya tizimlarining noodatiy tarzda o‘rnatilishi, shuningdek, kimyoviy hidlarning doimiy mavjudligi shunday belgilar jumlasiga kiradi. Ushbu omillar tergov jarayonida tizimli ravishda tahlil qilingan taqdirdagina samarali natija berishi mumkin.

Profilaktik nuqtayi nazardan narkotik laboratoriyalarni aniqlashda asosiy e‘tibor jinoyat oqibatlariga emas, balki ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar aylanmasiga qaratilmog‘i lozim. Bu o‘rinda prekursorlar aylanmasi ustidan nazorat hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni⁸ prekursorlar muomalasini litsenziyalash va hisobga olish tizimini nazarda tutsa-da, amaliyotda ushbu tizimning formal tus olayotgani kuzatilmoqda.

Amaliy tekshiruvlar shuni ko‘rsatadiki, prekursorlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi ayrim subyektlarda hisob-kitob hujjatlari rasmiy ravishda yuritiladi, biroq real harakatlar

ustidan yetarli nazorat mavjud emas. Bunday holatlarda tergov organlari tomonidan aniqlangan kamchiliklar ko‘pincha jinoyat ishi doirasida qayd etiladi, ammo ular asosida profilaktik qarorlar qabul qilinmay qolmoqda. Natijada jinoyat sodir etilgandan keyin ham ayni shart-sharoitlar saqlanib qolmoqda.

Tergov amaliyotida narkotik laboratoriyalar faoliyatini fosh etishda qator protsessual va tashkiliy choralar qo‘llaniladi. Jumladan, prekursorlar harakatini monitoring qilish, shubhali xaridorlar ustidan tezkor kuzatuv o‘rnatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali onlayn savdo platformalarini tahlil qilish kabi usullar amaliyotda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Biroq ushbu choralar ko‘p hollarda epizodik tusga ega bo‘lib, tizimli profilaktika mexanizmiga aylanmagan.

Narkotik laboratoriyalarni aniqlashda tintuv va musodara qilish tadbirlarining ahamiyati katta bo‘lsa-da, mazkur choralar jinoyat allaqachon sodir etilganidan so‘ng qo‘llaniladi. Profilaktik nuqtayi nazardan esa, jinoyatgacha bo‘lgan bosqichda resurslarni cheklash, xususan, prekursorlar va maxsus jihozlar aylanmasini nazorat qilish ancha samarali hisoblanadi. Shu sababli tergov organlarining diqqati faqat natijani fosh etishga emas, balki xavf manbalarini barvaqt aniqlashga qaratilmog‘i lozim.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqi davlatlarida prekursorlar ustidan nazorat qilishda ko‘p bosqichli tizim qo‘llaniladi⁹. Ushbu tizim litsenziyalash, doimiy monitoring va javob choralari o‘rtasidagi aniq bog‘liqlikka asoslangan. Mazkur tajriba milliy qonunchilikka to‘liq ko‘chirilishi shart emas, biroq uning ayrim elementlarini moslashtirish narkotik laboratoriyalarni aniqlashda profilaktik ta’sirni kuchaytirishi mumkin.

Shundan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mumkinki, narkotik laboratoriyalarni aniqlash samaradorligi ko‘p jihatdan prekursorlar aylanmasi ustidan nazorat qilish tizimining real ishlashiga bog‘liq. Tergov organlari tomonidan

8 O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni. 01.06.2022-y.

9 European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction. European Drug Report 2023. Luxembourg, 2023.



jinoyat ishi doirasida aniqlangan kamchiliklarni profilaktik qarorlar bilan mustahkamlamasdan turib, mazkur sohada barqaror natijalarga erishish mushkul. Shu bois prekursorlar bo'yicha profilaktikaga tergov faoliyatining ikkinchi darajali yo'nalishi emas, balki giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishning strategik elementi sifatida qaralishi lozim.

Alohida topshiriq va taqdimnoma orqali profilaktika: imkoniyat va cheklovlar

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida tergov organlari ixtiyorida faqat jinoyatni fosh etishga qaratilgan vositalar emas, balki jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan protsessual mexanizmlar ham mavjud. Ushbu mexanizmlar ichida alohida topshiriq berish va taqdimnoma kiritish institutlari tergov profilaktikasining eng amaliy va ta'sirchan shakllari sifatida namoyon bo'ladi.

Alohida topshiriq jinoyat ishi doirasida muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun vakolatli organlarga yo'naltiriladigan protsessual hujjat bo'lib, u qoida tariqasida tezkor-qidiruv organlari, bojxona va chegara xizmati, moliyaviy monitoring tuzilmalari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Amaliyotda alohida topshiriqlar orqali jinoiy aloqalarni aniqlash, prekursorlar harakatini tekshirish, shubhali moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish imkoni mavjud. Biroq ko'p hollarda mazkur topshiriqlar mazmuni faqat dalil to'plashga qaratilgan bo'lib, ular asosida jinoyatga imkon bergan tizimli kamchiliklar yuzasidan aniq xulosalar chiqarilmay qolmoqda.

Natijada tergov organlari aybdor shaxslarni javobgarlikka tortadi, biroq shu jinoyat sodir etilgan muhitda kelgusida ham o'xshash huquqbuzarliklar yuzaga kelishi uchun shart-sharoit saqlanib qoladi. Bu holat alohida topshiriq institutidan foydalanishda profilaktik maqsadlar aniq qo'yilmayotganini ko'rsatadi.

Taqdimnoma instituti esa tergov profilak-

tikasining mazmunan ancha keng imkoniyatlarga ega bo'lgan huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, tergov organi jinoyat sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida tegishli tashkilot yoki mansabdor shaxslarga taqdimnoma kiritish huquqiga ega. Taqdimnoma jinoyat ishi doirasida aniqlangan kamchiliklarga huquqiy baho berish va ularni bartaraf etish bo'yicha majburiy choralar ko'rishni talab qiladi.

Amaliy ma'lumotlar taqdimnoma institutining formal hujjat emas, balki ta'sirchan profilaktik vosita ekanini tasdiqlaydi. Xususan, ichki ishlar organlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, **tergov organlari tomonidan kiritilgan taqdimnomalarning 85-90 foizi ijobiy ko'rib chiqiladi** va ular asosida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi¹⁰. **2022–2023-yillarda kiritilgan taqdimnomalar asosida 150 dan ortiq korxonada** ichki nazorat va hisob tizimlari takomillashtirilgan, **80 dan ortiq mansabdor shaxslar** esa aniqlangan qonunbuzilishlar uchun intizomiy javobgarlikka tortilgan. Bu ko'rsatkichlar taqdimnoma instituti orqali jinoyatga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish mumkinligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Biroq tergov amaliyoti tahlili taqdimnomalar samaradorligi doim ham bir xil emasligini ko'rsatadi. Ayrim hollarda taqdimnomalar umumiy tavsiyaviy mazmunda bo'lib, aniq ijro mexanizmlari, muddatlar va mas'ul shaxslar belgilanmaydi. Boshqa hollarda esa taqdimnoma kiritilgan tashkilotlar uni formal ko'rib chiqib, amaliy o'zgarishlarga olib kelmaydigan hisobotlar bilan cheklanadi. Bu esa profilaktikaning ta'sirini pasaytiradi.

Giyohvandlik jinoyatlari bo'yicha taqdimnomalar odatda prekursorlar aylanmasi usidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar, farmatsevtika va kimyo sohasidagi korxonalar, mahalliy ijro hokimiyati organlari hamda ta'lim muassasalariga yo'naltiriladi. Ushbu sohalardagi nazorat jinoyatlarning takror so-

10 Isroilov Sh.R., Rahimov Z.U. — ilmiy-amaliy tahlillar (2022–2023).



dir etilishiga qarshi samarali profilaktik ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu ta'sir faqat taqdimnoma ijrosi ustidan tizimli monitoring mavjud bo'lgan taqdirdagina barqaror bo'ladi.

Profilaktik nuqtayi nazardan alohida topshiriq va taqdimnoma institutlari bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida qo'llanishi lozim. Alohida topshiriq orqali aniqlangan ma'lumotlar taqdimnoma mazmunini aniqlashtirishi, taqdimnoma esa topshiriq natijalarini jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan amaliy qarorlarga aylantirishi kerak. Amaliyotda esa ushbu uzviy bog'liqlik har doim ham ta'minlanmayapti.

Shu sababli alohida topshiriq va taqdimnoma institutlaridan foydalanishni faqat protsessual majburiyat sifatida emas, balki **maqsadli tergov profilaktikasi vositasi** sifatida qayta ko'rib chiqish zarur. Mazkur institutlarni mazmunan boyitish, ularni aniq profilaktik vazifalar bilan bog'lash va ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

Tezkor tadbirlar va idoralararo hamkorlik: amaliyot va rivojlanish yo'nalishlari

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda tezkor-qidiruv tadbirlari va idoralararo hamkorlik markaziy o'rin tutadi. Ushbu jinoyatlarning uyushgan va yashirin xarakterga ega ekani tergov organlarining faqat protsessual harakatlar bilan cheklanib qolmasdan, tezkor xizmatlar imkoniyatlaridan keng foydalanishini taqozo etadi. Biroq amaliyot tahlili ushbu yo'nalishda ham qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Tezkor-qidiruv tadbirlari “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi qonunga muvofiq¹¹, jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va fosh etishga qaratilgan maxsus faoliyat turi hisoblanadi. Giyohvandlik jinoyatlari bo'yicha ushbu tadbirlar shubhali shaxslar ustidan kuzatuv o'rnatish, maxfiy hamkorlarni jalb

etish, nazorat ostida yetkazib berish, aloqa kanallarini tinglash kabi usullarni o'z ichiga oladi. Mazkur vositalarning samaradorligi yuqori bo'lsa-da, ularni qo'llashda qat'iy protsessual chegaralar mavjud.

Amaliyotda eng ko'p uchraydigan muammolardan biri — tezkor tadbirlar natijalarining tergov jarayoniga to'liq va o'z vaqtida integratsiya qilinmasligidir. Ayrim hollarda tezkor bo'linmalar tomonidan olingan axborot faqat operativ hisobotlar shaklida qolib, protsessual qarorlar qabul qilishda yetarlicha hisobga olinmaydi. Bu esa jinoyat tarmoqlarini to'liq ochish va profilaktik choralar ko'rish imkoniyatlarini cheklaydi.

Idoralararo hamkorlik masalasida ham shunga o'xshash muammolar kuzatiladi. Giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishda ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, bojxona, chegara xizmati, moliyaviy monitoring organlari va mahalliy ijro hokimiyati organlarining hamkorligi talab etiladi. Biroq amaliyotda ushbu hamkorlik ko'pincha epizodik tusga ega bo'lib, ma'lumot almashish asosan shaxsiy aloqalarga tayanadi.

Ayniqsa, prekursorlar aylanmasi va moliyaviy operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni integratsiya qilish masalasida institutsional cheklovlar mavjud. Har bir idora o'z ma'lumotlar bazasiga ega bo'lib, ular o'rtasidagi axborot almashish huquqiy va texnik to'siqlarga duch kelmoqda. Natijada jinoyatlarning kompleks manzarasini shakllantirish qiyinlashadi.

Profilaktik nuqtayi nazardan tezkor tadbirlar va idoralararo hamkorlikning asosiy kamchiligi ularning reaktiv xarakterga egaligidir. Ya'ni aksar hollarda tadbirlar jinoyat allaqachon sodir etilgandan keyin amalga oshiriladi. Vaholanki, giyohvandlik jinoyatlariga qarshi samarali kurashish uchun barvaqt ogohlantirish va xavf omillarini aniqlashga qaratilgan proaktiv yondashuv talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan tezkor-qidiruv tadbirlarini rejalashtirishda profilaktik maqsadlar aniq belgilab olinishi lozim. Masalan, nazorat

11 O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda gi “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi qonuni



ostida yetkazib berish tadbirlari faqat jinoyatchilarni ushlashga emas, balki tarqatish zanjirlarini to'liq aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilmog'i kerak. Bu esa tergov organlari va tezkor bo'linmalar o'rtasidagi muvofiqlashtirish darajasini oshirishni talab qiladi.

Idoralararo hamkorlikni takomillashtirish yo'nalishida qator amaliy choralar taklif etish mumkin. Xususan, giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashish bo'yicha doimiy ishchi guruhlar tashkil etish, ma'lumot almashish uchun yagona elektron platformalar joriy etish, qo'shma tahliliy markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish samarali bo'lishi mumkin. Mazkur mexanizmlar tergov va tezkor faoliyatni bir butun tizim sifatida ishlashini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tezkor tadbirlarni qo'llashda inson huquqlari va protsessual kafolatlariga¹² rioya qilish masalasi alohida ahamiyatga ega. Sud sanksiyasi talab etiladigan tadbirlar qonuniy asoslarda, mutanosiblik va zarurlik prinsiplariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshirilishi shart. Aks holda olingan ma'lumotlarning protsessual qiymati shubha ostida qolishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, tezkor tadbirlar va idoralararo hamkorlik giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning samaradorligi tizimli muvofiqlashtirish, axborot integratsiyasi va profilaktik yondashuvni kuchaytirishga bevosita bog'liq. Mazkur yo'nalishdagi islohotlar tergov amaliyotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu jinoyatlar o'zining latentligi, uyushganligi, transchegaraviy xarakteri va yuqori ijtimoiy xavfi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar tergov faoliyatini faqat jinoyatni fosh etishga qaratilgan an'anaviy

yondashuv doirasida olib borish yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, tergov jarayonida profilaktika instituti huquqiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanilishi tizimli va maqsadli tus olmagan. Tergov harakatlari davomida jinoyatga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlar aniqlansa-da, ularni bartaraf etish bo'yicha protsessual qarorlar qabul qilish amaliyoti cheklangan holda qo'llanilmoqda. Natijada jinoyat sodir etilishiga imkon bergan omillar ko'p hollarda saqlanib qolmoqda.

Sintetik giyohvandlik moddalarining tarqalishi va yashirin narkotik laboratoriyalar faoliyatining kengayishi prekursorlar aylanmasi ustidan nazorat qilish masalasini giyohvandlikka qarshi kurashishda strategik ahamiyatga ega yo'nalishga aylantirmoqda. Amaliyot tahlili prekursorlar harakati ustidan nazoratning ayrim hollarda formal tus olayotganini, ushbu sohada tergov profilaktikasining imkoniyatlari to'liq ishga solinmayotganini ko'rsatdi.

Alohida topshiriq va taqdimnoma institutlari tergov organlari uchun muhim profilaktik vosita hisoblansa-da, ulardan foydalanishda metodik yondashuvning yetishmasligi va ijro ustidan samarali nazoratning mavjud emasligi mazkur institutlarning ta'sirchanligini pasaytiradi. Shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari va idoralararo hamkorlik ko'p hollarda reaktiv xarakterga ega bo'lib, barvaqt ogohlantirish va xavf omillarini oldindan aniqlashga yetarlicha yo'naltirilmagan.

Tadqiqot natijalari va tergov amaliyoti tahlili asosida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi aniq, amaliy va institutsional takliflar ilgari suriladi.

1. Tergov profilaktikasini mustaqil protsessual yo'nalish sifatida institutsionallashtirish. Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyatga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha

12 Aleksandrov A.S., Terehin V.V. Kriminalistika: narkobiznes sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish. Moskva, 2019-y.



tergov organlarining majburiyatlarini aniqroq belgilash, mazkur yo‘nalishda qabul qilindigan qarorlarni tergov rejalarining alohida bo‘limi sifatida rasmiylashtirish zarur.

2. Prekursorlar aylanmasi ustidan nazoratni tergov profilaktikasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash. Tergov organlari tomonidan aniqlangan prekursorlar muomalasidagi kamchiliklar faqat jinoyat ishi materiallarida qayd etish bilan cheklanmasdan, majburiy tarzda tegishli nazorat organlariga taqdimnomalar kiritish orqali bartaraf etilishi lozim.

3. Narkotik laboratoriyalarni aniqlash bo‘yicha tahliliy modellarni joriy etish. Elektr energiyasi iste‘moli, kimyoviy moddalar xaridi, onlayn savdo platformalari, logistika va moliyaviy operatsiyalar haqidagi ma‘lumotlarni birlashtirgan holda tahlil qilish imkonini beruvchi idoralararo tahliliy mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

4. Alohida topshiriq institutidan foydalanish amaliyotini qayta ko‘rib chiqish. Alohida topshiriqlar mazmunida faqat jinoyatni fosh etish emas, balki aniq profilaktik maqsadlar (tizimli kamchiliklarni aniqlash, xavf manbalarini bartaraf etish) alohida ko‘rsatilishi, ularning ijrosi ustidan nazorat kuchaytirilishi lozim.

5. Taqdimnoma institutining ta‘sirchanligini oshirish. Taqdimnomalarda aniq ijro mexanizmlari, muddatlar va mas‘ul shaxslar ko‘rsatilishi, ularning ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar formal hisobot bilan cheklanmasdan, real o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan baholanishi kerak.

6. Tezkor-qidiruv tadbirlarida reaktiv yondashuvdan proaktiv yondashuvga o‘tish. Nazorat ostida yetkazib berish, kuza-tuv va axborot to‘plash tadbirlari faqat jinoyatni fosh etishga emas, balki jinoiy tarmoqlarni barvaqt aniqlash va neytrallashtirishga qaratilgan reja asosida amalga oshirilishi lozim.

7. Idoralararo hamkorlikni formal ax-

borot almashish darajasidan institutsional muvofiqlashtirish bosqichiga olib chiqish. Giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhlar tashkil etish, prekursorlar, moliyaviy operatsiyalar va tezkor ma‘lumotlar bo‘yicha yagona tahliliy platformalarni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

8. Tergov va tezkor xodimlarni ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish. Sintetik giyohvandlik moddalari, narkotik laboratoriyalar va prekursorlar bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha alohida ixtisoslashgan tergov guruhlarini shakllantirish, ular uchun maqsadli o‘quv dasturlarini joriy etish zarur.

9. Tergov profilaktikasining samaradorligini baholash tizimini joriy etish. Kiritilgan taqdimnomalar ijrosi, aniqlangan sabablar bo‘yicha ko‘rilgan choralar, takroriy jinoyatlar dinamikasi kabi ko‘rsatkichlar asosida tergov profilaktikasining natijadorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim.

10. Giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashishda profilaktik yondashuvni strategik darajaga ko‘tarish. Tergov faoliyatida profilaktikaga ikkinchi darajali vazifa emas, balki jinoyatchilikka qarshi kurashishning ustuvor va strategik elementi sifatida qaralishi, mazkur yondashuv idoralar faoliyatini baholash tizimida ham inobatga olinishi shart.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, huquqiy tizimni modernizatsiyalash va yangilash, jamiyatni demokratlashtirish jarayonlari giyohvandlikka qarshi kurashishni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Ilmiy asoslangan yondashuv, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va barcha tegishli organlarning uzviy hamkorligi asosida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar giyohvandlik jinoyatlariga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.



Saidkarim ALIMOV,

O'zbekiston Respublikasi IIV Maxsus operatsiyalarni

muvofiglashtirish boshqarmasi boshlig'i,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATINI TERGOV QILISHDA AYRIM NOAN'ANAVIY USULLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI: XORIJIY TAJRIBA

ANNOTATSIYA. Maqolada qasddan odam o'ldirish jinoyatini tergov qilishda xorijiy davlatlarda ayrim noan'anaviy usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ushbu usullardan biri poligrafdan foydalangan holda inssenirovka qilingan qasddan odam o'ldirish jinoyatini fosh qilishda O'zbekiston amaliyotida qo'llash masalasi o'rganilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются спетсифические особенности применения некоторых нетрадиционных методов расследования преступлений в зарубежных странах, а также рассматривается применение одного из таких методов на практике в Узбекистане при раскрытии инсценированного умышленного убийства с использованием полиграфа.

ABSTRACT. The article analyzes the specific features of the use of some unconventional methods in foreign countries in investigating crimes, and studies the application of one of these methods in the practice of Uzbekistan in exposing the crime of staged murder using a polygraph.

Kalit so'zlar: qasddan odam o'ldirish, inssenirovka, jinoyat, poligraf, gipnoz, so'roq, tergov.

Ключевые слова: умышленное убийство, инсценировка, преступление, полиграф, гипноз, допрос, расследование.

Key words: manslaughter, staging, crime, polygraph, hypnosis, interrogation, investigation.

Dunyoning qaysi davlatida jinoyat tergov qilinayotganidan qat'i nazar, unga qarshi ta'sir ko'rsatish usullari, qoida tariqasida, deyarli bir xil bo'ladi. Bunday usullarga quyidagilarni kiritish mumkin: hujjatlarni soxtalashtirish, guvohni bila turib yolg'on ko'rsatma berishga undash, jinoyat hodisasini inssenirovka qilish, jinoyat sodir etilgan aholi punkti hududidan yoki umuman davlatdan tashqariga chiqib ketish, jinoyat izlari va dalillarni yo'q qilish, ruhiy kasallikni simulyatsiya qilish, tashqi ko'rinishni o'zgartirish, dastlabki tergovni amalga oshirayotgan mansabdor shaxsni "jisman yo'q qilish", jinoyat protsessi ishtirokchilariga jismoniy, psixologik yoki boshqa turdagi ta'sir ko'rsatish va hokazo. Ko'pincha bunday tergovga qarshi ta'sir ko'rsatish faoliyati faqat gumonlanuvchilar yoki ayblanuvchilar tomonidan emas, balki ishonchsiz va xolis bo'lmagan himoyachilar — advokatlar tomonidan ham amalga oshiriladi¹.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini tergov qilishda qarshi ta'sirlarni bartaraf etishning noan'anaviy usullaridan biri sifatida "yolg'onni aniqlash detektori"dan (poligraf) foydalanish — jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs yoki jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxs tomonidan aytilgan yolg'onni fosh etishning zamonaviy usuli bo'lib, poligrafdan foydalanilgan holda so'rov o'tkazish hisoblanadi. Biroq O'zbekistonda umumiy qoida bo'yicha "yolg'onni aniqlash detektori"dan olingan natijalar qonun tomonidan dalil sifatida qo'yiladigan talablarga, jumladan, haqiqat talabiga javob bermaydi. Bunday tadqiqotlarni esa dastlabki tergov bosqichida tergov tasmollarini ishlab chiqish va tekshirish maqsadida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan poligrafdan foydalanib olib borilgan psixofiziologik tadqiqot natijalari dalil sifatida hisoblanmaydi, balki asosan tezkor-qidiruv tadbirlari olib borishda qo'llansa maqsadga

1 Ю.П.Гармаев Незаконная деятельность адвокатов в уголовном судопроизводстве. М.: Экзамен, 2005 г., – С. 390.



muvofiq bo‘ladi².

Qasddan odam o‘ldirish jinoyatini tergov qilishda dalillarni aniqlash tartibini suiiste‘mol qilish muammosi mavjudligini hisobga olsak³, ayniqsa, inssenirovka bilan bog‘liq bo‘lsa jinoyat ishi bo‘yicha ishonchli ma‘lumot (dalillar) olishda ko‘pgina davlatlar poligrafdan foydalanadi. Shu bilan birga, dalillarning to‘g‘riligini aniqlashning ushbu usulini umumiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mumkin.

Qasddan odam o‘ldirish jinoyatini tergov qilishda poligrafdan foydalanish juda oddiy va keng tarqalgan. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda dunyoning oltmishdan ortiq davlatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaxslarning psixofiziologik reaksiyalarini qayd etish usullarini poligraflardan foydalanigan holda aniqlashmoqda, bu esa ushbu muammoning dolzarbligi, talab qilinishi va zamonaviyligini ko‘rsatadi.

Xususan, AQSH poligraf yordamida psixofiziologik tadqiqotlar o‘tkazishda mutlaq yetakchi hisoblanadi. Har yili ushbu davlat hududida bir milliondan ortiq poligraf tekshiruvi o‘tkaziladi⁴.

AQSH hududida poligrafdan foydalanish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bu psixofiziologik tekshiruv usuli nafaqat jinoyat ishi uchun, balki fuqarolik ishlarida ham keng tarqalgan⁵. Shu munosabat bilan 1988-yilda AQSHda “Xodimlarni poligrafdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunda hayotning ko‘plab sohalari bunday tadqiqotlarni o‘tkazish tartibi aniq va qat’iy belgilangan.

Kanada o‘tkazilgan poligraf sinovlari bo‘yicha AQSHdan keyin ikkinchi o‘rin-

da turadi. Kanadada poligraf yordamida olib borilgan psixofiziologik tadqiqotlardan jinoyatlarni tergov qilishda faol foydalanilmoqda, ammo AQSHdan farqli o‘laroq bu natijalar sudlanuvchining aybdorligini isbotlash uchun sudlarda qo‘llanilmaydi.

Kanadada huquqni muhofaza qiluvchi organlar faqat jinoyat sodir etish yoki gumon qilinuvchilar doirasini qisqartirish, qo‘shimcha ma‘lumot olish maqsadida poligrafdan foydalanadi, biroq poligraf nafaqat ayblanuvchiga, balki jabrlanuvchi, guvohlar va da‘vogarlariga ham qo‘llaniladi.

AQSH tajribasi. Bu yerda poligraflardan foydalanish ko‘plab inson faoliyatiga, xususan, kontrrazvedka tadqiqotlari va xodimlarning ish samaradorligini baholashga qaratilgan jarayonlarda⁶ ham faol foydalanib kelinmoqda. Amerikada qasddan odam o‘ldirish jinoyatini aniqlash va tergov qilishda poligrafda psixologik sinovlar allaqachon o‘tkaziladi⁷, ammo ular hamisha ijobiy natija bergan yoki berib kelmoqda deb aytish qiyin.

Masalan, AQSHda sodir bo‘lgan quyidagi holatni misol qilib keltirish mumkin: yosh P.Reyli onasini shafqatsizlik bilan qasddan o‘ldirganlikda ayblanib, sud tomonidan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Bunda politsiya qotillikda shubhalanib, e‘tibori ni marhumning farzandi P.Reyliga qaratgan. Jismonan charchagan va ruhan qattiq siqilgan P.Reylini politsiya avval “intensiv so‘roq”qa olib borgan va so‘rovdan so‘ng darhol poligrafda sinovdan o‘tkazishgan, natijalar esa P.Reyli uchun manfiy chiqqan. Sinovni o‘tkazgan operator P.Reylini sinovning ilmiy qat’iyligiga ishontirgan. Shu vaqtda ehtimol P.Reyli onasini xayoliy ravishda o‘ldirgan-

2 В.Н.Карагодин Основы криминалистического учения о преодолении противодействия предварительному расследованию: дис...д-ра юрид. наук. Екатеринбург, 1992 г., – С. 388.

3 Linda S. Mullinex. “The Persuasive Myth of Pervasive Discovery Abuse and Consequences for Unfounded Rulemaking”. Stanford Law Review. 1994, vol. 46, p. 1393.

4 AQSH mudofaa vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, oqlanish uchun tekshiruvlar poligraf testlarining umumiy sonining 15 foizini tashkil qiladi va har yili minglab o‘tkaziladi. (Аратулы К., Адилгазы С., Алимова С.С.).

5 Examiner Handbook Federal Psycho-physiological Detection of Deception. 2006. P. 14.

6 Ю.И.Холодный Применение полиграфа при профилактике, раскрытии и расследовании преступлений. – М., 2000 г. – С. 55.

7 Я.В.Комиссарова, Н.И.Мягих, А.Б.Пеленицын Полиграф в России и США: проблемы применения. М.: Юрлитинформ, 2012 г. – С. 224.



man deb o'ylab, "iqrор bo'lgan va sudlangan". Biroq bir necha yildan so'ng P.Reyli-ning aybsizligi aniqlanib, oqlangan⁸.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, to'plangan, tasdiqlangan va baholangan dalillar haqiqatni aniqlash uchun jinoyatlarning aniqlanishi, fosh qilinishi va tergov qilinishida katta ahamiyatga ega. Biroq mazkur holatda katta mumammo insseniroykadan foydalanган holda sodir etilgan jinoyatlarga xosdir.

Yaponiya poligraf yordamida tadqiqot olib borayotgan yuqori malakali kadrlar soni bo'yicha dunyodagi uchinchi mamlakatdir. Yaponiyada 1956-yildan beri poligraf qo'llanilib kelinmoqda va uning qo'llanilishida asosiy rol politsiyaga yuklatilgan. 1959-yildan boshlab bu davlatda poligraf tekshiruvlari natijalari quyi sudlarda dalil sifatida qabul qilinadi va 1970-yildan esa sudyalар va Oliy sudning ixtiyoriga ko'ra qabul qilinadi.

Biroq poligrafdan foydalanish natijalari ta'sirli bo'lganligi sababli, birinchi navbatda, boshqa ayrim davlatlar uchun mutlaqо foydalanish mumkin emas.

Yevropa davlatlarida jinoiy sud ishlarini yuritish ehtiyojlari uchun poligrafdan foydalanishning boshqacha ko'rinishi mavjud. Shunday qilib Buyuk Britaniyada psixofiziologik tadqiqot usulini joriy etish va undan foydalanish urinishlari muvaffaqiyat bilan yakunlanmadi va yanada rivojlanmadi.

Germaniyada 1954-yilda sudyalardan biri Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan sud qarorini chiqargan, unda jinoiy ish yuritishda poligrafdan foydalanish taqiqlangan. Ushbu sud "yolg'onni aniqlash detektorі" testi inson qadr-qimmati va daxlsizligini kamsitishi bilan o'z pozitsiyasini asoslab bergan. Keyinchalik, 1981-yilda Ger-

maniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi poligrafni butun davlat hududida ishlatishni taqiqlashni tasdiqlagan.

Avstriya jinoyat-protsessual qonuni, shuningdek, ayblanuvchining o'zi so'rasa ham jinoyatlarni tergov qilishda poligrafdan foydalanishni taqiqlaydi.

Polshada poligraf yordamida olib borilgan tadqiqot natijalari jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida sud tomonidan tan olinishi mumkin bo'lgan yagona holatdir, ammo bu umumiy qoidaga istisno. Bugungi kunda Polshada poligraf huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan faqat tezkor faoliyat doirasida (masalan, tergov tismollarini ilgari surishda yo'naltiruvchi ma'lumot sifatida) qo'llaniladi.

Fransiya, Ispaniya, Italiya, Sloveniya va boshqa bir qator Yevropa davlatlarida ham poligraf yordamida o'tkazilgan psixofiziologik tadqiqotlar to'g'ri rivojlanmadi.

Yevropa davlatlaridan tashqari Avstraliya, Kolumbiya, Boliviya, Gvatemala, Xitoy, Gonduras, Indoneziya, Pokiston, Marokash, Yamayka, Nigeriya, Panama va boshqa qator davlatlarda ham xuddi shunday holat mavjud⁹.

MDH davlatlari orasida poligraf Belarus¹⁰, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjonda faol rivojlanmoqda. Misol uchun, Rossiyada so'nggi o'n yilliklarda poligrafdan foydalanish imkoniyatlari nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida, balki kundalik hayotda ham keng qo'llanilmoqda¹¹.

Rossiya hududida jinoyatchilikka qarshi kurashda poligrafdan foydalanish bo'yicha olib borilgan monitoring uning potensialidan keng foydalanishni nazarda tutadi:

– jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda

8 Ю.И.Холодный Применение полиграфа при профилактике, раскрытии и расследовании преступлений (генезис и правовые аспекты). М.: Мир безопасности, 2000 г., – С. 160.

9 L.Saxe & Ben-Shakhar G. (1999) Admissibility of polygraph tests: The application of scientific standards post-Daubert. Psychology, Public Policy and the Law, vol. 5, no 1, pp. 203-23.

10 Д.С.Кудрявцев Опыт и перспективы использования полиграфа как метода преодоления противодействия раскрытию и расследованию преступлений в Республике Беларусь // Вестник Нижегородской академии МВД России, 2015 г., № 1 (29), 152-158 с.

11 А.Ю.Ушаков, О.Ю.Андрянова Использование результатов психофизиологических исследований с помощью полиграфа в раскрытии и расследовании уголовных дел: Монография // Нижний Новгород: Нижегородская академия МВД России, 2014 г.



ular bir qator Rossiya subyektlari (masalan, Krasnodar o‘lkasida) hududida qo‘llaniladi.

– poligraf yordamida olib boriladigan psixofiziologik tadqiqotlar uchun eng muhim savollarni yanada shakllantirish va qo‘yish uchun navbatchilik qilayotgan tergov guruhiining ishida;

– sud ekspertizasining o‘ziga xos turini, ya’ni poligraf orqali tekshirish;

– jinoiy ishlar bo‘yicha nazorat tartibida tergov ehtiyojlari uchun poligrafdan foydalanishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalar beradigan prokuratura faoliyatida;

– sud tomonidan poligraf tadqiqotlari natijalarini maqbul dalil sifatida tan olish holatlari va boshqalar.

Ko‘rib turganingizdek, Rossiya Federatsiyasi hududida poligraf imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha mavjud amaliyot noaniq bo‘lib, asosiy sabab bu mamlakatda uni qo‘llashning yagona huquqiy asoslari yo‘qligi bilan bog‘liq.

Yuqorida qayd etib o‘tilganlardan tashqari, qasddan odam o‘ldirish jinoyatini tergov qilishga qarshi ta’sir ko‘rsatish usullari va ularni bartaraf etishning ayrim noan’anaviy yo‘llaridan yana biri sifatida gipnozni keltirish mumkin. Bir qator mamlakatlarda gipnoz qasddan odam o‘ldirish jinoyatini fosh qilish va tergov qilishdagi to‘siqlarni yengib o‘tish vositasidir. Masalan, Isroilda 1984-yildagi “Gipnozdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun bugungi kunga qadar ham amal qilib kelmoqda. Ushbu qonunning 1-moddasiga ko‘ra, gipnoz – bu boshqa odamning ongi, tana sezgilari, his-tuyg‘ulari, fikrlari, xotirasi yoki xatti-harakatlarida o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki taklif orqali amalga oshiriladigan har qanday harakat yoki jarayon sifatida ta’riflanadi.

Shuningdek, qonunning 3-moddasida esa gipnozning maqsadlari orasida tibbiy va ilmiy maqsadlardan tashqari, ushbu qonunda politsiya yoki xavfsizlik xizmati tomonidan

olib borilayotgan tergovda xotirani yangilash ham ko‘rsatilgan. Qonunga ko‘ra, shaxs gipnozga faqat ixtiyoriy ravishda, yozma roziligi bilan va faqat unga gipnoz jarayonining mohiyati hamda uning mumkin bo‘lgan oqibatlari tushuntirilganidan keyingina qo‘llanilishi mumkin. Qamoqqa olingan yoki ushlangan shaxs gipnoz ostida so‘roqqa faqat o‘zining yoki Adliya vazirligi tomonidan tayinlangan advokati ishtirokidagina rozilik berishi mumkin. Gipnoz faqat maxsus tuzilgan komissiya-ning qarori bilan qo‘llanilishi mumkin. Jinoiyatda gumon qilinayotgan shaxsni politsiya tergov gipnoziga duchor qila olmaydi (bundan faqat u o‘zining aybsizligini isbotlash maqsadida advokat ishtirokida bu haqda yozma ravishda o‘zi so‘ragan hollar mustasno). Ammo shaxs tomonidan tergov gipnozi paytida aytilgan har qanday so‘zlar uning aybini isbotlovchi dalil sifatida qo‘llanilishi mumkin emas.

Shu bilan bir qatorda, AQSHda ham gipnoz qo‘llaniladi va unga ko‘ra gipnoz deb jinoyat guvohlarining xotirasida saqlanayotgan yashirin ma’lumotni qayta tiklash jarayonini maqsadli ravishda boshqarish imkonini beradigan xotirani faollashtirish tushuniladi. Buning natijasida bunday ma’lumot hatto sudlar tomonidan ham dalil sifatida tan olinadi¹². Masalan, AQSH Oliy sudining 1978-yildagi “Rok Arkanzasga qarshi” jinoyat ishi bo‘yicha bayon etgan va asoslab bergan pozitsiyasini keltirishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu jinoyat ishida sodir etilgan qasddan odam o‘ldirishning holatlari faqat ayblanuvchining o‘ziga ma’lum bo‘lishi mumkin edi, ammo u hech narsani eslamagani uchun ko‘rsatma bera olmas edi. Mazkur holatni inobatga olgan holda ayblanuvchiga nisbatan gipnoz o‘tkazish taklifi ilgari surilgan, bu esa uning xotirasida qasddan odam o‘ldirish jinoyat holatlarini qayta tiklashga yordam berishiga olib kelgan¹³. Bundan tashqari, AQSH prokura-

12 A.Кавалиерис Использование гипноза при опросе // Вестник криминалистики. 2009 г., 50 – 54 с.

13 И.В.Смолькова Проблемы использования гипноза при раскрытии и расследовании преступлений // Вестник Восточно-Сибирского института МВД России. 2020 г., № 3 (94), 210 – 222 с.



turasi uchun qo'llanmada ta'kidlanishicha, guvoh gipnozga faqat qo'shimcha ma'lumotga haqiqiy ehtiyoj bo'lsa qo'llanilishi kerak. Agar guvoh yozma rozilik bermasa, uni gipnozga solish mumkin emas va u gipnozning huquqiy tabiati haqida xabarador bo'lishi shart. Faqat sud gipnozi bo'yicha tayyorlangan psixolog yoki psixiatrqa guvohni gipnozga solishga ruxsat berilishi kerak. So'roq paytida noto'g'ri javoblar berilishining oldini olish uchun dastlabki savollardan qochish kerak. Guvoh gipnoz ostida bo'lgan paytda o'tkazilgan so'roqlar videoga yozib olinishi va har qanday audioyozuvga qo'shimcha ravishda transkript tayyorlanishi kerak. Biroq xotirada saqlangan ma'lumotlar buzib ko'rsatilishi (o'zgartirilishi) mumkinligini yodda tutish muhimdir, ya'ni gipnoz ostida subyekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar aksioma sifatida qabul qilinmasdan, boshqa ob'ektiv vositalar bilan tasdiqlanishi kerak¹⁴.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda poligraf natijalari ham, ixtiyoriy "gipnoz qilingan so'roq" ham qasddan odam o'ldirish jinoyatini fosh etish va tergov qilishning boshqa no'an'aviy usullari¹⁵ orqali dalillarni aniqlash vositasi yoki huquqni muhofaza qilish organlariga ilgari noma'lum bo'lgan dalillarni topish usuli sifatida ishlatilishi mumkin, biroq ularning dalillar qonunchiligi nuqtayi nazaridan qabul qilinishini muhokama qilish bizning nazarimizda hali erta hisoblanadi.

Shunday qilib biz qasddan odam o'ldirish jinoyatiga umuman olganda butun jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro tajriba psixofiziologik tadqiqotlar natijalarini odil sudlov sohasida poligrafdan foydalanishda ehtiyotkorlik bilan foydalanish to'g'risida umumiy xulosani chiqarishimiz mumkin. Bu holat birinchi navbatda, poligraf psixofiziologik usulining yagona tabiiy ilmiy asoslari yo'qligi bilan bog'liq. Shuning uchun poli-

graf yordamida ushbu diagnostika natijalari tabiatda ehtimollik belgisidir va tadqiqot natijalari poligraf mutaxassisining subyektiv bahosiga asoslanadi.

Mazkur xulosalar ushbu masala bo'yicha xalqaro nuqtayi nazarga mos keladi va biz hozirgi zamon ilm-fani yolg'onning oqibati bo'lgan psixofiziologik reaksiyalar mexanizmlarini yetarlicha o'rganmagan degan xulosaga kelamiz. Natijada poligrafning imkoniyatlari, shu jumladan, u bilan ishlaydigan har qanday poligraf tekshiruvchisi yolg'on va haqiqat qayerda ekanligini aniq aniqlaydigan ishonchli manba bo'la olmaydi.

Shu munosabat bilan O'zbekistondagi jinoyatlarni tergov qilishda poligraf imkoniyatlaridan faqat tergov qilinayotgan hodisaga yondashishga imkon beradigan yo'naltiruvchi ma'lumot olish uchun foydalanish kerak. Jinoiy inssenirovka orqali sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatini tergov qilishda poligrafdan foydalanish natijasida kriminalistik amaliyotda yolg'on ma'lumotni aniqlash, shaxsning psixofiziologik reaksiyalarini baholash orqali tergov jarayonini samarali olib borishda muhim yordamchi vosita hisoblanadi. Jinoiy inssenirovka qilingan qasddan odam o'ldirish jinoyatida esa poligrafning ahamiyati yanada ortib, voqeaning haqiqiy mexanizmlarini tiklashda katta ahamiyat kasb etadi. Insseirovka holatlarida ayblanuvchi yoki boshqa shaxslar voqeani sun'iy ravishda o'zgacha ko'rinishda tashkil qiladi. Bunday hollarda ko'rsatmalarda ziddiyatlar, xronologiyada noaniqliklar va voqeaga to'g'ri kelmaydigan detallar ko'p uchraydi. Poligraf shaxsning ushbu ma'lumotlarni yashirish yoki o'ylab topgan ssenariyni takrorlashga bo'lgan reaksiyasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, insseirovka qilingan qasddan odam o'ldirish jinoyatini tergov qilish taktikasida poligraf quyidagi afzalliklarni beri-

14 Н.А.Андроник, К.А.Лещукова Сравнительный анализ применения гипноза в России и США в ходе раскрытия и расследования преступлений // Правоохранительные органы: теория и практика. 2018 г., № 1, 20 – 22 с.

15 И.В.Смолькова Нетрадиционные методы расследования преступлений и доказывание // Законы России: опыт, анализ, практика. 2017 г., № 1(1), 30 – 34 с.



shi mumkin:

- tasmollarni saralashda tezkorlik;
- shubhali shaxslarni aniqlashda psixofiziologik ma'lumotlardan foydalanish;
- ko'rsatmalardagi salbiy holatlarni aniqlovchi qo'shimcha vosita sifatida qo'llanilishi;
- shaxs voqea joyini o'zgartirishda ishtirok etgan-etmagani;
- qurol, arqon, vositalarni kim joylashtirgani;
- marhum bilan janjal, nizo, qasd sabablari bo'lgan-bo'lmagani;
- qo'shimcha ekspertizalar tayinlash;
- guvohlardan qo'shimcha so'roq olish;
- ayblanuvchining oldingi tasmollarini qayta tekshirish;
- voqea mexanizmini aniqroq bayon qilishga olib kelishi;

lishga olib kelishi;

- aybni tan olishga ko'maklashishi.
- Poligrafdan foydalanishda quyidagilarga qat'iy amal qilish lozimdir:
- ixtiyoriy rozilik;
 - noqonuniy bosim o'tkazmaslik;
 - inson huquqlarini buzmaslik;
 - bolalar, ruhiy kasalligi bor shaxslarga nisbatan qo'llamaslik.

Poligraf mustaqil dalil hisoblanmasada jinoyat inssenirovka qilingan qasddan odam o'ldirish jinoyatini tergov qilishda muhim yordamchi usuldir. U voqea bo'yicha real ma'lumotlarga yaqinlashish, shaxsning o'zida mavjud psixofiziologik reaksiyalar orqali yashirin holatlarni aniqlash va tergovni maqbul yo'naltirish imkonini yaratadi.

#



Saxodulla SHOMIRZAYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Dastlabki
tergov va surishtiruv kafedrası dotsenti, yu.f.f.d. (PhD)

BOJXONA ORGANLARINING SURISHTIRUV SOHASIDAGI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni xorijiy amaliyot bilan qiyoslash orqali bojxona organlarining surishtiruv sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirish, jinoyatlarni tergov qilishda bojxona organlarining vakolat va imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risidagi masalalar yoritib berilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье освещаются вопросы повышения эффективности деятельности таможенных органов в сфере дознания путем сравнения национального уголовно-процессуального законодательства с зарубежной практикой, а также расширения полномочий и возможностей таможенных органов в расследовании преступлений.

ABSTRACT. This article highlights the issues of enhancing the efficiency of customs authorities in the inquiry by comparing national criminal procedural legislation with foreign practice, as well as expanding the powers and capabilities of customs authorities in the investigation of crimes.

Kalit so'zlar: bojxona organlari, surishtiruv, jinoyat, tergov, ma'muriy huquqbuzarlik, jinoyat ishini qo'zg'atish, tergovga qadar tekshiruv, noqonuniy olib o'tish, bojxona chegarasi, jinoyat ishi hujjatlari, kvalifikatsiya.

Ключевые слова: таможенные органы, дознание, преступление, следствие, административное правонарушение, возбуждение уголовного дела, доследственная проверка, незаконное перемещение, таможенная граница, документы уголовного дела, квалификация.

Key words: customs authorities, inquiry, crime, investigation, administrative offence, initiation of a criminal case, pre-investigation check, illegal movement, customs border, criminal case documents, qualification.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasiga muvofiq, 5 ta davlat organi tomonidan surishtiruv faoliyatini amalga oshirishga vakolat berilgan. Unga ko'ra, bojxona organlari ham surishtiruv organi hisoblanib, bir qator jinoyatlar bo'yicha jinoyat ishlari dastlabki tergovga yuborilmasdan, surishtiruv shaklidagi tergov o'tkazish orqali sudga yuboriladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 381²-moddasiga ko'ra, bojxona organlariga Jinoyat kodeksining¹ 130-moddasi (pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish) birinchi va ikkinchi qismlari, 130¹-moddasi (zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 184-moddasi (solliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash) birinchi va ikkinchi qismlari, 244³-moddasi (diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saq-

lash, olib kirish yoki tarqatish), 244⁴-moddasi (uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish) birinchi qismi hamda 250¹-moddasi (pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi) birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv shaklidagi tergov harakatlari o'tkazish vakolati berilgan.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 167-moddasi (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish) birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat bo'yicha, agar bojxona organi tomonidan ish qo'zg'atilgan bo'lsa, unga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ham bojxona organi tomonidan olib boriladi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 237-moddasi (yolg'on xabar berish) birinchi qismida, 238-moddasi (yolg'on guvohlik berish) birinchi va ikkinchi qismlarida, 239-mod-

1 <https://www.lex.uz/acts/111453>



dasi (surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish) va 240-moddasida (jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi) nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat, agar bojxona organining tergoviga tegishli bo'lgan taqdirda, ushbu organ tomonidan olib borilishi o'rnatilgan.

Demak, bojxona organlari tomonidan asosan 6 turdagi, jami esa 11 turdagi jinoyatlar yuzasidan surishtiruv shaklidagi tergov harakatlari olib borilishi mumkin. Ammo mazkur jinoyatlarning juda ham kam aniqlanayotganligi bojxona organlarining jinoyatlarni surishtiruv shaklida tergov qilish amaliyoti sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv o'tkazish ishlarining muntazam tashkil etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu turdagi jinoyatlarning kam aniqlanishi yoki aniqlanmayotganligi bo'yicha ham o'ziga xos sabablar bor. Xususan, bojxona organlari surishtiruviga taalluqli jinoyatlarning asosiy qismi jinoiy ish qo'zg'atish uchun ma'muriy preyditsiyani talab qiladi, ya'ni shaxsning muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilganligiga bog'liq. Ushbu yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni javobgarlikka tortish hollarining kamligi ham bir necha omillarga borib taqaladi. Misol uchun, bojxona organlari tomonidan aniqlangan pornografik mahsulotni olib kirish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar amaliyotda juda ko'p hollarda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasi tartibida tugatilib kelinmoqda, boshqa huquqbuzarliklar esa ayrim obyektiv omillar sababli fuqarolar tomonidan sodir etilishining kamayishiga erishilgan. Pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklarni esa "mavsumiy" deb ta'riflash mumkin.

Ammo bojxona organlari faoliyatida har xil tovarlar bilan bog'liq bo'lgan, Jinoyat kodeksining turli moddalari bilan malakalanadigan jinoyatlar aniqlanadi va surishtiruvchilar

tomonidan tergovga qadar tekshiruv bosqichida jinoyat ishi qo'zg'atilib, to'plangan ish hujjatlari tegishlilikiga ko'ra yuboriladi.

Shuni ta'kidlash joizki, bojxona organlari surishtiruv organi sifatida bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq har qanday jinoyat yuzasidan sudga qadar ish yuritish borasida istiqbol yillarida yetarli tajriba va salohiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining bojxona organlari surishtiruviga taalluqli bo'lmagan, lekin bojxona xodimlari tomonidan aniqlanib, bojxona chegarasi orqali ayrim tovarlarning noqonuniy harakati yoki shaxslarning noqonuniy faoliyati bilan bog'liq jinoyatlar yuzasidan bojxona chegarasida aniqlanganligi sababli ham bojxona organlari har tomonlama va puxta tergov harakatlarini tashkil eta oladilar.

Bunday turdagi jinoyatlarni ham bir necha guruhlarda sanab o'tish mumkin.

Birinchidan, bevosita bojxona qonun hujjatlarini buzishga oid jinoyatlar, ya'ni Jinoyat kodeksining 182-moddasida (bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish) va 246-moddasida (kontrabanda) nazarda tutilgan jinoyatlar.

Ikkinchidan, muayyan turdagi tovarlar yuzasidan amalga oshiriladigan noqonuniy xatti-harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar. Bunda jinoyat ayni bir turdagi tovarlarning bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tilishi, muomalaga kiritilishi, saqlanishi va boshqa harakatlar orqali sodir etiladi. Bojxona sohasida ushlab qolinayotgan tovarlarning turlariga qarab bu turdagi jinoyatlarga Jinoyat kodeksining 159-moddasida (respublika konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qiluvchi materiallar bilan bog'liq), 176-178-moddalarida (qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar, valyuta qimmatliklari bilan bog'liq), 185¹-moddasida (rangli metallar bilan bog'liq), 186-186³-moddalarida (xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlar, etil spirti, alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, chigitdan olinadigan mahsulotlar, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoxud tibbiy buyumlar bilan bog'liq), 247-248-moddalarida (o'qotar qurol, o'q-do-



rilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari bilan bog'liq), 251-251'-moddalarida (kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalar bilan bog'liq), 255'-moddasida (bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari bilan bog'liq), 270-276-moddalarida (giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan bog'liq), 202-moddasida (hayvonot yoki o'simlik dunyosi bilan bog'liq) nazarda tutilgan jinoyatlar. Bojxona organlarining surishtiruviga taalluqli bo'lgan, ya'ni pornografik mahsulotlar, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlar, diniy mazmundagi materiallar, uchuvchisiz uchadigan apparatlar hamda pirotexnika buyumlari bilan bog'liq jinoyatlar ham shu guruhdagi jinoyatlar jumlasidandir.

Uchinchidan, tovarlar bilan bog'liq shaxslarning noqonuniy faoliyati va boshqa harakatlari bilan bog'liq jinoyatlar. Bunga Jinoyat kodeksining 188-190-moddalarida (noqonuniy tadbirkorlik faoliyati, pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish, faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish kabilar), 223-moddasida (qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish), 228-moddasida (hujjatlar, shtamplar, muhr-lar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) nazarda tutilgan jinoyatlarni kiritish mumkin.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish yoki shu bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar ham bojxona tekshiruvlari jarayonida aniqlanmoqda, xususan, Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) hamda 171-moddasi (jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish) bilan bojxona organlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari mavjud. Bundan tashqari, bojxona organlari tomonidan olib qo'yilgan tovarlar bo'yicha boshqa turdagi jinoyatlar aniqlanishi mumkin.

To'rtinchidan, Jinoyat kodeksining 205–214-moddalarida qayd etilgan boshqa-

ruv tartibiga qarshi jinoyatlar bo'yicha ham, agar bojxona xodimlari faoliyatiga daxldor bo'lmagan hollarda, tegishli tergov harakatlari olib borish vakolatini berish maqsadga muvofiq.

Chunonchi, xalqaro tajribada bojxona organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti ko'plab davlatlarda mavjud. Masalan, AQSHda ikki turdagi bojxona xizmati mavjud bo'lib, ulardan Immigratsiya va bojxona xizmati (ICE-Immigration Customs Enforcement) tergov sohasida juda katta vakolatlarga ega organ hisoblanadi. Jumladan, Immigratsiya va bojxona xizmati ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish, terrorizm, odam savdosi va kontrabandasi, qurol-yarog' kontrabandasi, narkotik moddalar savdosi va kontrabandasi, hujjatlar va daromadlar firibgarligi, soxta immigratsiya va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash, foydalanish va sotish, inson huquqlari buzilishi, transmilliy uyushgan jinoiy faoliyat, pul yuvish va yirik miqdordagi valyuta kontrabandasi kabi moliyaviy jinoyatlar, kiberjinoyat, bolalar ekspluatatsiyasi, tijorat firibgarligi va intellektual mulk o'g'irligi kabi savdo jinoyatlari, kontrafakt dori vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari kontrabandasi, ommaviy marketing firibgarligi, san'at o'g'irligi, viza xavfsizligi, xalqaro madaniyat va antikvariatga oid jinoyatlar kabilarning tergovini amalga oshiradi va bu bo'yicha mamlakat Milliy xavfsizlik kotibiga hisobot beradi².

Yevropa Ittifoqining aksar davlatlari jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha bojxona organlariga tergov qilish vakolati berilgan, chunki ularda surishtiruv institutining o'zi mavjud emas. Misol uchun, hozirda Yevropa Ittifoqining a'zo mamlakatlaridan biri bo'lgan Latviya Respublikasida bojxona idoralari Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari xizmati tarkibida bo'lib, uning Soliq va bojxona politsiyasi deb nomlanuvchi tuzilmasi Latviya jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, 11 ta tergov organlaridan biri



hisoblanadi. U soliq, bojxona va moliya sohasidagi huquqbuzarliklar yuzasidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish, gumonlanuvchini ushlash, ushlab turish, barcha zarur tergov harakatlari olib borish va ishni sudga yuborish vakolatlariga ega. Soliq va bojxona politsiyasining respublika bo‘yicha uchta hududiy tuzilmasi bo‘lib, ularga bojxona idoralarida aniqlangan jinoyat alomatlari bor barcha huquqbuzarlik holatlari yuzasidan xabar berilishi va to‘plan-gan hujjatlar o‘z vaqtida taqdim etilishi shart³.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlariga surishtiruv organi sifatida vakolat berilganligi MDH doirasidagi ayrim davlatlar bojxona organlarining mazkur yo‘nalishidagi faoliyatiga muvofiq keladi. Hatto ushbu davlatlar qonunchiligiga qiyoslaganda, O‘zbekiston bojxona organlari surishtiruviga taalluqli jinoyat turlarining soni bo‘yicha nisbatan ko‘proqni tashkil qiladi. Bunga Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikasi bojxona organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda naqd pul vositalari kontrabandasi jinoyatlari bo‘yicha (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 194 va 200¹-moddalarida) bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan tergov shaklidagi surishtiruv o‘tkaziladi. Ozarbayjonda esa bojxona organlari Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 207-moddasi (Ozarbayjon Respublikasi hududiga badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarni qaytarmaslik) hamda 209-moddasida (bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash) ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv shaklida, ya‘ni sudgacha soddalashtirilgan ko‘rinishdagi tergov o‘tkazadilar⁴.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, bevosita bojxona qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan “Bojxona qonun hujjatlarini buzish” (Jinoyat kodeksining 182-moddasi) va “Kontra-

banda” (Jinoyat kodeksining 246-moddasi) jinoyatlarini malakalash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi 18-sonli qarorida Jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan qo‘shimcha tarzda malakalash kerakligi ko‘rsatilgan. Jumladan, unda tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazish qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish bilan bog‘liq tarzda sodir etilsa, shaxsning bunday harakatlari Jinoyat kodeksining 182 va 223-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan, bojxona chegarasini buzib o‘tish paytida aybdor tomonidan shaxs badaniga qasddan og‘ir shikast yetkazilgan yoki u qasddan o‘ldirilgan bo‘lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 182-moddasi ikkinchi qismining “b” bandi va tegishli Jinoyat kodeksining 97 yoki 104-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo‘yicha, shuningdek, agar shaxs kontrabanda jinoyatini sodir etish bilan bir qatorda kontrabanda ashyolarining noqonuniy muomalasi bilan boshqa jinoyatlarni (Jinoyat kodeksining 247, 248, 273-moddalari va hokazolarni) sodir etsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi aks etgan. Bu esa o‘z navbatida, bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv faoliyatida o‘zaro turdosh bo‘lgan jinoyatlarning aniqlanishi mumkinligidan dalolat beradi. Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv bosqichida Jinoyat kodeksining ko‘plab moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan to‘qnash kelishi ham surishtiruvga taalluqli jinoyatlar doirasini yanada kengaytirish uchun yana bir dalil vazifasini o‘taydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bojxona organlarining surishtiruviga taalluqli jinoyatlar sonini ko‘paytirish yoki bojxona organlariga tergov organi maqomini berish mazkur jinoyatlar bo‘yicha o‘tkaziladigan ji-

3 <https://www.vid.gov.lv/lv/vid-nodoklu-un-muitas-policija-nodot-kriminalvajasanai-divas-personas-par-izvairisanos-no-nodoklu>

4 A.Axlimirzayev, S.Shomirzayev Bojxona organlariga jinoyatlar yuzasidan surishtiruv o‘tkazish tartibi. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2020-yil, 7-bet



noyatlar bo'yicha tergov sifatining pasayishiga emas, aksincha oshishiga xizmat qiladi. Chunki boshqa ayrim surishtiruv yoki tergov organlarining faoliyatida aniqlanish doirasi keng bo'lgan jinoyatlar soni hamda jinoyat ishining tergov qilish hajmi katta bo'lganligi sababli tergovchilarning ish hajmi ortib ketgan. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining har qanday moddasi bilan malakalanadigan bojxona chegarasi orqali tovarlarning olib o'tilishi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish nafaqat bojxona organlari surishtiruvchilari uchun qiyinchilik tug'dirmaydi, balki bunday jinoyatlarning oldini olish, sodir etilishiga chek qo'yish ishlari kuchayadi.

Bojxona organlarining surishtiruviga taalluqli jinoyatlar sonini ko'paytirish uchun aniq taklif sifatida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan quyidagi jinoyatlarni keltirib o'tish mumkin:

182-moddaning (bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish) birinchi qismi;

Shuningdek, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarga doir ishlar yuzasidan:

177-moddaning (valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish) birinchi va ikkinchi qismlari;

1851-moddaning (rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish) birinchi va ikkinchi qismlari;

186-moddaning (xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish) birinchi qismi;

186¹-moddaning (etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish yoki ishlab chiqarish) birinchi qismi;

186²-moddaning (chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish) birinchi qismi;

186³-moddaning (sifatsiz yoki qalbakilashirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish, shuningdek tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini retsept bo'yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzish) birinchi qismi;

202-moddaning (hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish) birinchi va ikkinchi qismlari.

Ushbu yo'nalishda jinoyat-protsessual qonunchiligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6041-sonli farmonida nazarda tutilgan vazifalar, xususan, jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyatini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda yaxshilash, qonun ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini ro'yobga chiqarish, jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Feruz BADALBOYEV,

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi tadqiqotchisi

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLARNI ISBOTLASHDA RAQAMLI IZLARDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni isbotlash jarayonida raqamli izlarning tushunchasi, huquqiy tabiati va kriminalistik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan “raqamli iz” atamasining mazmun-mohiyati ochib berilib, uni alohida kriminalistik kategoriya sifatida ajratish zarurati asoslab berilgan. Maqolada raqamli muhitda jinoyat sodir etilishi natijasida elektron qurilmalar, axborot tizimlari, serverlar va telekommunikatsiya tarmoqlarida shakllanadigan izlarning vujudga kelish mexanizmi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda an’anaviy moddiy izlardan farqli jihatlari yoritilgan.

Shuningdek, raqamli izlarni aniqlash, qayd etish, olib qo‘yish va ekspertiza qilish bilan bog‘liq amaliy muammolar tahlil qilinib, ularni jinoyat ishlarida qonuniy, ishonchli va obyektiv dalil sifatida qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada ma’lumot va elektron axborot tashuvchilar egasini aniqlash usullari, raqamli izlarni protsessual jihatdan rasmiylashtirish hamda sud jarayonida vizual va tushunarli shaklda taqdim etish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish amaliyotini takomillashtirish, raqamli dalillar bilan ishlash metodikasini rivojlantirish hamda jinoyat-protsessual qonunchilikni zamonaviy raqamli munosabatlarga moslashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

АННОТАЦИЯ. В статье научно проанализированы понятие, правовая природа и криминалистическое значение цифровых следов в процессе доказывания преступлений, совершаемых в сфере информационных технологий. Автором раскрывается содержание термина «цифровой след» и обосновывается необходимость его выделения в качестве самостоятельной криминалистической категории. В работе освещается механизм формирования цифровых следов в результате совершения преступлений в цифровой среде, а также их особенности и отличительные признаки по сравнению с традиционными материальными следами.

Кроме того, проанализированы практические проблемы, связанные с выявлением, фиксацией, изъятием и экспертным исследованием цифровых следов, а также вопросы их использования в уголовных делах в качестве законных, достоверных и объективных доказательств. В статье рассматриваются способы установления владельца информации и электронных носителей данных, особенности процессуального оформления цифровых следов и необходимость их представления в наглядной и доступной форме в ходе судебного разбирательства.

Результаты исследования имеют научно-практическое значение для совершенствования практики расследования преступлений в сфере информационных технологий, развития методики работы с цифровыми доказательствами и адаптации уголовно-процессуального законодательства к современным цифровым общественным отношениям.

ABSTRACT. This article provides a scientific analysis of the concept, legal nature, and forensic significance of digital traces in the process of proving crimes committed in the field of information technologies. The author reveals the essence of the term “digital trace” and substantiates the necessity of distinguishing it as an independent forensic category. The paper examines the mechanism of formation of digital traces resulting from criminal activity in the digital environment, as well as their specific characteristics and differences from traditional material traces.

In addition, practical issues related to the detection, documentation, seizure, and forensic examination of digital traces are analyzed. Particular attention is paid to the use of digital traces as lawful, reliable, and objective evidence in criminal proceedings. The article also considers methods for identifying the owner of electronic information and data carriers, the procedural formalization of digital traces, and the necessity of their visual and intelligible presentation during judicial proceedings.

The research findings have significant scientific and practical value for improving investigative practice in the field of information technology crimes, developing methodologies for handling digital evidence, and adapting criminal procedural legislation to modern digital social relations.

Kalit so‘zlar: raqamli iz, raqamli dalil, elektron ma’lumot, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar, elektron axborot tashuvchisi, kriminalistika, dalillarni isbotlash, raqamli muhit, vizualizatsiya, dalillarning obyektivlashtirilishi.

Ключевые слова: цифровой след, цифровое доказательство, электронная информация, преступления в сфере информационных технологий, электронный носитель информации, криминалистика, доказывание, цифровая среда, визуализация, объективизация доказательств.

Key words: digital trace, digital evidence, electronic information, crimes in the field of information technologies, electronic data carrier, forensic science, evidentiary process, digital environment, visualization, objectification of evidence.



Jamiyat hayotida axborot texnologiyalari-ning jadal rivojlanishi va raqamli muhitning keng qamrovli joriy etilishi axborot munosabatlarining yangi shakllarini vujudga keltirdi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar sonining ortib borishi mazkur sohadagi huquqbuzarliklarni aniqlash, ochish va isbotlash masalalarini alohida dolzarb ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Bunday jinoyatlar, qoida tariqasida, virtual makonda sodir etiladi va ularning izlari an'anaviy moddiy dalillardan farqli ravishda raqamli muhitda shakllanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida jinoyat haqidagi asosiy ma'lumot manbalari sifatida raqamli izlar namoyon bo'ladi. Ular elektron qurilmalar xotirasida, axborot tizimlari va telekommunikatsiya tarmoqlarida, serverlar va ma'lumotlar bazalarida qoladigan axborot shaklida ifodalanadi. Raqamli izlar jinoyat sodir etish usulini, vaqt va joyini, aybdor shaxsning harakatlarini hamda jinoyatga aloqador boshqa muhim holatlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamli izlarni isbotlash jarayoni qator huquqiy va amaliy muammolar bilan bog'liq. Xususan, ularning nomoddiy xususiyati, oson o'zgaruvchanligi, nusxalanish imkoniyati, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida tezkor yangilanish jarayonlari tergov harakatlarini amalga oshirishda maxsus bilim, texnik vositalar va metodik yondashuvlarni talab qiladi. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda raqamli izlarni yig'ish, mustahkamlash va baholashning yagona va aniq tartibi belgilanmaganligi mazkur muammolarni yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur holat axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni isbotlashda raqamli izlarning o'rnini va ahamiyatini ilmiy jihatdan

tadqiq etish, ularning huquqiy tabiatini aniqlash hamda jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni isbotlashda raqamli izlardan foydalanish masalalarini o'rganish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Axborot texnologiyalari va raqamli muhit bilan bog'liq tushunchalar turli sohalarda turlicha mazmun kasb etadi. Xususan, "raqamli iz" atamasining ma'nosi uni qo'llash sohasiga qarab farq qiladi. Axborot xavfsizligi sohasida ushbu tushuncha tor ma'noda qo'llanilib, u asosan kompyuter insidentlari jarayonida sodir etilgan g'arazli harakatlar natijasida qoladigan belgilar bilan bog'lanadi. Kriminalistika fanida esa mazkur atamaning mazmuni ancha keng bo'lib, u jinoyat sodir etish jarayonida yuzaga keladigan turli xil o'zaro ta'sirlarning barcha shakllarini qamrab oladi¹.

Shuningdek, dasturlash, algoritmlar va senariylarni ishlab chiqish sohalarida ham bir xil atamalar turlicha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Bunday holatlar ilmiy tahlilda noto'g'ri xulosalar chiqarilishiga olib kelishi ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli mazkur maqola doirasida terminologik aniqlikni ta'minlash maqsadida barcha tushunchalar kriminalistika fanining mazmunini doirasida qo'llanilishi belgilanadi.

Kriminalistikada "iz" tushunchasi asosiy va fundamental kategoriyalardan biri hisoblanadi. Jinoyatlarni aniqlash va ochish bo'yicha dastlabki tajribalar ham aynan izlarni qidirish va tahlil qilish orqali amalga oshirilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, ilk kriminalistik ko'nikmalar ovchilar va izquvarlar faoliyatida shakllangan bo'lib, ular hayvonlar qoldirgan izlar orqali harakat yo'nalishi, vaqt, o'lcham va boshqa muhim ma'lumot-

1 Черноперов А.А. Использование цифровых следов в доказывании. – Санкт Петербург: Академия, 2021 г.



larni aniqlash usullarini avloddan avlodga o‘tkazib kelganlar.

Keyinchalik ushbu amaliy tajriba jinoyatlarni tergov qilish sohasiga ko‘chirilib, o‘g‘rilar va qotillarni aniqlashda inson qoldirgan izlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etgan.

Kriminalistika fanida iz tizim yaratuvchi tushuncha hisoblanib, uning negizida ushbu fanning tushunchalar apparati va terminologiyasi shakllanadi.

Fan rivojlangan sari kriminalistikadagi iz turlari ham ortib bordi. XIX asr oxirlarida kriminalistlar faqat qo‘l izlarining papillyar namunasining shakli qiziqqan bo‘lsa, XX asr oxirida iz nafaqat shakl, balki molekulyar darajada unikal ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan obyekt sifatida o‘rganila boshlandi.

Aks etish nazariyasi nuqtayi nazaridan har qanday jinoyatning tayyorlanishi, sodir etilishi va yashirilishi, shu jumladan, kompyuter jinoyatlari ham moddiy dunyodagi har qanday voqea kabi atrof-muhitda o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Ana shu o‘zgarishlar izlar hisoblanadi².

Izlar doimo ikki yoki undan ko‘p obyekt o‘zaro ta’sirlashganda paydo bo‘ladi. Agar bu ta’sir fizik ta’sirda bo‘lsa, undagi izlar ochiq va ko‘zga tashlanadi, ular izsiz qolmaydi. Shu bilan birga, iz qoldiruvchi obyekt (aks ettirilayotgan), masalan, buzish uchun ishlatilgan montirovka iz shakllantiruvchi obyekt deb ataladi. Ikkinchi obyekt (aks ettiruvchi) esa nafaqat iz shakllantiruvchi obyekt haqidagi ma’lumotni (o‘lchamlari, shakli va boshqa xususiyatlar), balki o‘zaro ta’sir usuli haqidagi ma’lumotni ham o‘z ichiga oladi (zarbalar, bosim va hokazo) va iz qabul qiluvchi obyekt deb nomlanadi.

Shuningdek, e’tibor berilishicha aks ettirilayotgan obyekt ayrim hollarda aks etti-

ruvchi sifatida ham harakat qiladi. Masalan, montirovkaning buzishdan hosil bo‘lgan chiziqlaridan bo‘yoq zarralari, pichoqdagi jabrlangan shaxs qoni va boshqalar shu kabi holatlarni ko‘rsatadi.

Axborot muhitida ta’sirlashuv ikki yoki undan ortiq elektron qurilmalar orasida sodir bo‘lib, natijada har bir qurilmada saqlanayotgan ma’lumotda o‘zgarish yuz beradi. Shu bilan birga, axborot muhitidagi ta’sir izlarining moddiy shakli ham mavjud bo‘lib, u fizik qurilmalarda ifodalanadi va ularda o‘zgaruvchi ma’lumot doimiy yoki vaqtincha saqlanishi mumkin.

Elektron qurilmalar o‘rtasidagi ta’sir natijasida hosil bo‘lgan izlar, shuningdek, jinoyatchi tomonidan qurilma elementlari va jinoyat sodir bo‘lgan joyning moddiy muhiti bilan bo‘lgan ta’sirlar izlari ham obyektiv izlar qatoriga kiradi. Ushbu izlar aniqlanishi, olib qo‘yilishi, ekspertizadan o‘tkazilishi va subyektiv dalillar (jabrlangan shaxs, guvohlar va boshqa shaxslarning ko‘rsatmalari) bilan birga isbotlashda qo‘llanilishi shart³.

Shu bilan birga, elektron muhitdagi izlarining shakllanishi va saqlanish xususiyatlari ularni barcha kriminalistik ahamiyatga ega izlardan ajratib turishiga sabab bo‘ladi. Bu esa ushbu izlarni alohida tur – raqamli izlar sifatida belgilashni taqozo qildi.

Raqamli izlar — axborot texnologiyalari muhitida sodir etiladigan jinoyatlar natijasida elektron qurilmalar, serverlar, tarmoqlar va ma’lumotlar bazalarida qolgan ma’lumotlarning maxsus turi bo‘lib, ular jinoyatning sodir etilish usuli, aybdor shaxsning harakatlari va voqea joyi haqidagi muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Raqamli izlar — kompyuter, telefon yoki internetda qolgan va inson harakatlari haqida ma’lumot beruvchi elektron “izlar”. Ular

2 Григорьев В.Н. Результаты смены парадигмы в исследованиях уголовного процесса // Вестник ВПСК МВД России. 2017 г. № 2 (42). – С. 38–46.

3 Федюнин А.Е. Правовое регулирование технических средств в уголовном процессе: автореф. дисс. . . . д-ра юрид. наук. Саратов: СИУ МВД России, 2008 г. 390 с. – С. 36.



orqali kim, qachon va qanday harakat qilganini aniqlash mumkin.

Ushbu izlar nafaqat kim, qachon va qanday harakat qilganini ko'rsatadi, balki ularning tarkibi, manbayi va o'zgarish imkoniyati ham tahlil qilinadi. Shuning uchun raqamli izlarni qonuniy va ishonchli dalil sifatida qo'llash uchun ularning legitimatsiyasi (qonunga muvofiq olinishi) va obyektivlashtirilishi (sud uchun tushunarli va idrok etiladigan shaklga keltirilishi) muhim ahamiyatga ega.

Qisqa qilib aytganda, raqamli izlar — bu elektron muhitdagi inson harakatlari va operatsiyalari haqidagi elektron izlar, ular orqali huquqbuzarlik holatini aniqlash, tergovni samarali olib borish va sudda dalil sifatida qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Raqamli izlar kriminalistikada alohida tur — chunki ularning shakllanishi, saqlanishi va tahlili an'anaviy izlardan farq qiladi. Shuning uchun raqamli izlar zamonaviy kompyuter jinoyatlarini isbotlashda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan dalillardan biri hisoblanadi⁴.

Yuqorida qayd etilganidek, kriminalistikada jinoyatga oid barcha izlar majmuasi isbotlash uchun ahamiyatli hisoblanadi. Biroq tergov jarayonida yetarlilik prinsipiga qat'iy rioya qilish zarur. Ya'ni har bir jinoyat ishi bo'yicha voqea holatlari modeli asosida qaysi axborot tashuvchilar va elektron qurilmalarni tekshirish zarurligi aniq belgilab olinishi kerak. Bu ish bo'yicha muhim holatlarni aniqlash uchun yetarli miqdorda raqamli izlarni yig'ish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ikki salbiy holatga yo'l qo'ymaslik lozim: bir tomondan — ahamiyatsiz yoki keraksiz axborot hajmiga ortiqcha chuqur kirib ketmaslik, ikkinchi tomondan — ish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni e'tibordan chetda

qoldirmaslik.

Quyida hozirgi tergov amaliyotida qo'llanilayotgan raqamli izlarni aniqlash usullari, shuningdek, ularni obyektivlashtirish, protsessual jihatdan rasmiylashtirish va jinoyat ishlari bo'yicha isbotlashda qo'llash tartibi qisqacha tahlil qilinadi.

Raqamli izlar turlarining ko'pligi sababli ularni avvalo tasniflash zarur. Tasniflash mezonlaridan biri sifatida raqamli izning: jinoyat obyekti bilan bevosita bog'liqligi (masalan, muhofaza qilinadigan axborot); jinoyatni sodir etish vositasi bilan bog'liqligi (maxsus tayyorlangan qurilma orqali himoyalangan axborot tizimiga noqonuniy kirish); jinoyat sodir etilgani bilan bog'liq bo'lsa-da, jinoyat vositasi yoki jinoyat obyektiga bevosita aloqasi bo'lmagan izlar (masalan, jinoyat joyi yaqinida jinoyatchining mobil telefoni ulanganini qayd etgan Wi-Fi router jurnali).

Birinchi toifaga korxona faoliyatiga oid, avval soliq va yig'imlar inspeksiyasi bo'linmalariga taqdim etilgan statistik ma'lumotlar kiritiladi. Shuningdek, jinoyat sodir bo'lgan joy hamda jinoyatchining kelib ketish yo'llari videokuzatuv kameralari qamroviga tushgan ma'lumotlar ham ushbu toifaga kiradi.

Ikkinchi toifaga jinoyatni sodir etgan shaxsning faol harakatlari natijasida hosil bo'lgan barcha ma'lumotlar kiradi. Bular jinoyatni tayyorlash bosqichida (masalan, axborot tizimiga noqonuniy kirish), jinoyatni bevosita sodir etish paytida (ma'lumotlarni o'zgartirish, nusxa ko'chirish yoki o'chirish), shuningdek, jinoyat sodir etilgandan so'ng izlarni yashirish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar (tizim jurnallarini tozalash, tizimda bo'lganlik izlarini o'chirish va boshqalar) natijasida yaratilgan axborotlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi toifaga jinoyat obyekti bilan

4 Зорькин В.Д. Правоприменение как стратегическая проблема // Право и правоприменение в России: междисциплинарные исследования / Под ред. В.В.Волкова. М.: Статут, 2011 г. — С. 15–24. — С. 20.



bevosita bog‘liq bo‘lgan raqamli izlar kiradi. Bularga, jumladan, soxtalashtirilgan buxgalteriya va boshqa hisobot ma‘lumotlari, o‘zgartirilgan shaxsiy ma‘lumotlar, buzilgan yoki chetlab o‘tilgan muhofaza dasturiy vositalari va boshqa shunga o‘xshash holatlar kiradi.

Har qanday holatda ham raqamli izlarni qidirish tergovchi tomonidan (imkon qadar kompyuter axboroti sohasidagi mutaxassis ishtirokida) sodir bo‘lgan voqeaning aqliy modelini shakllantirishdan boshlanadi. Ushbu model jinoyat xulq-atvorining barcha uch bosqichini — tayyorgarlik, jinoyatni sodir etish va izlarni yashirish bosqichlarini qamrab olishi kerak⁵.

Shakllantirilgan model asosida tergov harakatlari amalga oshiriladi, ular avvalo mavjud izlarni yo‘qotib qo‘yish ehtimolini bartaraf etishga qaratilgan kechiktirib bo‘lmay tergov harakatlaridan boshlanadi.

Asosiy masala tergov harakati jarayonida olingan ma‘lumot saqlovchi qurilma egasini aniqlashdir. Amaliyotda ko‘pincha ma‘lumotlar foydalanuvchilar tomonidan ijaraga olingan qurilmalarda saqlanadi, ma‘lumotlarni arxivlash uchun tashqi ma‘lumot markazlaridan foydalaniladi va shu kabi holatlar uchraydi. Shuningdek, gumon qiluvchining qurilmasida o‘g‘irlangan yoki qonuniy tarzda tarqatilishi mumkin bo‘lmagan ma‘lumotlar topilishi mumkin, bu ma‘lumotlarning muallifi va egasi gumonlanayotgan shaxs bo‘lmayligi ham mumkin.

Ayrim masalalarni hal qilish maqsadida ma‘lumot, uni saqlovchi qurilma va uning egasini bir-biriga bog‘lash zarur bo‘ladi.

Bu masalani hal qilishning bir necha usullari mavjud:

1) qurilma va ma‘lumot egasi ushbu surishtiruv harakatida ishtirok etib, olingan ma‘lumot unga tegishli ekanligini ochiq

ko‘rsatadi va buni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishga tayyorligini bildiradi (bayonnomada yoki alohida arizada qayd etiladi);

2) surishtiruv yoki tergov harakatlari davomida qurilma va ma‘lumotning aniq egasi nomlanib ko‘rsatilgan hujjatlar topilishi;

3) olingan ma‘lumotlarda va ular olinayotgan qurilmada egasini bevosita yoki bilvosita ko‘rsatuvchi ma‘lumotlarning mavjudligi (masalan, egasiga tegishli saqlanib qolgan yoki oldin o‘chirilgan tasvirlar va videofayllar, ma‘lumot saqlangan qurilma identifikatori qurilma xotirasidan topilishi va shu qurilma aniq shaxsga tegishli ekanligi va shu kabi ma‘lumotlar);

4) ekspertiza o‘tkazish yo‘li bilan, ya‘ni axborot tashuvchilarni olib qo‘yish bilan bog‘liq barcha tergov harakatlarini amalga oshirishda kompyuter texnikasi sohasidagi mutaxassisning ishtiroki shart hisoblanadi.

Aniqlangan raqamli izlarni qayd etish imkon qadar tez amalga oshirilishi kerak, chunki ma‘lumotlar o‘zgarishi yoki modifikatsiya qilinishi mumkin.

Tergov harakati bayonnomasida olib qo‘yilayotgan qurilmaning tizim vaqti albatda ko‘rsatilishi shart.

Shuningdek, tergov harakati bayonnomasida quyidagi ma‘lumotlar ham qayd etiladi: virtual izlar topilgan qurilma; qurilma egasi (aniqlangan bo‘lsa); ma‘lumot egasi (qurilma egasidan farqli bo‘lishi mumkin, agar aniqlangan bo‘lsa); qurilma internet yoki boshqa telekommunikatsiya va lokal tarmoqlarga ulanish imkoniyatiga ega ekanligi, shunday ulanish izlari.

Shu bilan birga, qurilma qaysi operatsion tizim boshqaruvi ostida ishlayotgani alohida ko‘rsatilishi lozim. Dasturiy ta‘minotdan g‘ayriqonuniy foydalanish belgilari ham bayonnomada qayd etilishi shart bo‘lib, bunday belgilarga dasturlarni faollashti-

5 Балакшин В.С. Оценка допустимости доказательств в российском уголовном процессе: монография / В. С. Балакшин. – Москва: Юрлитинформ, 2016 г. – С. 384.



rishni chetlab o'tishga qaratilgan vositalarning mavjudligi, qurilma korpusida firmasi stikerlarining yo'qligi, shuningdek, kompaniya tomonidan ishlab chiqarilmagan qurilmalarda operatsion tizimidan foydalanish holatlari kiritilishi mumkin.

Aniqlangan raqamli izni olib qo'yish va uni bir vaqtning o'zida qayd etish kompyuter texnikasi sohasidagi mutaxassisning majburiy ishtirokida amalga oshiriladi.

Raqamli iz aniqlanganidan so'ng u boshqa jinoyat izlari kabi tegishli tergov harakati bayonnomasida batafsil tavsiflanishi va olib qo'yilishi lozim. Raqamli izni tavsiflash esa u qaysi operatsion tizim va dasturiy ta'minot orqali hosil bo'lganini tushunishni talab qiladi. Bu ma'lumotlarni tergov harakatida ishtirok etuvchi yoki jinoyat ishiga jalb qilingan mutaxassis tergovchiga taqdim etadi⁶.

Jinoyat sud ish yurituvining zamonaviy realliklari dalillarni aniqlash, tadqiq etish va olib qo'yish jarayoniga, shuningdek, dalil-

larning o'zini imkoniyati boricha yaqqol va ko'rgazmali shaklda taqdim etish zaruratini belgilab bermoqda. Jinoyat ishi materiallaridagi ma'lumotlar texnik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar uchun ham, shu jumladan, tergov harakatlari va sud muhokamasida ishtirok etuvchi tomonidan ishtirokchilarga tushunarli tarzda ko'rgazmali shaklda bayon etilishi kerak.

Tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli izlar kriminalistikada hozirdanoq muhim obyekt sifatida faol qo'llaniladi. Shu bilan birga, izlanishlar raqamli izlar terminologiyasini aniqlash, ularning turlarini tavsiflash, topish, qayd qilish, tahlil qilish tergov va sud jarayonida dalil sifatida qo'llash usullarini takomillashtirish zarurligi namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon jinoyat protsessi va kriminalistika fani rivojida yangi bosqichga o'tish, fanlararo aloqalarni mustahkamlash va raqamli dalillar asosida qonuniy hujjatlashtirishni ta'minlaydi.

#

6 Зуев С.В. Новые правила изъятия электронных носителей и копирования информации / С.В.Зуев, В.С.Черкасов // Сибирское юридическое обозрение. – 2019 г. № 2. – Т. 16. – С. 193–197.



Bunyod KUDRATOV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Raqamli kriminalistika
ilmiy-tadqiqot institutining Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga va
raqamli tergovga ko‘maklashish markazi boshlig‘i

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINI TERGOV QILISHGA DOIR XORIJIY TAJRIBA VA XALQARO STANDARTLAR

ANNOTATSIYA. Maqolada axborot tizimlari va raqamli texnologiyalardan jinoyat sodir etish vositasi yoki muhiti sifatida foydalanilgan hollarda firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishning zamonaviy xalqaro standartlari hamda xorijiy amaliyot tajribasi ko‘rib chiqiladi. Yevropa kengashining Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiyasi, raqamli dalillar sohasida ISO/IEC standartlari, NIST qo‘llanmalari, INTERPOL va FATF amaliyoti kabi asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar, texnik standartlar va metodik qo‘llanmalar tahlil qilingan. Shuningdek, qator xorijiy yurisdiksiyalarda qo‘llaniladigan yondashuvlar tavsiflangan. Solishtirish natijasida asosiy muammoli sohalar aniqlanib, milliy amaliyotni takomillashtirishga oid tavsiyalar berilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются современные международные стандарты и зарубежная практика расследования мошенничеств, совершённых с использованием информационных систем и цифровых технологий — как в качестве средства, так и в качестве среды совершения преступлений. Проанализированы основные международные правовые акты, технические стандарты и методические руководства, такие как Конвенция Совета Европы о киберпреступности, стандарты ISO/IEC в сфере цифровых доказательств, руководства NIST, а также практика INTERPOL и FATF. Кроме того, охарактеризованы организационно-процедурные подходы, применяемые в ряде зарубежных юрисдикций. На основе сравнительного анализа выявлены основные проблемные области и предложены рекомендации по совершенствованию национальной практики.

ABSTRACT. The article examines modern international standards and foreign practices in investigating fraud crimes committed through the use of information systems and digital technologies, whether as a means or as an environment of commission. Key international legal instruments, technical standards, and methodological guidelines—such as the Council of Europe Convention on Cybercrime, ISO/IEC standards in the field of digital evidence, NIST guidelines, as well as the practices of INTERPOL and FATF—are analyzed. Furthermore, organizational and procedural approaches applied in a number of foreign jurisdictions are described. Based on comparative analysis, the main problematic areas are identified, and recommendations for improving national practice are provided.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, firibgarlik, axborot tizimlari, raqamli dalillar, xalqaro standartlar, tergov, raqamli kriminalistika.

Ключевые слова: киберпреступность, мошенничество, информационные системы, цифровые доказательства, международные стандарты, расследование, цифровая криминалистика.

Key words: cybercrime, fraud, information systems, digital evidence, international standards, investigation, digital forensics.

So‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti-ning raqamli sektori kengayib, uning asosiy o‘sish omillari hisoblangan elektron tijorat platformalari, raqamli servislar va ularda amalga oshiriladigan to‘lovlarni sifatli va xavfsiz qayta ishlash bilan bog‘liq moliyaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, keyingi vaqtlarda bank kartalaridan foydalangan holda o‘g‘irlik yoki firibgarlik jinoyatlarining ko‘payishi aholi-ning raqamli moliyaviy savodxonligi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining malakasi yetarli emasligi, tijorat

banklari, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olishning zamonaviy tizimlari mavjud emasligidan dalolat bermoqda.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda 1 813 ta, 2023-yilda 2 055 ta, 2024-yilda 21 036 ta axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik yo‘li bilan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlari ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 38 614 tani tashkil etgan.

2023-yilda sodir etilgan jami 75 020 ta jinoyatning 5 399 tasi yoki 7,2 foizi, 2024-yil-



da 130 295 ta jinoyatning 58 698 tasi yoki 45 foizini kiberjinoyatlar tashkil etgan bo'lsa-da, 2025-yilda jami sodir etilgan 155 002 ta jinoyatning 76 852 tasi kiberjinoyatlar salmog'i-ga to'g'ri kelib, jami jinoyatlarning 49,6 foizini tashkil etgan.

Mazkur sohadagi jinoyatlarning 93,8 foizini (77 403 tasini) elektron to'lov tizimlari orqali bank kartalaridagi pul mablag'larini talon-toroj qilish bilan bog'liq o'g'irlik (38 789 ta) va firibgarlik (38 614 ta) jinoyatlari tashkil qilgan.

Kiberjinoyatchilikning rivojlanishi davlatlar o'rtasida xalqaro muloqot va axborot almashishni, shu jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tajriba almashishni talab qiladi. Xalqaro hamkorlikning asosiy maqsadi xalqaro huquqning normalari va prinsiplari asosida ikki yoki undan ortiq davlatlarning umumiy manfaatlari doirasida birgalikda faoliyat olib borish va umumiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bu jihatdan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish – jinoyatlarning oldini olish, tergov qilish va xalqaro hamkorlikda fosh etish bo'yicha turli yo'nalishlardagi tadbirlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli faoliyat tizimi sifatida tushuniladi.

Xalqaro hamkorlik turli shakllarda namoyon bo'lib, har bir shakl aniq maqsadga erishishga qaratilgan muayyan harakatlar, qarorlar va tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Hamkorlik shakllarining xilma-xilligi davlatlarga kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek, yangi usullar va uslublarni ishlab chiqish imkonini taqdim etadi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning asosiy shakllari quyidagicha belgilanishi lozim: normativ-huquqiy, ilmiy-texnik, axborot almashish hamda boshqa bir qator shakllar.

Normativ-huquqiy tartibga solish xalqaro hamkorlikning bir shakli sifatida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday huquqiy hujjatlar-

ga xalqaro tashkilotlarning hujjatlari, masalan, deklaratsiyalar va konvensiyalar, xalqaro standartlar, shuningdek, transmilliy kompyuter jinoyatchiligiga qarshi kurashish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalar va kelishuvlar kirib, ular kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu shaklning muhimligi shundaki, bunday normativ-huquqiy hujjatlar dunyo hamjamiyatida asosiy ta'riflar, faoliyat va o'zaro yordamning prinsiplarini, shuningdek, kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashni samarali olib borish uchun zarur bo'lgan boshqa normativ qoidalarni belgilaydi.

Bunday hujjatlar jumlasiga 2000-yil 15-noyabrda qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan Oliy Majlisning 2003-yil 30-avgustdagi 536-II-qarori bilan ratifikatsiya qilingan BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida"gi (Palermo) konvensiyasi (41 ta moddadan iborat), 2018-yil 28-sentyabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi 4188-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida"gi bitim, 2001-yil 23-noyabrda qabul qilingan, biroq hanzugacha O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinmagan Yevropa Ittifoqining "Kompyuter jinoyatlari to'g'risida"gi (Budapesht) konvensiyasi (4 ta bob va 48 ta moddadan iborat), Arab Ligasi davlatlarining 2010-yilda qabul qilingan "Axborot texnologiyalari jinoyatlari to'g'risida"gi konvensiyasi, 2014-yilda qabul qilingan Afrika Ittifoqi davlatlarining Raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha konvensiyasi, 2003-yil 12-dekabrda Jenevada qabul qilingan "Axborot jamiyatini qurish – yangi ming yillikdagi global vazifa" tamoyillari deklaratsiyasi va boshqalar kiradi. Shunday qilib bunday hujjatlar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga



solishga qaratilgan.

Normativ-huquqiy tartibga solishdan tashqari davlatlar o‘rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ham hisobga olish zarur. Ilmiy usullar yordamida transchegaraviy kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishdagi holatni tahlil qilish, jinoyatlar xavfini aholi orasida ko‘rsatish uchun statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish, axborot jamiyatida xavfsiz xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish, jinoyatlarni amalga oshirish usullarini o‘rganish, kompyuter tarmoqlarining zaif tomonlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

Bunday faoliyatning amaliy misoli sifatida 2007-yilda Xalqaro Elektraloqa ittifoqi tomonidan e’lon qilingan “Rivojlanishdagi mamlakatlar uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha qo‘llanma”ni keltirish mumkin. Ushbu hujjatdagi qoidalar elektron tranzaksiyalarning xavfsizligini ta’minlash, ma’lumotlar infratuzilmasini himoya qilish choralari bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Maqolaning maqsadi – axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish sohasida xalqaro standartlar va xorijiy tajribani umumlashtirish, milliy amaliyotga moslash mumkin bo‘lgan jihatlarni ajratib ko‘rsatish hamda asosiy chaqiriqlarni belgilash.

Tadqiqot huquqiy hujjatlar, xalqaro standartlar va qo‘llanmalarni (normativ-metodik materiallar) tizimli tahlil qilish usulida, shuningdek, ayrim davlatlar va xalqaro tashkilotlar amaliyotini solishtirma tahlil qilish asosida olib borildi. Asosiy manba sifatida xalqaro rasmiy hujjatlar va raqamli kriminalistika hamda kiberjinoyatchilikni tergov qilish bo‘yicha qo‘llanmalar xizmat qildi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil va Singapur davlatlari axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarini tergov qilish sohasida eng ilg‘or davlatlardan hisoblanadi. Ularning amaliyoti tergovlarni tashkil qilish, huquqiy tartibga solish va xususiy sektor

bilan hamkorlikning turli modellarini ko‘rsatadi, ushbu rivojlangan davlatlar amaliyoti O‘zbekiston Respublikasining bu sohada tergov amaliyotini takomillashtirish uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida kiberfiribgarlikni tergov qilishni Federal tergov byurosi (FBI), AQSH maxfiy xizmati va Adliya vazirligining Kompyuter jinoyatlari va intellektual mulk bo‘limi (Computer Crime and Intellectual Property Section, CCIPS) boshqaradi. Bu yerda idoralararo hamkorlikning ko‘p bosqichli tizimi yaratilgan bo‘lib, unga tergovchilar, tahlilchilar va xususiy kompaniyalar vakillari kiruvchi birgalikdagi kiberjinoyatlarga qarshi kurashish guruhlar (Joint Cybercrime Task Forces, JCTF) mavjud. Amerikancha yondashuvning muhim xususiyati Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (National Institute of Standards and Technology – NIST) tomonidan raqamli kriminalistika bo‘yicha keng qamrovli qo‘llanmalar ishlab chiqilishi, shuningdek, raqamli dalillarning sudda qabul qilinishini ta’minlovchi mustahkam sud amaliyoti mavjudligidir¹.

Buyuk Britaniya o‘zining modelini Milliy jinoyatlarga qarshi agentlik (National Crime Agency) va uning maxsus bo‘linmasi – Milliy kiberjinoyatlar bo‘limi (National Cyber Crime Unit) hamda mintaqaviy bo‘linmalar tarmog‘i orqali amalga oshiradi². Moliyaviy sektor bilan hamkorlikka katta ahamiyat beriladi: banklar va huquq-tartibot idoralari o‘rtasida firibgarlik tranzaksiyalari to‘g‘risida ma’lumot almashish uchun platforma yaratilgan. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya Europol, INTERPOL va “Joint Cybercrime Action Taskforce” tashabbusi orqali xalqaro birgalikdagi operatsiyalarda faol ishtirok etadi. Alohida yo‘nalish sifatida “Cyber Crime Academy” maxsus dasturi doirasida kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi.

Germaniyada asosiy rol Federal jinoyat ishlari bo‘yicha idora (BKA) va viloyatlar ji-

1 AQSH Milliy standartlar va texnologiyalar institutining (NIST) raqamli dalillar bo‘yicha qo‘llanmalari

2 Buyuk Britaniya Milliy jinoyatlarga qarshi agentligi (NCA) Milliy kiberjinoyatlar bo‘limi



noyat ishlari boshqarmalariga tegishli³. Nemis yondashuvining xususiyati raqamli kriminalistikaning rivojlangan laboratoriya infratuzilmasi bilan huquq normalariga qat'iy rioya qilishning uyg'unligidadir. Germaniya Yevropa Ittifoqining axborot tizimlariga hujumlar to'g'risidagi direktivasini implemetsiya qilgan, moliyaviy regulyator BaFin bilan hamkorlikda pul yuvishga qarshi kurashish vositalarini faol qo'llaydi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish standartlarini (GDPR) qat'iy qo'llaydi, bu esa raqamli dallilarning sudda yuqori darajada qabul qilinishiga xizmat qiladi⁴.

Isroil razvedka va huquq-tartibot tajribasining o'ziga xos kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. "Unit 8200" harbiy razvedka texnologiyalari fuqarolik tuzilmalari amaliyotiga o'tkazilgan. Bu tizim 1952-yilda tashkil etilgan bo'lib, u Isroil mudofaa kuchlarining (IDF) razvedka direksiyasiga kirib, signal razvedkasi (SIGINT), shifrlashni buzish, kiberhavf va kuzatish bilan shug'ullanadi. Bu bo'lim AQSHning Milliy xavfsizlik agentligiga (NSA) o'xshash holda dunyodagi eng ilg'or texnik razvedka xizmatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. "Unit 8200"ning xususiyati – yuqori salohiyatli yosh (18–21 yosh) harbiy xizmatchilarni tanlash va ularni kiberxavfsizlik va IT sohasida tayyorlash, shuningdek, 16–18 yoshdagi o'quvchilar uchun maxsus xakerlik va kodlash dasturlarini yaratish hisoblanadi.

Muhim jihat sifatida davlatning "Cellebrite" va "Check Point" kabi xususiy kiberkompaniyalar bilan yaqin hamkorligi ko'rsatiladi, bu esa mobil qurilmalar va tranzaksiyalar tahlili sohasida ilg'or ishlanmalardan foydalanish imkonini beradi⁵. Shuningdek, Isroil firibgarlik tarmoqlarini aniqlash uchun mashina o'qitish algoritmlarini faol joriy etadi va o'z metodlarini xalqaro hamkorlar bilan faol ravishda bo'lishadi.

Singapur Janubi-sharqiy Osiyoda kiberjinoynatlarga qarshi kurashish bo'yicha mintaqaviy markaz sifatida xizmat qiladi. Politsiyada "Cybercrime Command" bo'linmasi tashkil etilgan bo'lib, u Singapur pul-kredit idorasi bilan yaqin hamkorlik qiladi, bu kriminalistikani moliyaviy monitoring bilan integratsiya qilishni ta'minlaydi. Muhim xususiyat sifatida Singapurning "INTERPOL Global Complex for Innovation"da ishtiroki ko'rsatiladi, ushbu markaz aynan shu mamlakatda joylashgan. "Smart Nation" davlat dasturi raqamli xizmatlarda jurnallashtirish va audit mexanizmini majburiy joriy qilishni rag'batlantiradi, bu dallillar to'plashni osonlashtiradi va ma'lumotlarni yo'q qilishning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu besh mamlakat tajribasi ma'lumot tizimlaridan foydalanigan firibgarlikni tergov qilish samaradorligi institutsional muvofiqlashtirish, xalqaro va milliy raqamli kriminalistika standartlarini qo'llash, moliyaviy va texnologik kompaniyalar bilan yaqin hamkorlik, shuningdek, ilg'or tahliliy vositalardan foydalanishga bog'liq ekanini ko'rsatadi. AQSH standartlashtirish va sud amaliyotida yetakchilik qiladi, Buyuk Britaniya idoralararo muvofiqlashtirish va banklar bilan hamkorlikda, Germaniya huquqiy qat'iylik va laboratoriya ekspertizasida, Isroil texnologik yechimlar va razvedka tajribasini integratsiya qilishda, Singapur esa mintaqaviy markaz roliga va raqamli ishonch infratuzilmasini barpo etishda ustunlikka ega.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishning xalqaro standartlari tergov amaliyotini uyg'unlashtirish hamda isbot bazasi sifatini oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu yo'nalishda yetakchi o'rinni 2001-yilda qabul qilingan Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi egallaydi. Ushbu xalqaro hujjat kompyuter jinoyatlari

3 Germaniya Federal jinoyat ishlari bo'yicha idorasi (BKA) Kiberjinoyatlar bo'limi

4 Yevropa Ittifoqining 2013/40/EU-sonli direktivasi; BaFin reglamentlari; Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish umumiy nizomi (GDPR)

5 Cellebrite; Check Point Software Technologies Ltd.; Isroilning 8200 harbiy razvedka qismi hisobotlari



ning asosiy tarkiblarini belgilab, elektron dalillarni yig‘ish va saqlashning tartib-qoidalarini o‘rnatdi, shuningdek, vakolatli organlar o‘rtasida shoshilinch hamkorlik mexanizmlarini nazarda tutadi.

Qo‘shimcha huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida Yevropa Ittifoqining 2013/40/EU-sonli direktivasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining model qonunlari qabul qilingan bo‘lib, ular milliy jinoyat qonunchiligini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi⁶.

Shu bilan birga, raqamli dalillarning ishonchliligini ta‘minlash va ularning sud jarayonlarida qabul qilinishi uchun ISO/IEC (27037, 27041, 27042, 27043) xalqaro standartlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu standartlarda raqamli dalillarni aniqlash, olib qo‘yish, saqlash, tahlil qilish va taqdim etish tartiblari batafsil tartibga solingan⁷. Shuningdek, AQSH Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (NIST) ishlab chiqqan uslubiy qo‘llanmalarda mobil qurilmalar, tarmoq jurnallari, bulutli xizmatlar va boshqa raqamli manbalarni tahlil qilish metodlari belgilangan⁸.

Xalqaro hamkorlik masalalarida INTERPOL va Europol amaliyotda qo‘llanadigan qo‘llanmalar ishlab chiqib, raqamli dalillar almashinuvi uchun maxsus platformalarni joriy etmoqda. Bu esa davlatlar o‘rtasidagi tergov hamkorligini soddalashtiradi⁹.

Moliyaviy sohada esa FATF standartlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular shubhali tranzaksiyalarni, jumladan, virtual aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalarni aniqlash va kuzatishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, Bazal qo‘mitasi tavsiyalari bank sektorida kiberfiribgarlik xavflarini kamaytirishga qaratilgan¹⁰.

Xalqaro standartlar raqamli firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda huquqiy va metodik asos sifatida xizmat qilib, dalillarni yig‘ish va baholashda yagona yondashuvlarni joriy etish imkoniyatini yaratadi. Ular milliy amaliyotga tatbiq etilganda jinoyatlarni fosh etish samaradorligi oshishi bilan birga, inson huquqlari va adolatli sudlov prinsiplariga rioya etilishini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish sohasida xalqaro standartlar va xorijiy tajriba samarali huquqiy hamda texnik vositalar majmuasini taqdim etadi. Ushbu vositalardan samarali foydalanish milliy amaliyotda qonunchilikni yangilash, tashkiliy islohotlarni amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va infratuzilmani rivojlantirishni talab qiladi.

Faqat huquqiy, texnik va inson resurslarining o‘zaro uyg‘un hamkorligi orqali tergov samaradorligini oshirish, raqamli dalillarning sud jarayonlarida qabul qilinishi hamda umumiy adolatli sudlov tamoyillariga to‘liq rioya etish mumkin.

#

- 6 Yevropa Parlamenti va kengashining axborot tizimlariga qarshi hujumlar to‘g‘risidagi 2013/40/EU-sonli direktivasi
- 7 ISO/IEC 27037:2012; ISO/IEC 27041:2015; ISO/IEC 27042:2015; ISO/IEC 27043:2015 xalqaro standartlar
- 8 AQSH Milliy standartlar va texnologiyalar institutining (NIST) raqamli dalillar bo‘yicha maxsus nashrlari
- 9 INTERPOL raqamli kriminalistika bo‘yicha qo‘llanmalari; Europol mutaxassislar platformasi (EPE)
- 10 Moliyaviy choralar ko‘rish guruhi (FATF) tavsiyalari; Bazal qo‘mitasining bank nazorati bo‘yicha qo‘llanmalari



Akramxon BOBOXONOV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

GUMON QILINUVCHI, AYBLANUVCHI YOKI SUDLANUVCHINING QAYERDA EKANLIGI ANIQLANMAGANDA JINOYAT ISHI BO'YICHA ISH YURITISHNI TO'XTATISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Maqolada jinoyat protsessida ish yuritishni to'xtatish institutini amaliyotda qo'llash jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar, qidiruv asoslari bilan ish yuritishni to'xtatish jarayonida qonun normalaridagi mavjud huquqiy bo'shliqlar, mazkur institutni kelgusida yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va mulohazalar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются отдельные проблемы, возникающие в ходе практического применения института приостановления производства по уголовному делу в уголовном процессе, выявляются существующие правовые пробелы в нормах законодательства при приостановлении производства по основаниям розыска, а также выдвигаются предложения и соображения, направленные на дальнейшее совершенствование данного института.

ABSTRACT. This article addresses certain problems encountered in practice during the application of the institution of suspension of proceedings in a criminal case, highlights existing legal gaps in the legislative norms concerning the suspension of proceedings on the grounds of search, and puts forward proposals and considerations aimed at the further improvement of this institution.

Kalit so'zlar: dastlabki tergov, sud amaliyoti, dastlabki tergovni to'xtatish, qidiruv asoslari, qidiruvdagi shaxs, protsessual harakat, tergov muddati, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, to'xtatish asoslari.

Ключевые слова: предварительное следствие, судебная практика, приостановление предварительного следствия, основания для розыска, разыскиваемое лицо, процессуальное действие, срок следствия, подозреваемый, обвиняемый, основания для приостановления.

Key words: preliminary investigation, court practice, suspension of preliminary investigation, grounds for search, person under search, procedural action, investigation period, suspect, accused, grounds for suspension.

Barchamizga ma'lumki, jinoyat-protsessida shaxs huquq va manfaatlarining himoya qilinishi, protsessual norma talablariga qat'iy va og'ishmay rioya etilishi qonun ustuvorligini ta'minlovchi asoslardan biri hisoblanadi.

Jinoyatni fosh etish va jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash nafaqat surishtiruv va tergov sifatini, balki jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi.

Surishtiruv va dastlabki tergovni qidiruv asoslari bilan to'xtatishning mohiyati shundan iboratki, surishtiruvchi yoki tergovchi muayyan jinoyatni qaysidir aniq bir shaxs sodir etganligi haqida yetarli ma'lumotga ega, biroq uning qayerda ekanligini bilmaydi.

Jinoyat protsessida sudga qadar ish yuri-

tish va jinoyat ishini sudda muhokama qilish vaqtida ayblanuvchining qayerda ekanligi aniqlanmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qidiruv e'lon qilish choralarini ko'radi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi o'rinlarda JPK) mazmuniidan "ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan"ligi har doim ham ayblanuvchi(sudlanuvchi)ning sud-tergov organlaridan yashiringanligini anglatmaydi.

Protsessualist olim A.Matchanovning fikricha, jinoyat protsessida ish yuritishni to'xtatishning ushbu asosini o'rganishda "qayerda ekanligi noma'lum" hamda "yashiringanlik" degan jumlar nazariy va amaliy jihatdan bir-biridan farq qiladi¹.

1 Matchanov A. Деятельность следователя по розыску скрывшегося обвиняемого. // Т. 2007 г. – С. 38.



Ushbu tushunchalarning farqini yoritishda muallif quyidagi ta’riflarni keltiradi:

Ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lum deyilganida – jinoyat ishi yuzasidan ayblanuvchining qayerdaligi haqida surishtiruvchi, tergovchi muayyan ma’lumotga ega emasligi tushuniladi (JPKning 364-moddasi 1-qismining 2-bandiga ko‘ra jinoyat sodir etgan shaxs aniq, biroq uning qayerda ekanligi noma’lum va ayni vaqtda ayblanuvchi o‘zining qidirilayotganidan bexabar. Bunday holatda ayblanuvchi yashash va ish joyini o‘zgartirgan bo‘lishi yoki uzoq safarga ketgan bo‘lishi ham mumkin);

Ayblanuvchi(sudlanuvchi)ning yashiriganligi deyilganida – jinoyat ishi yuzasidan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi haqida surishtiruvchi, tergovchi, sud muayyan ma’lumotga (uning qayerda turishi, uy yoki ish manzili haqidagi ma’lumotlarga) ega, biroq ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining qidirilayotganini bilib, qasddan qochishga qilingan harakati tushuniladi (JPKning 420-moddasi 1-qismida ayblanuvchi, sudlanuvchining suddan yashirinishga qilgan qasddan harakati tushuniladi).

Ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lumligi borasida boshqa bir olim M.G.Reshnyak quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Ayrim obyektiv holatlarga ko‘ra ayblanuvchining qayerdaligi noma’lum bo‘lishini aniq tushunish kerak. Masalan, ayblanuvchining kasalxonaga yotqizilganligi, vafot etganligi va boshqalar (ayblanuvchi jinoyat ishida guvoh sifatida so‘roq qilingan va qo‘yib yuborilgan yoki umuman so‘roq qilinmagan, shundan keyin ish joyini o‘zgartirgan) bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, ayblanuvchi o‘zining ish yoki yashash joyini o‘zgartirishi atayin qilingan harakat bo‘lmasligi lozim”².

Ushbu fikrlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlagan holda shuni aytish mumkinki, har doim

ham ayblanuvchiga qidiruv e’lon qilinganligi uning surishtiruv va tergovdan bila turib qasddan yashiriganligini anglatmaydi.

Ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra shaxs jinoyat sodir etganligini huquqiy jihatdan anglamagan holda xorijiy davlatga ishlash, o‘qish yoki boshqa maqsadlarda ketishi, shifoxonaga davolanish uchun yotishi, uzoq muddatli sayohatga chiqishi yoki uyali aloqa xizmati cheklangan hududda biror-bir sabab bilan muayyan muddat bo‘lishi inkor etilmaydi.

Bunday holatda tergov organi tomonidan qidirilayotgan shaxs nafaqat o‘ziga nisbatan qidiruv e’lon qilinganligini, balki umuman jinoyat ishi qo‘zg‘atilganligi haqida ham xabari bo‘lmasligi mumkin.

Ayblanuvchining surishtiruv, tergov va suddan yashirinishi esa bu bila turib, qasddan qilinadigan harakatdir.

Bunday holatda shaxs qonunga xilof xatti-harakatlari uchun javobgarlikdan qutulib qolishga qaratilgan barcha choralarni ko‘radi, ya’ni qo‘ng‘iroqlarga javob bermaydi, yashash manzilini o‘zgartiradi, ish joyini va boshqaruvidagi transport vositalarini o‘zgartiradi, yaqinlari bilan aloqaga chiqmaydi, odamlar gavjum joylarda ko‘rinish bermaydi, hujjatlarni soxtalashtirish orqali shaxsi haqidagi ma’lumotlarni yashirishga harakat qiladi va hokazo.

Bunday holatda ayblanuvchi (sudlanuvchi) o‘zining qonunga xilof qilmishi uchun javobgarlik belgilanganligini va u surishtiruv, tergov yoki sud organlari tomonidan qidirilayotganligini biladi.

Bunday fikrni F.Berdichevskiy ham keltirib o‘tib, “Ayblanuvchining yashirinishi bila turib, qasddan qilingan harakatdir”³ deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi olim A.Ashirboyev bu masalada esa o‘ziga xos ta’rif berib, “Ayblanuvchining tergovdan yashirinishi deganda – jinoyiy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan

2 Решняк М. Деятельность следователя и органа дознания по розыску и установлению местопребывания обвиняемого: Автореф. МВД России, 1998 г. – С.12.

3 Бердичевский Ф. Якубович Н. Приостановление предварительного следствия. 1974 г. – С. 10.



shaxsning bila turib yashash va ish joyini, ismi-sharifini, tashqi qiyofasini o'zgartirishi hamda jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlashiga yordam beradigan boshqa harakatlarni sodir etishi tushuniladi" deb ta'kidlagan⁴.

Bizning fikrimizcha, har ikki olim ham o'z ta'riflarida muhim jihatlarni yoritishga e'tibor qaratgan bo'lsalar-da, ularning talqini mavjud muammoning to'laqonli yechimini taqdim qilmayapti.

Bugungi kundagi qonunchilik va sud-tergov amaliyotidan kelib chiqadigan bo'lsak, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tergov va sud-dan yashiringanligi yoki uning qayerda ekanligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanmaganligidan qat'iy nazar, u "qidiruvdagi shaxs" maqomiga ega bo'ladi.

Qonun chiqaruvchi JPKning qator normalarida "tergov va suddan yashiringan" degan tushunchalardan foydalangan bo'lsa-da, JPKning 364-moddasidagi dastlabki tergovni to'xtatish asoslari qatorida bunday asos keltirilmagan.

Shu bilan birga, JPKning 420-moddasida sudlanuvchi yashiringan bo'lsa sud mazkur sudlanuvchiga nisbatan ishni to'xtatishi belgilangan.

Bundan tashqari, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga ham ayblanuvchining tergov va suddan yashirinishiga asos bo'lishi qonunda belgilangan.

Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda "tergov va suddan yashiringanlik yoki bo'yin tovlaganlik" tushunchasi qanday qilmishlarni qamrab olishi hamda ushbu tushuncha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qanday tarzda to'g'ri talqin qilinishi lozimligi ochib berilmagan.

Bizning fikrimizcha, "tergov yoki suddan bo'yin tovlash yoxud yashirinish" deganda shaxsning sodir etgan g'ayriqonuniy qilmishi uchun jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organlar tomonidan protsessual tartibda ush-

lanishdan, jinoiy javobgarlikka tortilishdan yoki u bilan bog'liq har qanday tergov-protsessual harakatlari o'tkazilishidan yoxud sud tomonidan jazo tayinlanishidan har qanday yo'llar bilan qutulib qolishga, ushbu organlarning chaqiruvini inkor etishga qaratilgan qasddan qilinadigan harakat yoki harakatsizlik tushunilishi lozim.

Bunday maqsadga erishish uchun shaxs ish yoki o'qish joyidan zudlik bilan bo'shash yoki o'qish va ish joyiga biror-bir uzrli sabablarsiz to'satdan kelmay qolish, yashash joyida hech bir sababsiz bo'lmaslik, uy-joyini to'satdan sotish, yashash joyini to'satdan o'zgartirish, avvaldan rejalashtirilmagan sa-farga to'satdan va zudlik bilan chiqish, bank hisob-raqamlaridagi mablag'larni naqdlashtirib olish yoki boshqa hisoblarga o'tkazish, uyali telefon raqamlarini o'zgartirish, yaqinlari va oila a'zolari bilan aloqani uzish kabi xatti-harakatlarni sodir etadi.

Huquqiy jihatdan "tergov va suddan yashiringanlik" va "shaxsning qayerda ekanligi noma'lumligi" tushunchalarining farqlanishi hamda qonun normalarida alohida aks ettirilishi muhim hisoblanadi.

Chunki shaxsning tergovdan va suddan qasddan yashirinishi unga nisbatan paspor-tining amal qilishini to'xtatish, xorijga chiqishiga cheklov o'rnatish, majburiy keltirish protsessual majburlov choralari qo'llash, muqaddam qo'llanilgan ehtiyot chorasini qamoq ehtiyot chorasiga o'zgartirish, qidiruv e'lon qilish, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni to'xtatish, ekstraditsiya va qidiruv xarajatlarini protsessual chiqimlar doirasida undirish hamda boshqa qator protsessual harakatlarni amalga oshirishga asos bo'ladi.

Shu bilan birga, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining tergov va sud organlarining chaqiruviga binoan hozir bo'lmaganligi har doim ham ularning jinoyat protsessida ishtirok etishdan bo'yin tovlaganligini anglatmaydi.

4 A.T.Ashirboyev "Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishni takomillashtirish". Dissert., Toshkent. 2025-yil, 63-bet



Xususan, shaxs og'ir kasallikka chalinib (xushini yo'qotganligi, komatoz holatida bo'lishi), shifoxonaga yotqizilganligi, sayohatga chiqqan vaqtida uyali aloqa vositalarida bog'lanish imkoniyati cheklangan hududda bo'lganligi yoki uyali aloqa vositasini yo'qotganligi, xorijiy davlatda qamoqqa olinganligi, jinoyat ishi qo'zg'atilganligidan umuman bexabar holda xorijiy davlatga sayohat yoki ish yuzasidan chiqib ketganligi va boshqa shu kabi holatlarda shaxsga tergov va suddan yashiringanlik asosida qidiruv e'lon qilinishi huquqiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

O'rganishlar jinoyat sodir etgan shaxs tergov va suddan yashiringan yoki uning qayerda ekanligi noma'lumligi sababli to'xtatiladigan holatlar bilan bog'liq qonunchilik normalarida bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Protsessualist olimlar M.Klyukova va V.Malkovlarning fikricha, tergovdan yashiringan ayblanuvchi (yoki shaxs) deganda, o'zini protsessual tartibda ushlanishi, qilmishlarining fosh etilishi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishini kutib o'tirmasdan jinoiy javobgarlikka tortilishdan bo'yin tovlash maqsadida bevosita jinoyat sodir etilgan joydan yashiringan, yashash joylarini, pasport ma'lumotlarini o'zgartirayotgan, noqonuniy turmush tarziga o'tgan shaxsni tushunish lozim⁵.

Agarda shaxs o'ziga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilganligi, jinoyat ishi bo'yicha so'roq qilinganligi yoki unga nisbatan ehtiyot chorasi qo'llanilganligidan so'ng, jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlash maqsadida yuqorida sanab o'tilgan qilmishlarni sodir etsa, tergov va suddan yashiringan deb topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayblanuvchining dastlabki tergov organla-

ridan yashiringanligi faktini aniqlashda uning sodir etilgan jinoyat uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qidirilayotganligini anglashi hamda jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlash maqsadida yashirinayotganligini bilishi zaruriy shart hisoblanadi.

Protsessualist olim V.Ryabchikovning fikricha, jinoyat sodir etib, jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlashga qaratilgan biror-bir harakat sodir etmagan shaxs haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ma'lumot bo'la turib, uning jinoiy javobgarlikka tortilmaganligini tergov va suddan yashirinish deb baholash mumkin emas⁶.

Shunga o'xshash fikrni T.Bogolyubskaya ilgari suradi: "Ayblanuvchining chaqiruv bo'yicha kelmaslik faktining o'zigina uning tergov va suddan yashiringanligi va jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlashidan dalolat bermaydi. Tergovchi ayblanuvchining yo'qligi va uning qayerdaligi haqiqatdan ham noma'lum ekanligi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmog'i lozim"⁷.

Yuqorida masala yuzasidan fikr bildirgan olimlar ham yuridik nuqtayi nazardan to'g'ri va adolatli tizisni keltirgan deb hisoblaymiz, chunki jinoyat-protsessual qonunchiligi jinoyat qonuni normalarini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilar ekan, oxir-oqibatda yakuniy maqsad nafaqat qonuniy to'xtamga kelishdan iborat bo'lishi, balki adolatli qaror qabul qilinishiga erishishdir.

Ba'zi obyektiv sabablarga ko'ra jinoyat ishida ayblanuvchining yo'qligi qasddan qilinmagan harakatlari bilan belgilanishi lozim. Tergovchida ayblanuvchi O'zbekiston hududidan chiqib ketganligi haqida ma'lumot bo'lsa-da, biroq aynan qayerda ekanligi to'g'risida to'laqonli ma'lumot bo'lmasligi mumkin. O'zbekiston hududidan chiqib ketgan ayblanuvchi esa o'ziga nisbatan jino-

5 Клюкова М.Е., Малков В.П. Приостановление дела по уголовно-процессуальному законодательству Российской Федерации. Казань, 1993 г. – С.71-72.

6 В.В.Рябчиков Приостановление и возобновление предварительного расследования. Дис. кан. юрид. наук.: 12.00.09., Владимир, РГБ-2006 г. – С. 81.

7 Боголюбская Т.В. Деятельность следователя ОВД по розыску скрывшихся обвиняемых: учеб. пособ. / М., 1986 г. – С. 20.



iy ish qo'zg'atilganligini bilmasligi mumkin.

Lekin ushbu vaziyatni JPKning 364-moddasi 1-qismining 3-bandida keltirilgan dastlabki tergovni to'xtatishning asosi bilan chalkashtirmaslik kerak. Mazkur asosga ko'ra, ayblanuvchi O'zbekiston hududidan tashqarida bo'lsa ham, uning qayerdaligi sud va tergov organlariga ma'lum bo'lishi lozim.

Protsessualist olim E.Zokirova tergovdan bo'yin tovlashning quyidagi turlarini sanab o'tgan:

– *jinoyatni sodir etib bo'lganidan so'ng hodisa joyidan qochib ketgan shaxs;*

– *jinoyat sodir etilganidan so'ng yoki orada muayyan vaqt o'tganidan so'ng, o'zining sodir etilgan jinoyatga aloqadorligi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lum bo'lishiga ishonch hosil qilib, yashiringan shaxs;*

– *o'ziga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilganligini bilgani holda, tergov organlaridan yashiringan shaxs;*

– *jinoyat sodir etganidan so'ng ushlangan vaqtda yoki qamoqqa olinganda qochgan shaxs;*

– *jinoyat sodir etgani uchun gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida so'roq qilinishidan oldin yoki so'roqdan keyin tergovdan yashiringan shaxs;*

– *jinoyat sodir etganligi haqida ayblov e'lon qilinishi aniq bo'lgan yoki ayblov e'lon qilingandan so'ng, qamoq bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxs yashiringan bo'lsa, ushbu shaxslarni tergovdan qasddan bo'yish tovlagan va yashiringan deb hisoblash lozimligini ta'kidlagan⁸.*

Olimning fikriga qo'shilgan holda ushbu ro'yxatni qat'iy deb cheklamasdan, uni yana davom ettirish mumkinligini nazarda tutishimiz zarur.

Milliy qonunchiligimizni tahlil qilar ekanmiz, JPKning 364-moddasi 1-qismi 2-bandida dastlabki tergovni to'xtatishning faqat "ayblanuvchining qayerda ekanligi no-

ma'lum bo'lgan" asosigina mavjud bo'lib, ayblanuvchining tergovdan yashiringani yoki bo'yin tovlagani yoxud uning qayerda ekanligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanmagani kabi asoslar mavjud bo'lmagan bir vaqtda, "Qonunchilikka bunday aniqlashtiruvchi jumalarning kiritilishi biror-bir huquqiy oqibat keltirib chiqaradimi yoki faqatgina normani tahrir qilishdan iborat bo'ladimi?" degan savol tug'ilishi tabiiy.

Buning huquqiy oqibatlarini birgina misolda keltirish mumkin. JPKning 318-moddasida shaxsni ushlash, qidiruv va majburiy keltirish bilan bog'liq xarajatlar ayblanuvchi va sudlanuvchining o'zidan undirilishi belgilangan. Lekin shaxs qidiruvga berilganligini bilmagan holda yoki jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin xorijga ketgani holda uning erkiga qarshi xorijiy davlatda ushlanishi va ekstraditsiya qilinishi bilan bog'liq xarajatlarni undan undirilishi maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

Bunday holda shaxsga tergov organiga ixtiyoriy kelish imkoniyatini yaratish lozim. Chunki xorijga ketayotgan shaxs har doim ham jinoyat sodir etganligini anglab yetmasligi mumkin yoki kelgusida unga qidiruv e'lon qilinishi mumkinligini oldindan ko'ra bilish imkoniyatiga ega emas.

Agarda milliy qonunchiligimizga ayblanuvchini ushlash, qidirib topish va ekstraditsiya qilish bilan bog'liq protsessual chiqimlar faqatgina tergov va suddan qasddan yashiringan ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan undirilishi to'g'risidagi norma kiritilsa, bu sud qarorlarining adolatliligi mezoniga ham to'laqonli mos kelar edi deb o'ylaymiz.

Bundan tashqari, JPKning 364-moddasi 1-qismi 2-bandidagi "ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan" asosi bilan dastlabki tergov to'xtatilganda va ayblanuvchiga qidiruv e'lon qilinganda, garchi shaxs tergov va sudga kelishdan bo'yin tovlamagan bo'lsa-da, unga nisbatan "tergov va

8 Закирова Э.Ф. Приостановление предварительного следствия в случае, когда подозреваемый или обвиняемый скрылся от следствия либо место его не установлено по иным причинам: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Ижевск, 2004 г. – С.78-79.



suddan bo‘yin tovlagan shaxs” sifatida munosabat bildiriladi, shuningdek, qidiruvdan ushlanganidan so‘ng ushbu shaxsga nisbatan qo‘llanilgan “qamoqqa olish” ehtiyot chorasini tergov va sudga aksariyat hollarda o‘zgartirilmaydi.

Chunki JPKning 242-moddasida “qamoqqa olish” ehtiyot chorasini tergov va sudga yashiringan shaxsga nisbatan hatto u sanksiyasida uch yilga qadar ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham qo‘llanilishi mumkinligi belgilangan.

Xorijiy davlatlarning qonunchiligini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bir qator davlatlarda “ayblanuvchining qayerda ekanligi noma‘lumligi” asosida dastlabki tergovni to‘xtatish haqidagi normadan tashqari, alohida “ayblanuvchining tergov va sudga yashiringanligi” asosi ham qonunchilikda mustahkamlangan.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 208-moddasi 1-qismi 2-bandida dastlabki tergovni to‘xtatishning ikkita mustaqil asosi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tergov yoxud sudga yashiringanligi yoki uning qayerda ekanligi boshqa sabablarga ko‘ra aniqlanmaganligi bois to‘xtatilishi mumkinligi belgilangan⁹.

Xuddi shunday, Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 45-moddasi 7-qismi 3-bandiga ko‘ra gumon qilinuvchi, ayblanuvchi jinoiy ta‘qib qiluvchi organlardan yashiringanda yoki uning qayerda ekanligi boshqa sabablarga ko‘ra aniqlanmaganda, sudga qadar ish yuritish mudatlari uziladi¹⁰.

Belarus Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ham aynan shu mazmun-

dagi norma mavjud¹¹.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini solishtirar ekanmiz, Ozarbayjon Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi dastlabki tergovni to‘xtatish asoslari diqqatga sazovor bo‘lib, kodeksning 53-moddasi 53.1.2.-bandida ayblanuvchining qayerda ekanligi aniqlanmaganligi sababli ish yuritishni to‘xtatish asosi ko‘rsatilgan bo‘lsa, shu moddaning 53.1.3.-bandida ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxs tergov va sudga yashiringanda tergovni to‘xtatish asosi belgilangan¹².

Bu borada V.Ryabchikov o‘z ilmiy tadqiqotlarida quyidagicha bildirgan: “Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 208-moddasi 1-qismi 2-bandidagi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tergov yoxud sudga yashiringanligi yoki uning qayerda ekanligi boshqa sabablarga ko‘ra aniqlanmaganligi bois dastlabki tergovning to‘xtatilishi haqidagi norma bir-birini istisno qiluvchi mustaqil asoslardan tashkil topgan bo‘lib, ularni RF JPKning 208-moddasi doirasida bir-biridan ajratish to‘g‘ri bo‘ladi”¹³.

Ayni vaqtda bunga umuman qarama-qarshi fikrni ilgari surgan olimlar ham mavjud. Xususan, yurtimiz olimlaridan X.Botirov o‘z dissertatsiyasida ayblanuvchining qasddan tergovdan yashiringanligi hamda ayrim sabablarga ko‘ra uning qayerdaligi noma‘lum ekanligi holatlarini mustaqil asoslar sifatida protsessual qonunchilikka kiritishga hech qanday zarurat yo‘qligi, har ikki holatda ham tergovchida ayblanuvchi haqida ma‘lumot bo‘lishi hamda ayblanuvchini aniqlash choralari bir xil tartibda amalga oshirishi, jinoyat ishini to‘xtatishdan oldin ham tergovchi ikki holat bo‘yicha barcha tergov harakatlarini amalga oshirishi va qidiruv cho-

9 https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/?ysclid=m3icxxm0ns371427755

10 <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>

11 https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414958

12 https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420280

13 В.В.Рябчиков “Приостановление и возобновление предварительного расследования”. Дис... канд.юрид.наук.-Владимир, 2006 г. – С. 95-96.



ralarini ko'rishini ta'kidlab o'tgan¹⁴.

Biz X.Botirov va uning fikriga o'xshash tezislarni ilgari surgan olimlarning fikrlariga qo'shila olmaymiz. Chunki tergov va suddan yashirinmagan ayblanuvchining turli sabablarga ko'ra qayerda ekanligi norma'lumligi uning jinoyat sodir etilganidan so'ng qonun doirasida harakat qilishi oqibatida yuzaga kelgan bo'lishi yoki uning o'ziga bog'liq bo'lmagan holat bo'lishi mumkinligi, bundan tashqari, shaxs sodir etgan qilmishi jinoyat deb topilishi mumkinligi haqida o'ylab ham ko'rmagan bo'lishi mumkin.

Shaxsning muayyan qilmishiga baho berishda esa qilmishning subyektiv tomoni, ya'ni qanday maqsad va sabablar asosida amalga oshirilganligi yurisprudensiyada muhim ahamiyatga ega jihatlardan biri hisoblanadi.

Dastlabki tergovni to'xtatish haqida qaror qabul qilish uchun asos bo'lgan biror-bir holatni qat'iy va o'zgarmas deb hisoblab bo'lmaydi. Har qanday asos bilan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovning to'xtatilishi vaqtinchalik ahamiyat kasb etib, muayyan muddat o'tgandan so'ng dastlabki tergovning to'xtatish asoslari qayta o'zgartiriladi.

Misol uchun, fosh etilmaganlik asosi bilan to'xtatilgan jinoyat ishi keyinchalik fosh etilib, uni sodir etgan ayblanuvchiga nisbatan qidiruv e'lon qilinishi munosabati bilan qayta to'xtatilishi yoki to'xtatilgan ish jinoyiy javobgarlikka tortishning qonunda belgilangan muddati o'tganligi, ayblanuvchining vafot etganligi yoxud boshqa asoslarga ko'ra umuman tugatilishi ham mumkin.

Shu o'rinda masalaning yana bir muhim jihatiga e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 64-moddasi 3-qismida jinoyat sodir etgan va jinoyiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki

suddan yashirinsa, jinoyiy javobgarlikka tortish muddatining o'tishi to'xtatilishi belgilab qo'yilgan¹⁵.

Lekin tergov va sud muhokamasi jaryonida aynan jinoyiy javobgarlikka tortilgan shaxsgagina mazkur norma tatbiq etilishida noto'g'ri amaliyot shakllangan. Ya'ni ayblanuvchining tergov hamda suddan yashirinishi uni jinoyiy javobgarlikka tortishning qonunda belgilangan muddatlari o'tishining to'xtatilishiga, og'ir va ota og'ir jinoyat sodir etgan ayblanuvchining qasddan yangi jinoyat sodir etishi esa ushbu muddatlarning uzilishiga sababchi bo'lishi haqidagi norma qidiruvdagi ayblanuvchilarga nisbatan jinoyiy javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash imkoniyatini cheklaydi.

Biroq qonunchilikdagi "ayblanuvchining qayerda ekanligi aniqlanmaganligi" asosining yagona yondashuvi mavjud emasligi hamda aniq mezonlari qat'iy belgilanmaganligi tergov va sud amaliyotida ushbu tushunchalarning turlicha talqin qilinishiga va tergov hamda suddan qasddan yashirinmagan shaxsga nisbatan ham dastlabki tergovni shu asos bilan to'xtatishga sharoit yaratadi.

Bu borada tergovchilar, prokurorlar, pedagoglar va sud xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovda "Tergov va suddan yashiringan" hamda "qayerda ekanligi aniqlanmagan" ayblanuvchi degan tushunchalarni qonunda bir-biridan ajratishga zarurat bormi?" degan savolga 45 foiz respondentlar bunga zarurat borligini, bu tushunchalar turli mazmun kasb etishini bildirgan bo'lsa, 36,6 foizi bunga zarurat yo'qligini, har ikki tushuncha bir xil mazmun kasb etishini va 18,5 foizi esa javob bera olmasliklarini bildirib o'tgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning fikrlari hamda sud-tergov amaliyoti tahlili ham jinoyat-protsessual qonunchiligimizning dastlabki tergovni to'xtatish asoslarini

14 Botirov X.X. "Jinoyat ishini yuritishni to'xtatish va qayta tiklash institutini takomillashtirish". Dis. yur. fan. nom., Toshkent, 2012-yil, 54-bet

15 <https://lex.uz/docs/111453>



bugungi kunda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib hamda xorijiy mamlakatlarning qonunchiligidagi ilg‘or jihatlarni inobatga olgan holda, “ayblanuvchining tergov va suddan yashiringanligi” asosi bilan tergovni to‘xtatishning “ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lumligi” asosining qonunda aniq bir-biridan ajratilishi hamda alohida band sifatida Jinoyat-protsessual kodeksi-ning 364-moddasida mustahkamlanishi kelgusida bu toifadagi shaxslar uchun turlicha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga zamin yaratadi.

Javobgarlikdan qutulish maqsadida tergov organidan yashiringan shaxs hamda tergov organidan yashirinish niyatida bo‘lma-

gan shaxslarga nisbatan qonun normalarini qo‘llashda adolat tamoyillariga rioya qilinishiga erishiladi deb hisoblaymiz.

Shunga ko‘ra amaldagi JPKning 364-moddasi 1-qismi 2-bandini alohida ikkita bandga ajratib, quyidagicha yangi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“2) *gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lum bo‘lgan;*

3) *gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tergovga kelishdan qasddan bo‘yin tovlagan yoxud yashiringan;*”.

Qayd etilgan taklif va mulohazalar kelgusida jinoyat-protsessual qonunchilikning yanada takomillashishiga, shu orqali protsess ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalashini ta’minlashga xizmat qiladi degan umiddamiz.

#



Рустам ДЖУРАБАЕВ,

Преподаватель цикла боевой подготовки Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан, доцент

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДОСТИЖЕНИЙ ЦИФРОВОЙ КРИМИНАЛИСТИКИ В ТАКТИКЕ ЗАДЕРЖАНИЯ РОЗЫСКИВАЕМЫХ В РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются особенности использования достижений цифровой криминалистики в тактике задержания розыскиваемых в расследовании преступлений, проведен научный анализ теоретических и практических аспектов задержания разыскиваемых преступников, как одного из необходимых средств борьбы с преступностью связанных с обеспечением общественной безопасности в стране. Основываясь на нормах уголовно-процессуального законодательства, учитывая особенности криминалистической тактики задержания и мнения ученых относительно необходимых условий уголовно-процессуального порядка и криминалистической тактики задержания рассматривается алгоритм необходимых действий сотрудников органов внутренних дел осуществляющих задержание разыскиваемых преступников с использованием цифровой криминалистики.

ANNOTATSIYA. Maqolada qidiruvda bo'lgan shaxslarni ushlash taktikasida raqamli kriminalistika yutuqlarini qo'llashning xususiyatlari jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashning zarur vositalaridan biri sifatida qidiruvda bo'lgan jinoyatchilarni ushlashning raqamli kriminalistikaning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tahlil qilingan. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalaridan kelib chiqib, qidiruvdagi jinoyatchilarni ushlashni amalga oshirishning kriminalistik taktikasining o'ziga xos xususiyatlarini hamda jinoyat-protsessual tartibining zarur shart-sharoitlari va ushlashning kriminalistik taktikasi to'g'risidagi olimlarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda ichki ishlar organlari xodimlarining qidiruvdagi shaxslarni ushlashning zarur harakatlari algoritmi ko'rib chiqildi.

ABSTRACT. The article discusses the features of using the achievements of digital forensics in the tactics of detaining wanted persons in the investigation of crimes, a scientific analysis of the theoretical and practical aspects of detaining wanted criminals as one of the necessary means of combating crime associated with ensuring public safety in the country. Based on the norms of criminal procedural legislation, taking into account the features of forensic tactics of detention and the opinions of scientists regarding the necessary conditions of the criminal procedural order and forensic tactics of detention, an algorithm of the necessary actions of employees of the internal affairs bodies carrying out the detention of wanted criminals using digital forensics is considered.

Ключевые слова: цифровая криминалистика, задержание, разыскиваемый преступник, обеспечение криминалистическая тактика, обеспечение общественной безопасности, борьба с преступностью, алгоритм действий органов осуществляющих розыск.

Kalit so'zlar: raqamli kriminalistika, jinoyatchini ushlash, qidiruvda bo'lgan shaxs, kriminalistik taktika, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, qidiruvni amalga oshiruvchi organlarning harakatlar algoritmi.

Key words: digital forensics, detention, wanted criminal, ensuring forensic tactics, ensuring public safety, combating crime, algorithm of actions of the bodies carrying out the search.

В современном мире, по причине глобальной цифровизации информационные технологии стали активно внедряться в различные сферы жизни. Одним из таких направлений является цифровая криминалистика. Указом Президента Республики Узбекистан № УП–257 были даны указания о создании условий цифровизации в механизме раскрытия и расследования преступлений. Это связано с реализацией в следственной деятельности, организация своевременного раскрытия преступлений посредством цифровых технологий, которые подняли на качественный уровень

борьбу с преступностью.

В связи с этим, требуется кардинальное повышение эффективности системы подготовки и переподготовки высококвалифицированных специалистов в области следствия, отвечающей требованиям времени и осуществляемым в сфере реформам.

Так созданный Научно-методический центр Цифровой криминалистики осуществляет образовательную, учебно-методическую и научно-исследовательскую деятельность в области цифровой криминалистики, методов расследования киберпреступлений, сбора данных из сети



Интернет, использования специального программного обеспечения.

Целью центра является подготовка необходимых специалистов в качестве сотрудников правоохранительных органов, обладающих специальными знаниями для расследования преступлений по горячим следам, проведения следственных и оперативно-розыскных мероприятий со своевременным выявлением, обнаружением и фиксацией вещественных доказательств современными средствами цифровой криминалистики. Это относится и к такой важной сфере как задержание разыскиваемых преступников.

Создаются необходимые условия для усиления методологической и научно-аналитической деятельности, связанной с совершенствованием знаний в области цифровых технологий направленных на изучение современных технологий борьбы с преступностью.

Организована единственная в нашей стране учебная лаборатория Dark Web, позволяющая формировать практические навыки сотрудников правоохранительных органов по поиску и фиксации соответствующих цифровых доказательств в скрытых интернет-сетях.

Следует отметить, что на сегодняшний день данные центры оснащена современным компьютерным и сетевым оборудованием, в том числе необходимым программным обеспечением для работы в скрытом сегменте сети Интернет.

Основываясь на базе научно-исследовательских центров проводится обучающие курсы и исследования по расследованию преступлений, совершенных с использованием криптовалют и сети Darknet. Все это настоятельно требует использование

достижений цифровой криминалистики. Особенно это актуально при задержании разыскиваемых преступников.

Последние данные показывают, что тактика данного процессуального действия связанного с применением тактических приемов задержания разыскиваемых преступников и совершенствования комплексного механизма уголовно-процессуального порядка, криминалистического обеспечения является наиболее проблемной¹.

С точки зрения цифровой криминалистической тактики задержания разыскиваемых, оно имеет прикладной (практический) характер осуществляется посредством умелого применения и использования тактических приемов, знание которых гарантирует успешную реализацию целей уголовного преследования². Тактику задержания, основанную на цифровой криминалистике необходимо знать сотрудники службы уголовного розыска

Цифровая тактика задержание разыскиваемых преступников можно представить как комплексную технологию реализующую цифровую составляющую в деятельности органов внутренних дел осуществляющих розыск. В законодательных актах оно применяется для обозначения процесса задержания разыскиваемых, в зависимости от разновидности розыска (государственный, межгосударственный или международный) каждый из которых специфичен по своей правовой природе, основаниям и порядку применения³.

Отдельные аспекты тактики алгоритма задержания лиц находящихся в розыске отражены в некоторых исследованиях отечественных и зарубежных авторов. Так, А.А.Матчанов акцентировал внимание на возможность использования цифровых

1 Агеев О.А. Криминалистическое обеспечение задержания лиц, подозреваемых в совершении преступлений в сфере экономики: дис. ... канд. юрид. наук / Агеев О. А. – Тюмень, 2011 г., – С. 234.

2 Казанцев Д.А. Задержание в системе криминалистической тактики / Д.А.Казанцев // Сборник материалов криминалистических чтений. – 2011 г., № 7, – С. 30–31.

3 Матчанов А.А. Уголовно-процессуальные и криминалистические аспекты совершенствования розыска лиц, совершивших преступления: автореф. дис. ...д-ра юрид. наук (DSc). – Т., 2019 г., – С. 65.



технологий в своих исследованиях затронул уголовно-процессуальные, криминалистические, оперативно-розыскные и международно-правовые стороны задержания разыскиваемых лиц⁴. Организационные и тактические основы проведения оперативно-розыскных мероприятий и следственных действий при задержании подозреваемого были исследованы В.Г.Петровским⁵

Среди зарубежных авторов можно выделить работу Н.В. Попкова исследовавшего задержание подозреваемого и обвиняемого как вид государственного принуждения⁶.

Относительно теории и практики задержания в уголовном процессе свои исследования провела О.И. Цоколова⁷, О некоторых особенностях задержания в структура тактической операции затронул А.Б. Смушкин⁸.

Изучение мнений практических сотрудников проходящих обучение в Институте повышения квалификации МВД Республики Узбекистан выяснялось, что только некоторая часть из числа сотрудников уголовного розыска имеют представление о тактике задержания обвиняемого, находящегося в розыске. Это свидетельствует об актуальности рассматриваемой проблемы в деятельности органов внутренних дел, которые в основном и осуществляют за-

держание разыскиваемых преступников.

Необходимо помнить, что задержание непосредственно затрагивает права неприкосновенности личности и поэтому данная мера процессуального принуждения находится под особым контролем⁹. Наряду с организационными и тактическими основами задержания при расследовании преступлений в зарубежных странах были затронуты и тактические приемы используемые при задержании разыскиваемых¹⁰.

А.В. Павлов исследовал особенности задержания разыскиваемого преступника и определил, что, с криминалистической точки зрения задержание представляет собой систему научно обоснованных рекомендаций о наиболее рациональном способе действий при осуществлении собственно задержания¹¹. Эти рекомендации имеют значение для алгоритма деятельности органов непосредственно осуществляющих задержание посредством определенных тактических приемов.

По мнению А.Б. Смушкина круг лиц и органов, привлекаемых к задержанию преступников, определяется сложившейся следственной ситуацией¹². При этом алгоритм задержания реализуется в последовательном проведении следующих тактических действий: предварительная подготовка к задержанию (составление

4 Матчанов А.А. Особенности задержания обвиняемого находящегося в розыске. Монография – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2005 г., – С. 123.

5 Петровский В.Г. Организационные и тактические основы проведения оперативно-розыскных мероприятий и следственных действий при задержании подозреваемого: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1999 г., – С. 26.

6 Попков Н.В. Задержание подозреваемого и обвиняемого как вид государственного принуждения: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Нижний Новгород, 2007 г., – С. 24.

7 Цоколова О.И. Теория и практика задержания, ареста и содержания под стражей в уголовном процессе: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2007 г., – С. 60.

8 Смушкин А.Б. Задержание в структуре тактической операции при расследовании преступлений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2005 г., – С. 26.

9 Жабборов З.К. Совершенствование практики применения уголовно-правовых норм, касающихся причинения вреда при задержании лица, совершившего общественно опасное деяние (На примере деятельности органов внутренних дел): автореф. дис. ... д-ра философии (PhD). – Т., 2019 г., – С. 52.

10 Вьонг Тханг Лонг Организационные и тактические основы задержания при расследовании преступлений в Социалистической Республике Вьетнам и Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2016 г., – С. 23.

11 Павлов А.В. Задержание обвиняемого, находящегося в розыске: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Омск, 2009 г., – С. 26.

12 Смушкин А.Б. Задержание в структуре тактической операции при расследовании преступлений: автореф. диссер канд. юрид. наук. – Саратов, 2005 г., – С. 9 (243 с.)



плана, расстановка сил, обеспечение технических средств, прослушивание переговоров разыскиваемого, ведущихся с телефонов и других телекоммуникационных устройств, снятие передаваемых по ним информации, их анализ и обработка); непосредственное, физическое осуществление задержания разыскиваемого (проведение тактической комбинации или операции по захвату); доставка в дежурную часть правоохранительного органа и оформление протокола о задержании.

Непосредственный процесс самого алгоритма включает в себя подготовку к задержанию, а именно изучение личности задерживаемого, изучение места задержания, определение времени задержания, составление плана задержания, подбора и распределения обязанностей сотрудников задействованных в задержании, их предварительный инструктаж, оснащение техническими средствами.

Непосредственное задержание разыскиваемого осуществляется с использованием цифровых технологий, криминалистических и оперативно-розыскных учетов и посредством взаимодействия, при задержании разыскиваемых другие структурные подразделения правоохранительных органов, общественные органы и граждане.

Выбор места задержания разыскиваемых и его предварительное изучение производятся для уменьшения тактического риска для сотрудников уголовного розыска органов внутренних дел на которых возложены задачи задержания. Место задержания должно быть максимально безопасным для сотрудников, осуществляющих задержание, и окружающих лиц. Должны быть созданы условия для обеспечения возможности применения специальных и технических средств во время операции по задержанию разыскиваемых преступников.

Подготовительные мероприятия на-

чинаются с предварительного изучения предполагаемого места задержания разыскиваемого преступника с целью оптимальной организации задержания. Это направлено на возможность свободной ориентации на месте, планирования расстановки участников задержания, определения пунктов предварительного наблюдения и разработки маршрутов движения и мест расположения сотрудников и транспортных средств.

На месте задержания разыскиваемых преступников возможно проведение некоторых организационно-тактических мероприятий. Так, в целях блокирования разыскиваемым преступникам возможных путей отхода можно на некоторых дорогах начать ложные ремонтно-восстановительные работы под видом представителей различных коммунальных служб, расставить вблизи места задержания сотрудников уголовного розыска, скрыто расположить автомобили с оперативными сотрудниками, которые по условному сигналу перекроют проезд.

Задержание разыскиваемых должно осуществляться в условиях, максимально невыгодных для них условий и наиболее благоприятных для задерживающих сотрудников уголовного розыска.

Время задержания выбирается с учетом возможности обеспечения безопасности участникам захвата и посторонним гражданам, внезапности задержания для преступников, возможности захвата с минимальным сопротивлением задерживаемых.

Состав группы формируется с учетом количества преступников, степени их опасности, вооруженности и предполагаемого развития ситуации при задержании. В любом случае группа захвата должна иметь численное преимущество. Количество членов группы захвата набирается из расчета 2-3 сотрудников уголовного розыска на одного разыскиваемого



преступника. Целесообразно разделение функциональных ролей членов группы задержания.

Тактика непосредственного задержание разыскиваемого основывается на действиях сотрудников осуществляющих задержание. Они должны по возможности максимально приблизиться к разыскиваемому лицу и используя меры предосторожности осуществить задержание. Это возможно посредством оперативно проведенного действия, которое ограничивает свободу действий задерживаемого, пресекаются попытки оказать сопротивление.

Значительные трудности представляет собой задержание разыскиваемого преступника в каком-либо помещении. В организационный момент входит действия по незаметному проникновению в помещение. Если этого сделать невозможно и разыскиваемый преступник отказывается открыть дверь, то, учитывая его психическое напряжение и возможность импульсивных действий вплоть до применения огнестрельного оружия, следует вступить с ним в переговоры, убедить его добровольно сдаться. При не достижении цели, могут быть применены специальные средства предусмотренные соответствующими ведомственными нормами.

При задержании нескольких разыскиваемых, находящихся в разных местах, важна четкая координация действий групп задержания. При возникновении непредвиденных ситуаций, об этом необходимо сообщить в орган или лицу осуществляющему координацию задер-

жание. Это необходимо для своевременного внесения коррективы в действия других групп.

Наиболее характерно это для тактики задержания разыскиваемого, а также сопряженных с ним действий – изъятия оружия, уличающих предметов и документов и сопровождения лица в служебное помещение, а также, отчасти, фиксации обстоятельств задержания разыскиваемого. Применительно именно к этим действиям вырабатывается тактика задержания разыскиваемого преступника подходящая к определенной обстановке.

Таким образом, сущность тактики задержания разыскиваемого преступника имеет многогранный характер. По нашему мнению теоретические и практические аспекты задержания разыскиваемых преступников зависит от знания и умелого использования правовых и прикладных основ тактики их задержания и реализации алгоритма проводимых уголовно-процессуальных действий, криминалистического обеспечения, разработанного плана задержания. Тактика задержания предполагает готовность задействованных сил и средств участвующих в задержании, их умения реализовать поставленные задачи, организовать взаимодействие. Для эффективности применяемой тактики задержания розыскиваемых необходимо наличие не только предусмотренных законом правовых оснований, но также возможностей правоохранительных органов в реализации данной тактики задержания.

#



Humoyun OLIMJONOV,

Chilonzor tumani prokurori yordamchisi,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH JARAYONIDA PROKUROR NAZORATI TUSHUNCHASI VA MAZMUN-MOHIIYATI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada jinoyat ishini qo‘zg‘atish jarayonida prokuror nazorati tushunchasi va mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichining ahamiyati, jinoyat ishini qo‘zg‘atish jarayonida prokuror nazorati muhimligi, shuningdek, prokuror nazorati orqali jinoyat haqida ariza va xabarni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish, tekshirish bo‘yicha qonuniy, asosli qarorlar qabul qilishga erishish kabi masalalar atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga, ushbu maqolada milliy va xorijiy olimlarning fikrlari o‘rganilgan va tahlil yakuni bo‘yicha qonunchilikka taklif va tavsiyalar berilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проанализированы понятие, содержание и сущностные характеристики прокурорского надзора на стадии возбуждения уголовного дела. Раскрывается значение этапа возбуждения уголовного дела в системе уголовного судопроизводства, обосновывается роль и важность прокурорского надзора в обеспечении законности при принятии процессуальных решений. Особое внимание уделено вопросам осуществления прокурорского контроля за регистрацией заявлений и сообщений о преступлениях, их рассмотрением и проверкой, а также обеспечению принятия законных, обоснованных и мотивированных решений по результатам доследственной проверки. Наряду с этим в статье изучены и сопоставлены научные подходы национальных и зарубежных ученых к проблемам прокурорского надзора на данной стадии уголовного процесса.

ABSTRACT. This article analyzes the concept and essence of prosecutorial oversight at the stage of initiating criminal proceedings. Issues such as the significance of the stage of initiating a criminal case, the importance of prosecutorial supervision at the stage of initiating a criminal case, as well as achieving legal, substantiated decisions on the registration, consideration, and verification of applications and reports of crimes through prosecutorial supervision are analyzed in detail. At the same time, the opinions of domestic and foreign scientists were studied in this article, and based on the results of the analysis, proposals and recommendations for legislation were given.

Kalit so‘zlar: qonuniylik, jinoyat ishini qo‘zg‘atish, prokuror, nazorat, shaxs huquq va erkinliklari, qonunbuzarlik, himoya, jinoyatchilikka qarshi kurashish.

Ключевые слова: законность, возбуждение уголовного дела, прокурор, прокурорский надзор, права и свободы личности, правонарушение, защита, противодействие преступности.

Key words: legality, initiation of criminal proceedings, prosecutor, supervision, individual rights and freedoms, violation of the law, defense, fight against crime.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq prokuratura yagona markazlashgan organ bo‘lib, O‘zbekiston hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi (143-144-moddalar)¹. Xuddi shunday qo‘ida “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida ham qayd etilganligini ko‘rishimiz mumkin². Bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga rioya etilishi va qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasi nomidan amalga oshiradi.

V.V.Qodirovaning fikricha, prokuror sudgacha bo‘lgan bosqichda qonunning buzilishi, kim tomonidan buzilishidan qat’i nazar barta-raf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rishi shart³.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy maqsadi davlatda qonunlarga rioya qilish va ijro etilishini nazorat qilish, shuningdek shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Demak, ushbu qonunlarda O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va vakolatlari belgilangan. Bundan tashqari, prokuratura organlarining faoliyati xalqaro shartnoma, bitim

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2025-yil

2 O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli qonuni

3 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi. – T.: IIV Akademiyasi. Darslik, 2012-yil, 73-74-betlar



va Jinoyat-protsessual kodeksi, shuningdek, boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun prokuror nazorati masalasi mustahkamlangan. Jinoyat-protsessual qonunchiligidan kelib chiqib prokurorning asosiy vazifasi, birinchi navbatda, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda prokurorlarning o'rni va roli beqiyosdir. U ommaviy manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi. Shu munosabat bilan prokuror jinoyat protsessida qonun hujjatlariga rioya etilishining kafolati sifatida davlat nomidan maydonga chiqadi.

Amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, jinoyat ishini noqonuniy qo'zg'atishni rad etish hollari keng tus olgan. Jumladan, 2022-yilda rad qilish qarori bekor qilinib, qo'zg'atilgan jinoyatlar 5645 ta, 2023-yilda rad qilish qarori bekor qilinib, qo'zg'atilgan jinoyatlar 5710 ta, 2024-yilda ichki ishlar organi xodimlari tomonidan hisobdan yashirilgan, hisobot davrida sodir etilgan jinoyatlar 22 tani tashkil etgan. 2025-yil 6 oyida ichki ishlar organi xodimlari tomonidan hisobdan yashirilgan, hisobot yilida sodir etilgan jinoyatlar 2 tani tashkil etadi⁴.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rinadiki, jinoyat ishini qo'zg'atishda prokuror nazorati muhim rol o'ynaydi. Aynan jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha bo'lgan ish yuritishda prokuror faoliyatining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining ahamiyati shundaki, unga jinoyat-protsessual qonunchilikning mustaqil bosqichi, muhim, ajralmas va majburiy bosqichi sifatida qaraladi. Shu bois jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida prokuror nazorati zarur hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish jarayonida pro-

kuror nazorati tushunchasi va predmeti to'g'risida amaliyotchi va nazariyotchi olimlar o'rtasida ko'plab fikrlar mavjud.

Jinoyat ishini qo'zg'atish jinoyat sodir etilgan yoki unga tayyorgarlik ko'rilayotgan paytga yaqin bosqich bo'lib, jinoyat-protsessual faoliyatning boshlanishi hisoblanadi. Mazkur bosqichda bevosita jinoyat haqida ariza va xabar olingan paytdan ish yuritilishi boshlanadi. Dastlabki tergov bosqichidan farqli tomoni, tergovga qadar bosqichda jinoyat ishi qo'zg'atilmagan, ishga jalb qilingan shaxslarning protsessual holati (arizachi, gumon ostidagi shaxs, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs, shohidlarning huquq va majburiyatlari) belgilanmaganligi bilan izohlanadi. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, aynan tergovga qadar bosqichda shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini eng ko'p buziladi. Ya'ni noqonuniy jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilish, noprotsessual shaxslarni jalb qilish (shohid bo'lmagan guvohlar, navbatchi guvohlar, tuhmatchi arizalar, provokatsiya), jinoyatchilikni yashirish va boshqa ko'plab qonunbuzarliklar sodir etiladi. Bunday qonunbuzarliklarning oldini olish uchun o'ziga xos nazorat talab etiladi. Sudgacha bo'lgan bosqichda, shu jumladan, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olish paytidan boshlab prokuror nazorati mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 28-moddasiga binoan, prokurorlar huquqni muhofaza qilish organlarida sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etish to'g'risidagi qonun talablarining ijrosini har oyda kamida bir marta tekshirishga haqli ekanligi mustahkamlab qo'yilgan⁵. Bu o'z navbatida, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida prokuror

4 O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ma'lumotlari

5 O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli qonuni



nazoratini tashkil etish predmetiga xos bo‘lgan xususiyatlar to‘g‘risida so‘z yuritish imkonini beradi. Mazkur qonunning 27-moddasida jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida prokuror nazorati predmeti berilgan bo‘lib, unda yozilishicha, jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalar va xabarlarni ko‘rib chiqish hamda hal qilish va ish olib borishning qonunchilikda belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat predmeti hisoblanadi. Demak, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida prokuror nazorati doimiy va barcha prokuratura organlari tizimi uchun xos bo‘lgan vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, Bosh prokuror tomonidan quyi prokuror faoliyatini baholashning asosiy mezonlari sifatida qaraladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi “Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta‘minlash to‘g‘risida”gi 129-sonli buyrug‘iga binoan, prokurorlar tergovga qadar tekshiruv organlarida jinoyatchilik holati, unga qarshi kurash faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish, amaliyotdagi mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish, shuningdek jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma‘lumotlarni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va hal etish ahvoli yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko‘rishlari lozimligi qayd etilgan⁶. Bosh prokurorning ushbu buyrug‘ida idoraviy mansubligidan qat‘i nazar, barcha tergovga qadar, dastlabki tergov va surishtiruv organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishda yagona yondashuv zarurligi ta‘kid-

langan. Prokurorlar jinoyat ishining sudgacha bo‘lgan bosqichlarida, jinoyat tarkibini o‘z ichiga olgan qilmish to‘g‘risidagi ariza yoki xabar kelib tushgan paytdan boshlab yakuniy qaror qabul qilingunga qadar aniqlangan qonun buzilishi holatlariga qat‘iy munosabat bildirishi shart.

Darhaqiqat, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida bunday nazorat sudga qadar yuritishda prokurorning asosiy protsessual funksiyalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun prokuror idoraviy bo‘ysunishidan qat‘i nazar, barcha tergovga qadar tekshiruv va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning protsessual faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi shart⁷. Konstitutsiya va qonunlar ushbu sohada prokurorga keng hokimiyat vakolatlarini bergan. Ayniqsa, jinoyat ishini noqonuniy qo‘zg‘atish yoki rad etish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma‘lumotlarni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va hal etish ahvoli yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha keng vakolatlar berilgan. Shu sababli qonun chiqaruvchi prokurorning jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichidagi roliga alohida e‘tibor qaratib, tergovga qadar tekshiruv va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatining qonuniyligi nazorat predmeti sifatida mustahkamlagan.

Ta‘kidlash joizki, aynan “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun va Bosh prokurorning 129-sonli buyrug‘i jinoyat ishini qo‘zg‘atish jarayonida prokuror nazorati predmetini yanada aniqroq belgilaydi va bu qoidalar boshqa normalarda takrorlanmasligi bilan o‘ziga xosdir.

Jumladan, ushbu normalar jinoyat ishini qo‘zg‘atishda prokuror nazoratining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, birinchidan, jinoyat ishini qo‘zg‘atish jarayonida prokuror na-

6 O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi “Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta‘minlash to‘g‘risida”gi 129-sonli buyrug‘i

7 Жук О.Д. Уголовное преследование по уголовным делам об организации преступных сообществ (преступных организаций), участии в них и о преступлениях, совершенных этими сообществами. Дисс...доктора юрид. наук. М., 2004 г.



zorating predmeti surishtiruv va dastlabki tergov organi tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishini nazorat qilish hisoblanadi. Shu bilan birga, prokuror nazorati predmetiga boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish kirmasligidadir; ikkinchidan, "Prokuratura to'g'risida"gi qonun va Bosh prokurorning 129-sonli buyrug'ida aynan ushbu bosqichda prokuror nazorati qaysi sohalarida amalga oshirilishi aniq belgilab qo'yilgan. Bu to'rtta asosiy yo'nalishni nazarda tutadi: 1) inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish; 2) jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlarini ko'rib chiqish va hal qilishda qonuniylikka rioya qilishni ta'minlash; 3) surishtiruv va tergov organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi ustidan nazorat qilish; 4) ushbu organlarning xatti-harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish; uchinchidan, prokuror TQF, TQT, surishtiruv, tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish (Qonunning 4-moddasi).

Yuqorida keltirilgan tahlillar jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida prokuror nazoratining asosiy yo'nalishlarini (predmetini) belgilab berish bilan birga, aniq huquqni muhofaza qilish funksiyasiga ega ekanligini ham ko'rsatadi.

Mazkur masalada protsessualist olimlar o'z fikrlarini qayd etib o'tishgan. Masalan, D.Mirazovning ta'kidlashicha, qonuniylikka rioya etish ustidan prokuror nazorati bir xususiyati bilan yaqqol ajralib turadi. Agar-da umumiy nazoratni amalga oshirish jarayonida prokuror qonun buzilishini aniqlaydigan bo'lsa, u shu organ yoki mansabdor shaxsga aniqlangan qonun buzilishini barta-

raf etish yoki qabul qilingan qarorni bekor qilish to'g'risida taqdimnoma kiritadi⁸.

V.I.Asanov va V.V.Asanovlarning ta'kidlashicha, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida prokuror nazoratining mazmun-mohiyati huquq-tartibot organlarining qonuniylikka rioya etishini ta'minlash hisoblanadi. Mazkur bosqichda prokuror nazorati faoliyatining mazmuni, birinchidan, jinoyat alomatlar mavjud bo'lganda jinoyat ishini o'z vaqtida qo'zg'atishni ta'minlash, ikkinchidan, jinoyat ishini noqonuniy va asossiz qo'zg'atishga yo'l qo'ymaslik, pirovardida fuqarolarning qonuniy huquqlarini noqonuniy cheklashdan himoya qilishdan iboratdir. Buning uchun prokuror jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlarini qabul qilish, ro'yxatga olish va hal etishda qonun talablarini tekshirishga, jinoyat ishini qo'zg'atishga rozilik berishga, tergov organlarining jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorlarini tekshirishga va hokazolarga vakolatlidir⁹.

D.Sh.Israilovning nuqtayi nazaricha, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi ustidan prokuror nazorati bu prokuratura faoliyatining ixtisoslashtirilgan tashkiliy-huquqiy sohasi bo'lib, prokurorning o'ziga xos vakolatlari sanaladi, TQTni amalga oshirish jarayonida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish va ularga rioya qilish bilan tavsiflanadi. Albatta, TQF va TQTni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi, amalga oshirilgan TQTni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish, jinoyat ishlari bo'yicha isbotlash jarayonida TQF natijalaridan foydalanish hamda qonun va shaxsning konstitutsiyaviy kafolatlari buzilishiga o'z vaqtida chek qo'yish lozimligini nazarda tutuvchi vazifalar yuklatilgan¹⁰.

B.X.Po'latov qonunlar ijrosi ustidan

8 Mirazov D.M. Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan kontrol va nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlar. Yur.f.doktori ... disser. Toshkent. 2016-yil, 273-bet.

9 Asanov B.I., Asanov B.B. Решение прокурора по делу, поступившему с обвинительным заключением: лекция. М., 2001 й. — С. 5.

10 Israilov D.Sh. Tezkor-qidiruv faoliyatiga oid qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish: avtoref. diss... yuridik fan. falsafa dokt. (PhD). T., Bosh prokuratura Akademiyasi, 2024-yil, 27-28-betlar



nazorat obyektlari xilma-xil bo‘lganligi bois davlatda qonuniylilikni ta‘minlashda ayrim nazorat predmetiga kiruvchi masalalarga alohida e‘tibor qaratish lozimligini ta‘kidlab, prokurorlar tomonidan bu nazoratni amalga oshirishdagi yo‘nalishlarni belgilashga asos bo‘ladigan masalalar ichida inson va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab berilgan huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borligini alohida qayd etadi¹¹.

N.V.Joginning fikricha, ushbu bosqichda prokuror nazorati, bir tomondan, sodir bo‘lgan har bir jinoiy faktga zudlik bilan va qat‘iy munosabat bildirishni anglatga, ikkinchi tomondan, jinoyat tarkibi alomatlari bo‘lmagan yoki jinoyat hodisasi umuman sodir bo‘lmagan holatlarda jinoyat ishi yuritishni bekor qilishga qaratilgan¹². Bizningcha, olim bu bilan bir tomondan, shaxslarni jinoyat ishiga noqonuniy jalb qilishning oldini olishni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, noqonuniy tekshirishlarni o‘z vaqtida oldini olishga qaratilgan harakatlarni nazarda tutadi.

Biz prokuror nazorati predmeti haqida bildirilgan B.X.Po‘latov, D.Sh.Israilov, D.Mirazov, V.I.Asanov, V.V.Asanov, N.V.Jogin va O.D.Juklarning fikrlariga qo‘shilgan holda, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida tekshiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonuniylikka rioya qilishi ustidan prokuraturaning roli o‘ziga xosdir, degan qarashni ilgari suramiz. Chunki bir tomondan, davlat tomonidan unga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa bu o‘z navbatida, Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishining kafili bo‘lib xizmat qiladi. Demak, prokurorlar barcha hollarda va barcha bosqichlarda jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tekshirishda, jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki rad etishda va tergov harakatlarida aralashishi shart sanaladi. Prokurorlarning qonun buzilishining oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etish maqsadida aralashishi davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlashini amalga oshirishi bilan bog‘liqdir.

Prokuratura organlari orasida o‘tkazilgan so‘rovnomada qatnashganlarning 91 foizi shuni ko‘rsatdiki, respondentlar prokurorning asosiy vazifasi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qilish deb javob bergan. Qolgan 9 foiz respondentlar Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat deb javob bergan.

Bizningcha, ushbu yo‘nalishda P.G.Marfitsin o‘z fikrini aniqroq bildirgan. Uning aytishicha, odatda prokurorning jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida nazoratni amalga oshirish borasidagi faoliyati ikki yo‘nalishda ko‘rinadi: jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalarni (xabarlarni) qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha qonun va idoraviy normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini tekshirish hamda jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi va asosililigi ustidan nazorat qilish¹³. V.N.Yashin va A.V.Pobedkinlar esa quyidagi faoliyat yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatadi: 1) jinoyatlar to‘g‘risidagi dastlabki materiallarni hal etishning belgilangan tartibiga rioya etilishini tekshirish; 2) ular yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi va asosililigini ta‘minlash¹⁴. Chindan ham amaliyotda aynan ji-

11 B.X.Po‘latov. Prokuror nazorati. Darslik. — Toshkent, O‘zbekiston 2009-yil, 133-134-betlar

12 Жогин Н.В. Прокурорский надзор за предварительным расследованием уголовных дел. М., 1968 г., — С. 12; Чельцов М.А. Советский уголовный процесс. М., 1962 г. — С. 133.

13 Марфицин, П.Г. О прокурорском надзоре за обеспечением прав и законных интересов личности в стадии возбуждения уголовного дела [электронный ресурс] // Режим доступа: <http://lavvtce.agava.ru/pub/stat13.htm>.

14 Яшин В.Н. Возбуждение уголовного дела. Теория, практика, перспективы. Учеб. пособие для вузов / В.Н.Яшин, А.В.Победкин. — М.: ЮНИТИ-ДАПА, Закон и право. — С. 3.



noyat to'g'risidagi arizalarni (xabarlarni) qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish to'g'risida yakuniy qarorlar qabul qilish chog'ida shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari eng ko'p buziladi.

Misol uchun, Bosh prokuratura tomonidan keltirilgan statistik ma'lumotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

holatlari ko'p bo'ladi. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumot ham bunga yaqqol misoldir. Bu holat ham (protsessual maqomni belgilamaslik) prokurorga o'z nazorat funksiyasini samarali bajarishga va jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida ishtirok etayotgan shaxslarning o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilishiga ham to'sqinlik qiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyat ishi-

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish, bekor qilingan qarorlar soni	1 513	1 240	1 182	744
Jinoyatchilikni yashirish holatlari			22	2 (6 oy ichida)
Tergovda ayblanib, sud hukmi bilan rehabilitatsiya etilgan shaxslar soni	200	248	233	115

Amaliyotda jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olishda eng ko'p buziladi. Chunki jinoyat ishini qo'zg'atish jarayoni ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Odatda jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tekshirish o'n kun yoki qo'shimcha tekshirish talab etilganda bir oy-gacha cho'zilishi mumkin. Ushbu vaqt oralig'ida jinoyat alomatlari mavjudligi yoki mavjud emasligi, shuningdek, shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi tekshiriladi. Aytish lozimki, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida ishtirok etadigan shaxslarning doirasi (ushbu tekshirish bosqichida shaxslarning protsessual maqomi (huquq va majburiyatlari), masalan, arizachi, gumon ostidagi shaxs, jinoyatdan jabr ko'rgan, shohidlar) belgilanmagan. Albatta, ushbu ishtirokchilar tergovga qadar tekshiruv materiallari bilan tanishish huquqiga ega bo'lishi lozim. Negaki, ta'qib organlari yoki arizachi va boshqa shaxslar tomonidan unga nisbatan tuhmat, yolg'on tushuntirish, noqonuniy jalb qilish

ni qo'zg'atish bosqichida ishtirok etuvchi shaxslarni eslatib o'tgan bo'lsa-da (masalan, shohid 155-, 221-222; arizachi 377, 381¹⁴, 525, 602; gumon ostidagi shaxs 220-222-moddalar), ularning huquq va majburiyatlari belgilanmagan. Faqat qonunchilikda jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilganligi to'g'risida arizachi, yuridik shaxs va mansabdor shaxs xabardor qilinishini nazarda tutadi (333-modda birinchi qism). Amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, odatda fuqarolar davlat organlariga jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ikki usulda yetkazadi. Birinchi usul, mobil aloqa yordamida qisqa raqam "112" ishonch telefoni orqali yetkaziladi. Ikkinchi usul, fuqarolar yozma tartibda profilaktika inspektoriga murojaat qilishadi. U yoki bu holatda ham navbatchi yoki profilaktika inspektori arizani "E-material"da ro'yxatdan o'tkazishi lozim. "E-material" bazasida joylashtirilgandan so'ng ariza va xabar o'n kunlik (yoki qo'shimcha tekshiruvlar talab qilganda 1 oy) muddat ichi-



da ko‘rib chiqilishini bildiradi. Ammo fuqarolar jinoyat haqidagi ariza va xabarlarining ro‘yxatga olinganligi va tergovga qadar tekshiruv amalga oshirilayotganidan xabarsiz bo‘lib qoladi. Bu o‘z navbatida, fuqarolarning IIV “112” ishonch telefoniga qayta-qayta murojaat qilishlariga, ariza natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorni bilishlariga undayveradi. Bu bir tomondan, arizachini stress, vahima, ovoragarchilik, ishonchsizlik holatiga yoxud ta‘qib organlari tomonidan ularning huquq va qonuniy manfaatlari (harakat yoki harakatsizlik oqibatida) buzilishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, ta‘qib organlarining fuqarolarga ortiqcha tushuntirishlari, vaqt sarflashi va boshqa ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli bizningcha, fuqarolarga jinoyat to‘g‘risidagi ariza va xabarlarining ro‘yxatga olinganligi faktini tasdiqlaydigan yoki bildiradigan *SMS-xabar* yuborish lozim. Ushbu vaqt oralig‘ida ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, Bosh prokurorining 129-sonli buyrug‘i 4.1-bandida jinoyat va hodisalar haqida vakolatli organlardan kelib tushgan kunlik ma‘lumotlar sinchkovlik bilan o‘rganilib, nazorat qiluvchi prokurorlar tomonidan tergovga qadar tekshiruv ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha ham ko‘rsatma mavjud¹⁵.

Shu bilan birga, qonunchilikda jinoyat ishi qo‘zg‘atilganligi to‘g‘risidagi qaror haqida tomonlarni xabardor qilish masalasi ochiq qolgan. Profilaktika inspektorlari bilan suhbat jarayonida quyidagilar aniq bo‘ldi. Ularning aytishicha, bitta profilaktika inspektori kunlik o‘rtacha 1-2 ta jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida material to‘playdi, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish bo‘yicha esa 3 tadan 5 tagacha tashkil qiladi. Har biri pochta orqali arizachilarga yetkaziladigan bo‘lsa,

taxminan oyiga jami yo‘lkira va pochta xarajatlari 4-5 mln so‘mni tashkil qiladi. Davlat tomonidan ushbu xarajatlar profilaktika inspektorlariga qoplab berilmaydi. Amaliyotda ushbu huquqlar doirasi fuqarolar e‘tiboriga yetkazilmay qolgan. Natijada fuqarolar mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (harakatsizligi) va qabul qilgan qarorlari ustidan prokuratura organlariga shikoyat qilishga majbur bo‘ladi. Bu vaqt oralig‘ida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillar yo‘qolishi ham mumkin. Huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi so‘rovnoma natijalariga ko‘ra (86 %), fuqarolarga jinoyat haqidagi ariza va xabarlar ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida xabar berilmaydi. Ayrim hollarda, masalan, profilaktika inspektori arizachiga telefon orqali bildirishi mumkin, deb javob berilgan. Aksariyat (89 %) bildirishlar arizachiga jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risida qaror yuborilganligini qayd etadilar.

Shu bois Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi birinchi qismiga quyidagi mazmunda qo‘shimcha kiritishni taklif qilamiz:

“Arizachiga, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxsga jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma‘lumotlar ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida SMS-xabarnoma yuboriladi”.

SMS-xabarnomada jinoyat haqidagi ariza va xabar qaysi organ qabul qilganligi, kim (mansabdor shaxsning FIO) tomonidan qabul qilinganligi, qachon qabul qilinganligi aks ettirilishi lozim. Shunga o‘xshash qoida RF Jinoyat-protsessual kodeksining 144-moddasida aks etgan bo‘lib, unda arizachiga jinoyat to‘g‘risidagi xabar qabul qilinganligi haqida, uni qabul qilgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek xabar qabul qilingan sana va vaqt ko‘rsatilgan hujjat berilishi belgilab qo‘yilgan¹⁶.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining yangi 55¹-moddasi birinchi qismini qu-

15 O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi “Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta‘minlash to‘g‘risida”gi 129-sonli buyrug‘i

16 “Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации” от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 31.07.2025) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.09.2025).



yidagi mazmunda to'ldirish taklif etiladi:

"Arizachi tergovga qadar tekshirish materiallari bilan tanishishga haqli".

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi "Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida"gi 129-sonli buyrug'ining 3.4-bandini quyidagi mazmunda to'ldirish taklif etiladi:

"jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni "E-material" axborot tizimida ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hal etish ahvoli".

Bizningcha, ushbu taklif etilgan normalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish prokuratura organlari faoliyatining ushbu sohadagi diqqat markazida bo'lishi imkoni tug'iladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida prokuror nazoratining predmeti tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv faoliyatining qonuniyligini ta'minlash ekanligini e'tiborga olgan holda, ariza va xabarlarini tekshirishda quyidagilarni asosiy nazorat predmeti sifatida ko'rsatish mumkin:

1) jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hal etish ahvoli;

2) jinoyat ishi qo'zg'atilishi yoxud jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish bo'yicha qarorlarni hal qilishning qonuniyligi;

3) jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi-

da ishtirokchilarning, shu jumladan arizachi, gumon ostidagi, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

4) jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan aniqlash to'g'risidagi qonun talablarini bajarish;

5) tergovga qadar tekshiruv muddatlariga rioya qilishni ta'minlash;

6) tergovga qadar tekshiruv, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar mansabdor shaxslari ustidan kelib tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqish.

Prokurorlarning jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi nazoratining asosiy maqsadi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda davlat kafolati rolini bajarishi bilan izohlanadi, bu o'z navbatida, tergovga qadar tekshiruv, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar mansabdor shaxslariga qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlash, har qanday buzilishlarning oldini olish majburiyatini yuklaydi. Qonun buzilishining o'z vaqtida va samarali oldini olish, shuningdek, tegishli choralar ko'rish uchun prokuror nazorat vakolatlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida prokuror nazorati – jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hal etish, asossiz va qonunga xilof jinoyat ishi qo'zg'atilishi yoxud jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilishi bo'yicha qarorlarni bekor qilish, shuningdek, gumon ostidagi, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdan iboratdir.



Alimardon AHMADOV,

Prosecutor of the Scientific and Educational Center for Combating Corruption of
the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

ILLICIT FINANCIAL FLOWS: ISSUES OF MEASUREMENT AND COMBATTING IN UZBEKISTAN

ABSTRACT. The following article examines illicit financial flows, which is a complex transnational phenomenon which affects economic development, fiscal stability and the rule of law worldwide. The main focus will be on the case of Uzbekistan. IFF are produced through different means, e.g., bribery, trade mis-invoicing, tax evasion, money laundering and other forms of illegal activity. The aim of the study is to review current methods for estimating and combating IFF, and to identify the most effective strategies for responding to IFF. The value of the research is since IFF have a significant global dimension and are having a large impact on government revenue and spending, and they have become an increasingly important issue in the development agenda of international organizations and governments and the new reforms in Uzbekistan. In essence, the research question is to what extent can IFF be measured and how should be designed legal and institutional structures to combat IFF in a consistent manner and therefore address its various sources and routes. In addition, understanding of such flows is valuable for effective investigation process. A mixed methodology is used in this study, combining legal and institutional comparative analyses, and qualitative evaluations of data. The results indicate that IFF are multi-faceted in nature, and therefore that there must be several preventive, enforcement and asset recovery measures. The results of the study may be useful in developing public policy, drafting legislation and implementing institutional reforms aimed at fighting against IFF.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada noqonuniy moliyaviy oqimlar iqtisodiy rivojlanish, fiskal barqarorlik va qonun ustuvorligiga putur yetkazuvchi murakkab transmilliy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Bunda O‘zbekiston tajribasiga alohida e’tibor qaratiladi. Noqonuniy moliyaviy oqimlar (NMO) korrupsiya, savdoda noto‘g‘ri hisob-fakturalash, soliqliq va tijorat sohasidagi suiste’moliklar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda boshqa jinoiy faoliyat natijasida yuzaga keladi. Tadqiqotning maqsadi bunday oqimlarni o‘lchash va ularga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud yondashuvlarni baholash hamda samarali kurash mexanizmlarini taklif etishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi NMOning global miqyosda saqlanib qolayotgani, ularning davlat daromadlari va ijtimoiy xarajatlarga sezilarli ta’siri, shuningdek, xalqaro tashkilotlar hamda hukumatlar va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan so‘nggi islohot tashabbuslari doirasida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani bilan belgilanadi. Tadqiqot muammosi NMOni aniq o‘lchashning murakkabligi hamda ularning turli manbalari va kanallarini qamrab oladigan izchil huquqiy va institutsional tizimlarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, bunday oqimlarni tushunish samarali tergov jarayoni uchun juda muhimdir. Tadqiqotda huquqiy doktrinal tahlil, qiyosiy tahlil hamda xalqaro tashkilotlar, ilmiy adabiyotlar va milliy normativ-huquqiy hujjatlardan olingan ma’lumotlarning sifat jihatidan baholanishini birlashtirgan fanlararo uslubiyot qo‘llaniladi. Natijalar NMOlar ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanini va ularni bartaraf etish uchun oldini olish, huquqni qo‘llash hamda aktivlarni qaytarish choralarini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Olingan xulosalar davlat siyosatini ishlab chiqish, qonunchilikni takomillashtirish va NMOni kamaytirishga qaratilgan institutsional islohotlarda qo‘llanilishi mumkin.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются незаконные финансовые потоки как сложное транснациональное явление, подрывающее экономическое развитие, фискальную стабильность и верховенство права. Особое внимание уделяется опыту Узбекистана. НФП возникают в результате коррупции, занижения стоимости товаров в торговле, налоговых и коммерческих злоупотреблений, отмывания денег и других преступных действий. Цель исследования – оценить существующие подходы к измерению и борьбе с такими потоками и предложить эффективные механизмы борьбы с ними. Актуальность исследования определяется сохранением НФП в глобальном масштабе, их значительным влиянием на государственные доходы и социальные расходы, а также их возрастающей значимостью в международных организациях и правительствах, а также в рамках недавних реформ, проводимых в Узбекистане. Проблема исследования выражается в сложности точного измерения НФП и трудностях формирования согласованных правовых и институциональных рамок, охватывающих их различные источники и каналы. Кроме того, понимание подобных потоков имеет важное значение для эффективного процесса расследования. В исследовании используется междисциплинарная методология, сочетающая правовой доктринальный анализ, сравнительный анализ и качественную оценку данных из международных организаций, научной литературы и национальных нормативно-правовых документов. Результаты показывают, что НФП многогранны и что для их искоренения необходим многогранный подход, включающий меры по предотвращению, обеспечению соблюдения законодательства и возврату активов. Полученные выводы могут быть использованы при разработке государственной политики, совершенствовании законодательства и проведении институциональных реформ, направленных на сокращение масштабов НФП.

Key words: illicit financial flows, trade mis-invoicing, “shadow economy”, anti-money laundering, corruption, asset recovery, investigation.

Kalit so‘zlar: noqonuniy moliyaviy oqimlar, savdoda noto‘g‘ri hisob-fakturalash, yashirin iqtisodiyot, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, korrupsiya, aktivlarni qaytarish, tergov.

Ключевые слова: незаконные финансовые потоки, торговые искажения счетов-фактур, теневая экономика, противодействие отмыванию денег, коррупция, возврат активов, следствие.



1. Introduction

In broad terms, illicit financial flows (IFFs) refer to money generated, moved or spent illegally across borders, usually as a result of illegal activity. For example, IFFs can be derived from and enable a range of illicit behaviors such as bribery, corruption, tax evasion, human trafficking, terrorism funding and drug trafficking¹.

Developing countries lose an estimated \$1.26 trillion each year to corruption, bribery, theft, tax evasion and other forms of illicit outflows². Globally, it is estimated that the annual loss to corruption and illicit finance amounts to approximately \$2.6 trillion, which represents approximately 5% of world GDP³. Countries experiencing large IFFs also spend much less than other countries on basic necessities such as health and education⁴. As such, IFFs "impede economic growth, th-

reaten financial stability, and imperil safety"⁵, all of which are international objectives. The Sustainable Development Goals of the UN identify a goal (SDG 16.4) to "significantly reduce IFFs" by 2030⁶. Hence, governments, international organizations and civil society have developed numerous approaches to limit IFFs since the last decade⁷.

A primary area of debate has to do with the breadth of the IFF definition. A research has defined IFFs to include only illegal activities across international borders⁸. Those who favor a more expansive definition of IFFs believe these flows are abusive and damaging⁹. Yet despite greater attention, IFFs remain difficult to measure and combat, as criminals and corrupt actors continually exploit gaps in the global financial system. The broad literature on IFFs¹⁰ include measuring¹¹ it and combating¹².

1 Kahler, M., Forstater, M., Findley, M. G., Vittori, J., Westenberg, E., & Fanusie, Yaya J. (2018). Expanding Agenda, Fragmented Governance. In *Global Governance to Combat Illicit Financial Flows* (pp. 1–11). Council on Foreign Relations; JSTOR. <https://doi.org/10.2307/resrep21429.3>

2 Fuest, C., Hugger, F. and Neumeier, F. (2021). Corporate Profit Shifting and the Role of Tax Havens: Evidence from German Country-By-Country Reporting Data, CESifo Working Paper Series 8838, https://ideas.repec.org/p/ces/ceswps/_8838.html

3 United Nations. (2018, September 10). Secretary-General calls for stronger action against corruption, illicit financial flows, as Security Council debates link to conflict.

4 First-ever official data on illicit financial flows now available | UNCTAD. (2023, June 8). [unctad.org. https://unctad.org/news/first-ever-official-data-illicit-financial-flows-now-available](https://unctad.org/news/first-ever-official-data-illicit-financial-flows-now-available)

5 Olaoye, O. O., Tabash, M. I., Abdulaziz Saleh Al-Faryan, M., & Ray, S. (2025). Analysing the Effects of Illicit Financial Flows on Sustainable Development: an Insight from Sub-Saharan Africa. *International Journal of Public Administration*, 48(16), 1087–1100. <https://doi.org/10.1080/01900692.2024.2449058>

6 Bromley, M., Caparini, M., & Malaret, A. (2019). Improving the Assessment of Sustainable Development Goal 16. Stockholm International Peace Research Institute; JSTOR. <https://doi.org/10.2307/resrep24428>; First-ever official data on illicit financial flows now available | UNCTAD. (2023, June 8). [unctad.org. https://unctad.org/news/first-ever-official-data-illicit-financial-flows-now-available](https://unctad.org/news/first-ever-official-data-illicit-financial-flows-now-available)

7 Findley, M. G., Kahler, M., Forstater, M., Vittori, J., Westenberg, E., & Fanusie, Yaya J. (2018). Evaluation Strategies for Global and National Measures Against Illicit Financial Flows. In *Global Governance to Combat Illicit Financial Flows* (pp. 30–37). Council on Foreign Relations; JSTOR. <https://doi.org/10.2307/resrep21429.5>

8 Collin, M. (2020). Illicit Financial Flows: Concepts, Measurement, and Evidence. *The World Bank Research Observer*, Volume 35, Issue 1, February 2020, Pages 44–86, <https://doi.org/10.1093/wbro/lkz007>

Tananing boshga yaqin joylashgan qismlari odatda yolg‘on ma’lumot berishi va simulyatsiya qilingan emotsiyalarni ifodalashi mumkin, chunki ularni ongli ravishda nazorat qilish osonroq. Boshdan uzoqda joylashgan tananing qismlari esa odatda haqiqiy emotsiyalar va munosabatlarni ifodalaydi¹². Biroq tergovchi passiv yolg‘on bosqichida shaxs boshqalarning ta’siriga, shu jumladan,

ijobiy ta’sirga ham moyil bo‘lishi mumkinligini hisobga olishi kerak. Bunda tergovchi tomonidan tana holatini majburiy o‘zgartirish sharoitlarini yaratish (masalan, stulni boshqa joyga qo‘yib berish yoki boshqa joyga o‘tirishni taklif qilish) va bir vaqtning o‘zida salbiy pozitsiyasining noto‘g‘ri ekanligiga ishontirish insonning faol yolg‘onga o‘tish istagini to‘xtatishi mumkin. Boshni oldinga burish, qo‘llarni ochish va mudofaa pozitsiyalaridan uzoqlashish odam olingan ma’lumotni ko‘rib chiqayotganini ko‘rsatadi. Biroq agar kishi boshini soyaga egib qo‘ysa yoki so‘roq qilinayotgan odamdan teskari tomonga burilsa, tanasi tarang bo‘lsa, unda inkor va yolg‘on gapirish istagi paydo bo‘lishda davom etadi. Barmoqlarda o‘tkir burchak ostida bir-biriga yaqinlashadigan ikkita to‘g‘ri chiziqni tashkil etuvchi qo‘llar uning o‘z pozitsiyasiga ishonchli ekanligini va muayyan qarorga kelganidan dalolat beradi¹³.

Demak, tergovchi tergov harakatlariga kirishishga shoshilmasdan, guvoh yoki jabrlanuvchining tana holatiga qarab ham uning tergovga munosabatini bilib olishi va shunga qarab holatga mos taktika tanlashi kerak. Himoyaga psixologik tayyorlik imo-ishoralarda ham namoyon bo‘ladi. Masalan, qo‘llarini ko‘kragida chalkashtirish, barmoqlarining kesishishi. Himoya imo-ishoralari ko‘pincha odam biror narsa, qalam, qog‘oz, sigaretani olganda yoki kiyimining aksessuarlariga, ya’ni galstuk, soat, sharf yoki sumkasiga bir vaqtning o‘zida ikkala qo‘l bilan tegishida ko‘zga tashlanadi¹⁴.

Inson imo-ishoralari yolg‘on gapirishning eng sezilarli belgilaridan biridir. Psixo-

9 Гарькавец С.А. Психология невербального общения. //https://www.researchgate.net/publication/371138845_Psihologia_neverbnalnogo_obsenia_pdf/111460 (электрон манбага murojaat qilingan sana: 01.12.2022 й.)

10 Карнаухова О.Г. Тактика преодоления противодействия расследованию со стороны свидетелей и потерпевших. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.12 – Санкт-Петербург, 2015 г. – С.152.

11 https://slavru.syktu.ru/lesson/34111460 (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 13.12.2022-y.)

12 https://creativity.ua/useful-materials/111460 (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 13.12.2022-y.)

13 Карнаухова О.Г. Тактика преодоления противодействия расследованию со стороны свидетелей и потерпевших. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.12 – Санкт-Петербург, 2015 г. – С.153.

14 http://www.zakonnadoroge.ru/111460 (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 02.01.2023 й.)



loglar imo-ishoralarni uchta asosiy guruhga ajratadilar:

1. Illyustrativ harakatlar (aytilayotgan narsani tushuntiruvchi harakatlar). Masalan, inson qandaydir obyektning joylashuvini tushuntirayotganda yo'nalishni ko'rsatishi;

2. Emblematik imo-ishoralar (shubha, ishonchsizlikni ifoda etuvchi harakatlar);

3. Manipulyativ imo-ishoralar (tana a'zolarini ishqalash va qashish, kiyim elementlariga tegish)¹⁵.

Olimlar tadqiqotlar davomida noto'g'ri so'zlarni aytganda odam juda kam tasviriyl imo-ishoralardan foydalanishini, lekin ko'pincha ramziy va manipulyatsiyali imo-ishoralarni ishlatishini payqashdi. Yosh bola yolg'on gapirgach og'zini qo'llari bilan to'liq yopadi. Katta yoshdagi kishi o'zini nazorat qilar ekan, bu harakatni o'rtasidan uzib qo'yadi, ammo qo'li allaqachon ko'tarilgan bo'ladi, natijada qo'lni boshning o'zga qismiga olib borishdan boshqa yo'li qolmaydi. Ko'zni ishqalash ishorasi – g'irt yolg'on ishlatayotganda erkaklar ko'zlari olib qochish va ishqalashga, ayollar esa ko'zga ohista barmoq tegizib ko'z ostidagi sohani ishqalashga moyil bo'ladilar. Bu ishoraga qisilgan tishlar va soxta tabassum qo'shilishi mumkin. Yoqani ko'tarish (tor-tish) ishorasini A.Piz D.Morrisning tadqiqotlariga asoslanib, yuz va bo'yinning sezgir to'qimalarida yolg'on gapirayotganda ter chiqishi tufayli yuzaga keladigan yengil qichinish bilan bog'laydi. Bu harakatlarga ayniqsa e'tiborli bo'lish kerak, chunki agar ular keskin va kuchli bajarilsa, guvoh yoki jabrlanuvchida yurak xuruji boshlanganidan dalolat berishi mumkin¹⁶.

Samimiy his-tuyg'ular yuzda 5 soniyadan ko'proq vaqt davomida paydo bo'ladi va soxta narsalarga qaraganda tezroq o'zgaradi. Mimikalarni 10 soniyadan ko'proq ushlab turish soxta bo'lishi mumkin¹⁷.

Shuningdek, so'zlovchining nigohini tahlil qilishda yuz ifodalarining almashinish vaqtiga e'tibor berish kerak. Yolg'on gapirgan odam suhbatdoshining ko'ziga suhbat vaqtining uchdan biridan kamrog'iga qaraydi¹⁸.

Shu bilan birga, u ko'z qorachiqklarining kichrayishi, yuzning qizarishi va tez-tez qovoq qoqish kabi jismoniy belgilarni nazorat qila olmaydi. Samimiylikni imitatsiya qilish uchun yolg'onchi tergovchining ko'ziga to'g'ri qaraydi, ammo o'z pozitsiyasiga ishonchsizlik holatida insonning ko'z qorachiqklari kengayadi, ko'rish biroz "noaniqlashadi" va bir lahzaga fazoda yo'nalishni yo'qotadi. Shu paytda yolg'onchiga ruchka yoki qalam uzatilganda, uning ko'rish doirasida predmetning kutilmaganda paydo bo'lishidan cho'chishini kuzatish mumkin.

Soxta tabassum yolg'on niyatlarni yashirish va tergovchining hushyorligini zaiflashtirish uchun mo'ljallangan. Bunday tabassum samimiy tabassumdan ko'ra ko'proq assimetrikdir. Qoshlarning biroz tushishi, ko'z atrofidagi ajinlar va ko'tarilgan yonoqlar samimiy tabassumga xosdir. Soxta tabassum faqat yuzning pastki qismidagi mushaklardan foydalanadi va o'z vaqtida yo'qoladi¹⁹.

Kattalar nutqi paytida og'iz yoki bu-run yaqinidagi qo'l psixologlar tomonidan yolg'on oqimini yopish istagi sifatida talqin etiladi.

15 Xakimova I. M., Rasuleva N. Z. Jinoyatchi shaxsining verbal va noverbal psixodagnostikasi va uni o'rganish metodikasi: O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015-yil, 43-bet

16 Экман П. Обмани меня, если сможешь. СПб и др.: Питер, 2012 г. – С. 45.

17 Брагина Е., Зайцев С., Егоров И., Ильченко Л. Разработка общей структуры алгоритмического обеспечения сбора и анализа данных для оценки эмоциональной экспрессии при биометрической аутентификации субъектов // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Управление, вычислительная техника и информатика. 2018 г., № 1, – С. 37-48. DOI: <https://doi.org/10.24143/2072-9502-2018-1-37-48> (электрон манбага мурожаат қилинган сана: 10.03.2023 й.)

18 <https://studizba.com/lectures/psihologiya/111460> (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 10.03.2023 й.)

19 <https://www.norton.com/books/Telling-Lies/111460> (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.03.2023-y.)



Odatda guvoh yoki jabrlanuvchida tergov vaqtida bosim bo‘lgani bois to‘g‘risini aytaymi yoki aytmaymi degan o‘y mavjud bo‘ladi. Bir tomondan, yolg‘on ko‘rsatuv berishining sababi, boshqa tomondan, vijdon amri o‘rtasida qarama-qarshi istak bilan bog‘liq psixologik noqulaylik holatida bo‘ladi. Insonning ishonchsiz holati tasodifiy narsalarni manipulyatsiya qilish yoki kiyimning tasodifiy qismlariga teginish kabi harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkin²⁰.

Guvoh yoki jabrlanuvchining yuz ifodalari va tana harakatlarining ko‘rsatuvlari mazmuniga nisbatan nomutanosibligi yolg‘onni ko‘rsatuvchi eng muhim belgilardan biri hisoblanadi. Aytilgan so‘zlar orqali ifodalanagan tuyg‘ulardan (masalan, nafrat, mensimaslik, g‘azab) bir necha soniya o‘tib yuzda bu tuyg‘ularning aks etishi yolg‘on belgisi hisoblanadi²¹.

Insonning nutqi nafaqat semantik yukni, balki insonning psixologik holatini va kayfiyatini ham ko‘rsatadi. Shaxs haqida og‘zaki bo‘lmagan ma‘lumot manbalaridan tashqari nutq tuzilishini tahlil qilish kerak. Nutq tempining, hajmining, ohangining o‘zgarishi, nutq xatolari, pauzalar, tilning sirpanishi, imo-ishora faolligining kuchayishi nutqdagi mumkin bo‘lgan yolg‘onning og‘zaki belgilaridir²².

Pol Ekmaning ta’kidlashicha, agar ovoz balandligi nihoyatda zaif yoki baland ohangga aylansa, yolg‘on gapirish hodisasi haqida gapirish mumkin. Agar yolg‘on gapirishdan maqsad qo‘rquv yoki g‘azabni yashirish bo‘lsa, ovoz balandroq va yuqori bo‘ladi va nutq tezroq bo‘lishi mumkin. Ovozda

to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi o‘zgarishlar yolg‘onchi yashirmoqchi bo‘lgan qayg‘u tuyg‘usini ochib berishi mumkin²³.

Ma’lumki, ko‘zlar nafaqat “dunyoga qaragan deraza”, balki “qalb oynasi” hamdir, ya’ni ular insondagi ichki ruhiy jarayonlarni ko‘rsatadi²⁴.

A.Dereviskiy o‘zining “Galaktik ensiklopediya” asarida qo‘llar haqida shunday qayd etadi: “qo‘llar shunchalik so‘zamol a’zolar-dirki, ba’zan insonga tilning nima keragi bor deb o‘ylaysan kishi”²⁵.

Imo-ishoralar tili eng katta axborot berish imkoniga ega bo‘lib, 25 yil mobaynida 25 millionga yaqin guvohlik ko‘rsatuvlarini yozib olgan A.Brasserning fikricha, guvoh haqqoniyligining asosiy ko‘rsatkichlari uning ko‘zlari va qo‘llaridir. “Inson har narsani aytishi mumkin. Ammo ko‘z va qo‘llari uni albatta fosh etadi. Qo‘llar hech narsani yashira olmaydi va ko‘zlarga qaraganda ko‘proq narsani aytib beradi” deb hisoblaydi u²⁶.

Shu o‘rinda kommunikatsiya psixologiyasi sohasida tanilgan amerikalik psixolog Albert Mehrabian tomonidan o‘tkazilgan eksperimentlar diqqatga sazovor bo‘lib, u o‘zining 1971-yilda nashr etilgan “Silent Messages” nomli asarida yolg‘on gapirayotgan odam rost gapirgandagiga qaraganda ko‘proq nutqiy xatolarga yo‘l qo‘yishi, imilab gapirishi, ko‘proq jilmayishi, kamroq bosh iring‘ashi, kamroq imo-ishoralar ishlatishi va oyoqlari bilan kamroq harakat qilishini, shuningdek, insonning tinglovchi tomonga kamroq qarashi, erkin harakat qilmasligi, o‘zini bemalol sezmasligi, umuman, pastroq

20 <https://thegirl.ru/articles/yazyk-tela-pozy-kotorye> (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 08.04.2023-y.)

21 <https://studfile.net/preview/7082491/page:12/> (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 08.04.2023-y.)

22 <https://mgri.ru/media/> (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.03.2023-y.)

23 Экман П. Обмани меня, если сможешь. – С. 42.

24 Xakimova I.M., Rasuleva N.Z. Jinoyatchi shaxsining verbal va noverbal psixodagnostikasi va uni o‘rganish metodikasi: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015-yil, 36-bet

25 <https://litresp.ru/chitat/ru/> (elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.03.2023-y.)

26 Анисимова Н.Н. Особенности визуальной психодиагностики личности террориста. обнаружение криминального искажения информации. Учебное пособие Домодедово, 2007 г. – С. 276.



ohangda gapirishi, gapirayotganida ko'proq tanaffus (pauza qilishi) va savollarga bergan javoblari qisqaroq bo'lishi uning yolg'on gapirayotganidan dalolat berishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan²⁷.

Shunday qilib guvoh yoki jabrlanuvchini kuzatish jarayonida bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi mumkinligini aniqlash uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

mulohazaning har bir daqiqasida tananing alohida qismlariga (qo'llar, oyoqlar, bosh) va yuz ifodalariga (ko'zlar, qoshlar, lablar) e'tibor berish lozim;

hissiyotlari va fikrlarining tashqi ifodalarnishini ko'rsatuvchi barcha belgilarini o'zaro solishtirish orqali baholash kerak;

shubhali belgilar namoyon bo'lganida, ularni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish kerak;

namoyon bo'lgan yolg'onni ifodalovchi belgilarni bir yoqlama talqin qilishdan qochish zarur;

namoyon bo'layotgan belgilarga ko'ra guvoh yoki jabrlanuvchi yolg'on ko'rsatuv bermoqda deb aniq xulosa chiqarmaslik kerak, ushbu belgilar asosida taktik yo'l orqali isbotlash lozim.

Shuni unutmaslik lozimki, guvoh yoki jabrlanuvchini kuzatish natijasida aniqlangan ko'rsatuvlarining yolg'on ekanligini ko'rsatuvchi tashqi ko'rinish belgilarini faqatgina unga alohida e'tibor berib, ko'rsatuvlaridagi ma'lumotlarni qo'shimcha tekshirib, yolg'on ko'rsatuv berayotganligini tergov yo'li bilan fosh etish zarurligi haqida ogohlantirish sifatida qabul qilish kerak.

Bizningcha, tergovchi guvoh yoki jabrlanuvchini kuzatish orqali yolg'on ko'rsatuv berishi mumkinligini yoki ko'rsatuv berayotganligini aniqlay olmasa, jinoyat ishida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni solishtirish orqali aniqlashi zarur bo'ladi.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlari

tahlili va amaliy tajribamizdan kelib chiqib, tergovchi so'roq qilish tergov harakatini o'tkazish davomida guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan qasddan bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishining oldini olish va ularni o'z vaqtida aniqlash uchun quyidagi holatlarga e'tibor qaratishi lozim:

jinoyat ishi materiallarini o'rganish va taqqoslash;

so'roq jarayonida ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash;

guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuvlaridagi ma'lumotlarni boshqa tergov harakatlari o'tkazish orqali solishtirish.

Endilikda yuqoridagilarni birma-bir ko'rib chiqsak.

I. Jinoyat ishi materiallarini o'rganish va taqqoslash

Guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuvlarida quyidagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda jinoyat ishi materiallarini o'rganish va taqqoslash orqali ularni yolg'on ekanligini aniqlash mumkin.

1. Guvoh yoki jabrlanuvchilarning bergan ko'rsatuvlarining jinoyat ishida mavjud bo'lgan boshqa dalillar mazmuniga zid kelishi. Bunda guvoh yoki jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlaridagi ma'lumotlar boshqa tergov harakatlari davomida olingan ma'lumotlar bilan nomuvofiqligi yoki boshqa protsess ishtirokchilarining ko'rsatuvlarida shunga o'xshash ma'lumotlarning mavjud emasligi oydinlashadi.

2. Guvoh yoki jabrlanuvchilar ko'rsatuvlarining tezkor-qidiruv faoliyati natijalariga zid kelishi. Ma'lumki, qonunda ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari JPKga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'ng dalillar sifatida e'tirof etilishi mumkin²⁸. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalari jinoyatlarni tergov qilishda, ay-

27 Mehrabian, A. Silent Messages. Belmont, CA: Wadsworth, 1971. p 58

28 O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi 344-sonli qonuni



niqsa, bila turib berilgan yolg‘on ko‘rsatuvlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Odatda daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan, lekin guvoh yoki jabrlanuvchilar yashirgan, ammo tezkor xodimlar tomonidan aniqlangan ma‘lumotlar ularni yolg‘on ko‘rsatuv berishga undagan sabablarni aniqlashga va yolg‘onni fosh etishga yordam berishi mumkin.

3. Guvoh (jabrlanuvchi) tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarning ushbu ma‘lumotlarni olishning real (subyektiv va obyektiv) imkoniyatlariga mos kelmasligi. Guvoh yoki jabrlanuvchi jismoniy yoki ruhiy nosog‘lomligi tufayli jinoyatni yetarlicha idrok eta olmagani sababli yoki ob-havo sharoiti yoxud shaxsiy fazilatlar tufayli tergovchiga yolg‘on ko‘rsatuv bergan bo‘lishi mumkin. Bunday holda ushbu ko‘rsatuvlar bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish tarzida baholanishi mumkin emas. Biroq kelgusi tergov harakatlari jaryonida daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha faktlarni batafsil tekshirish va aniqlashtirish uchun asos bo‘lishi kerak.

4. Guvoh yoki jabrlanuvchilar tomonidan barcha so‘roqlarda ishga doir faktlarning so‘zma-so‘z, bir xil tarzda, xuddi yodlab olingandek tasvirlanishi, kichik ma‘lumotlarning mos kelishi. Bunday holatlarning aniqlanishi ularning ko‘rsatuvlari haqqoniyligini tekshirish zaruriyatini taqozo etadi. Chunki har bir kishi bir xil jinoyatni o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va o‘zi uchun muhim va ahamiyatli bo‘lib tuyulgan tafsilotlarni eslab qoladi. Bir nechta guvoh yoki jabrlanuvchilar til biriktirib, bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishgandagina barchasi tergovchiga bir xil nutq uslubida, hatto kichik detallarigacha bir xil tarzda ko‘rsatuv berishadi.

5. Guvoh yoki jabrlanuvchi qo‘shimcha so‘roq qilinganida birinchi so‘roqda bergan ko‘rsatuvlariga nomutanosib ko‘rsatuv berishi. Guvoh yoki jabrlanuvchining bir holat bo‘yicha har safar boshqacha tarzda ko‘rsatuv berishi ko‘rsatuvlarning haqqoniyligiga shubha tug‘diradi. Bunday holatlar ish

natijasidan manfaatdor shaxslarning guvoh yoki jabrlanuvchiga dastlabki ko‘rsatuvini haqiqatdan yolg‘onga o‘zgartirishi uchun turli yo‘llar bilan ta‘sir qilganlik holatini tekshirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

6. Guvoh yoki jabrlanuvchining ko‘rsatuvlarida boshqalarning ko‘rsatuvlari bilan jiddiy qarama-qarshiliklar mavjudligi. Bitta so‘roq bayonnomasida yoki bir shaxsning qo‘shimcha so‘roq bayonnomalari qarama-qarshiliklarning aniqlanishi ko‘rsatuvning mantiqiy emasligi yoki nomuvofiqligi sabablarini oydinlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu holatda bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishga qaratilgan sabablar bo‘lishi mumkin.

7. Berilgan ko‘rsatuvning mavhumligi yoki ko‘rsatuvlarida ayrim holatlarni yoritishdan bosh tortishi. Guvoh yoki jabrlanuvchining to‘g‘ri ko‘rsatuv berishni istamasligi uning noaniqligi va oddiyligida ifodalanishi mumkin. Guvoh yoki jabrlanuvchi ko‘rsatuv berayotganiga qaramay, unda ish uchun ahamiyatli ma‘lumotlarning mavjud emasligi, tergovchini so‘roq qilinuvcigaga aniq ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlarni yashirayotganligi yoki mohiyatini buzib ko‘rsatayotganligi sabablari to‘g‘risida savol qo‘yishga majbur qiladi.

8. Ko‘rsatuvlarda faqat eslab qolish va takrorlashga oson bo‘lgan muayyan qolipga solingan ma‘lumotlarni berish bilan cheklanish. Guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan oldindan tayyorlangan va o‘ylangan yolg‘on ko‘rsatuvlar odatda tekshirilayotgan jinoyat holatlarini ozgina his-hayajon bilan sxematik ravishda bayon qilish shaklida bo‘ladi. Inson uchun sodda, aniq gaplar va iboralarni yodda saqlash va qayta takrorlash osonroq. O‘z ko‘rsatuvlarida adashishdan qo‘rqqan guvoh yoki jabrlanuvchi o‘z hikoyasini qisqa gaplardan tuzishga va kerakli minimal ma‘lumotni berishga majbur bo‘ladi.

9. Guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan berilgan ko‘rsatuvlarda ijtimoiy mavqeyiga, ma‘lumotiga mos kelmaydigan, mazmunini



o'zlari anglab yetmaydigan (tushunmaydigan) jumalardan foydalanilishi. Aksariyat hollarda guvoh yoki jabrlanuvchi bila turib yolg'on ko'rsatuv berishga tayyorlansa, uning nutqi o'zi tomonidan emas, balki tergovga qarshi chiqishdan manfaatdor shaxs tomonidan tayyorlanadi. Bunday holda hikoyaning ma'nosi, undagi iboralar o'sha odamga xos bo'lgan tarzda tuzilmasligi mumkin. Masalan, to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan va ishchi mutaxassisligiga ega insonning to'liq, go'zal ifoda qilingan, frazeologik aytimlarga boy va rang-barang tasvirlardan foydalanib gapirishi dargumon.

10. Ko'rsatuvlarida ayrim holatlarni yoritishdan bosh tortishi. Bunday vaziyat guvoh yoki jabrlanuvchiga nisbatan manfaatdor tomonlardan turli tazyiqlar bo'layotganligi, o'zining foydasini ko'zlayotganligi yoki achinish, yon bosish, moddiy manfaatdorlik yoxud manfaatdor tomon bilan qandaydir yaqin aloqasi mavjudligidan dalolat berishi mumkin.

II. So'roq jarayonida ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash

Guvohlar va jabrlanuvchilar asosan so'roq vaqtida bila turib yolg'on ko'rsatuv berishadi. Bundan tashqari, so'roq yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish, eksperiment va boshqa tergov harakatlaridan oldin o'tkaziladi. Shuning uchun so'roq jarayonida so'roq qilinuvchi tomonidan berilgan ma'lumotni tahlil qilish va solishtirish guvohlar va jabrlanuvchilarning oldindan yolg'on gapirganini aniqlashning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Bilamizki, nutqning tuzilishi har bir shaxs uchun individualdir. Biroq guvoh yoki jabrlanuvchi nutqining muayyan belgilari va tahlili ularning ko'rsatuvlari haqqoniyligiga shubha tug'dirishi mumkin. Bizningcha, guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuvlari to'g'riligini tekshirish uchun quyidagilar asos bo'ladi.

1. So'roq paytida tergovchiga berilgan ma'lumotlarning noaniqligi va mavhumligi. Ko'rsatuvning ushbu versiyasi jinoyat voqealarining aniq holatini bilmaslik va tergovchi tomonidan ishning mohiyati bo'yicha qo'yilgan savollarga har qanday vaziyatga mos keladigan umumiy iboralar bilan javob berish istagi bilan izohlanadi.

2. Tergovchi tomonidan berilgan aniq savollarga javob berishdan qochish, berilgan savolni takrorlash va tergovchida savol noaniq degan taassurot uyg'otishga urinish. Bunday xatti-harakat ularga savol uchun beriladigan javob haqida o'ylab olish va yolg'onning yangi versiyasini tuzish uchun o'ziga qo'shimcha vaqtga ega bo'lish imkonini beradi.

3. Bergan ko'rsatuvlarida hodisalar va faktlarni tavsiflovchi tafsilotlarning yo'qligi. Bila turib yolg'on ko'rsatuv berishni rejalashtirgan guvoh yoki jabrlanuvchi yolg'on ko'rsatuvni shakllantirayotganida "tilidan ilinib qolmaslik" uchun o'z hikoyasiga kichik tafsilotlarni kiritishdan qo'rqadi va ahamiyatsiz mayda-chuydalarni bildirishni zarur deb hisoblamaydi. Holbuki, so'roqda rost gapirayotgan shaxs o'z hikoyasini ixtiyorsiz ravishda ahamiyatsiz qo'shimcha tushuntirishlar bilan to'ldirib boradi.

4. So'roq paytida muayyan so'z yoki jumalani qayta-qayta va o'rinsiz ravishda takrorlash. Xuddi shu gaplar so'roq qiluvchiga ta'sir qilish uchun takrorlanadi. Ushbu jarayon "Noo'rin shubha" nomli hind filmida yorqin ko'rsatib berilgan. Chunki so'roq qilinuvchi tomonidan bir so'z takror-takror aytilaverganidan keyin ushbu yolg'onga tergovchining o'zi ham ishonib qoladi.

5. Guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan so'roqning turli bosqichlarida bir xil faktlarni so'zma-so'z aniqlik bilan tasvirlash. Bu yolg'on ko'rsatuvni yodlab olganligini ko'rsatishi mumkin.

6. So'roq qilish davomida o'zi anglamagan holatda jinoyat ishidagi mavjud dalillarga mutanosib bo'lgan ko'rsatuvlarni berishi va bun-



ga qattiq norozilik munosabatini bildirishi.

7. Ko‘rsatuvlarda his-tuyg‘ularni ifoda etuvchi so‘zlar va iboralarning haddan tashqari ko‘pligi yoki ularning umuman yo‘qligi, nutq tuzilishida tashqi kuzatuvchi pozitsiyasining namoyon bo‘lishi. Misol uchun, “odamlar shunday deyishyapti”, “qo‘shnilari ko‘rganligini aytyapti” kabi ifodalarning mavjudligi.

8. Haddan tashqari o‘zining pokligi va halolligini ta’kidlab, ish natijalaridan umuman manfaatdor emasligi haqida ko‘p bora gapirishi.

III. Guvoh yoki jabrlanuvchining ko‘rsatuvlaridagi ma’lumotlarni boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish orqali solishtirish

Agar tergovchi guvoh yoki jabrlanuv-

chining tana harakatlarini kuzatish davomida yolg‘on ko‘rsatuv berishi mumkinligini payqamagan yoki xulq-atvorida noodatiylikni sezmagani taqdirda, ular tomonidan ko‘rsatuvida taqdim etilgan ma’lumotlarni boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish orqali solishtirish yo‘li bilan tekshirib ko‘rishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mazkur taklif va tavsiyalarimiz sud-tergov organlari amaliyotida guvohlarning bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishlari bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tergov harakatlarining to‘g‘ri tashkil etilishiga, shuningdek, aybsiz shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortilishining, aksincha, aybdor shaxslarni jinoiy ta’qibdan qutulib qolishining hamda ishning boshqacha tarzda noxolis hal etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

#



Fazliddin ZARIPOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA ADVOKAT STAJYORINING ISHTIROKI VA UNING STAJIROVKASINI TASHKIL ETISH TARTIBI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada advokat stajyorining dastlabki tergov bosqichida ishtiroki, stajirovka maqsadi va tashkil etilish tartibi nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama tahlil etilgan. Avvalo advokat stajyorining huquqiy maqomi, uning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi o'рни hamda stajirovka institutining advokatura tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, milliy qonunchilik normalari xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, mavjud ijobiy yondashuvlar va ularni O'zbekiston huquqiy tizimiga joriy qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida stajirovka jarayonining turli modellari o'rganilib, ularning afzalliklari hamda milliy huquqiy tizimga mos keluvchi jihatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, stajirovka jarayonida uchraydigan muammolar amaliy misollar asosida tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проанализировано участие адвоката-стажёра на стадии предварительного расследования, цели стажировки, и порядка организации стажировки адвоката-стажёра. В первую очередь раскрыт правовой статус адвоката-стажёра, его роль в процессе профессиональной подготовки, а также значение института стажировки в системе адвокатуры. Кроме того, нормы национального законодательства сопоставлены с опытом зарубежных стран, рассмотрены положительные подходы, существующие в иностранной практике, и возможности их внедрения в правовую систему Узбекистана. В статье на основе зарубежного опыта изучены различные модели прохождения стажировки, указаны их преимущества и аспекты, соответствующие национальной правовой системе. Также проанализированы практические проблемы, возникающие в процессе стажировки, и на основе конкретных примеров предложены научно обоснованные рекомендации и предложения по их устранению.

ABSTRACT. This article analyzes the participation of an advocate trainee at the stage of preliminary investigation, the objectives of the internship and organizational procedures of legal internship for trainee lawyers. Firstly, it highlights the legal status of the trainee lawyer, their role in the process of professional training, and the significance of the internship institution within the legal profession. Additionally, national legislative norms are compared with the experience of foreign countries, examining existing positive approaches and the possibilities of incorporating them into Uzbekistan's legal system. The article explores various models of legal internship based on international practices, outlining their advantages and aspects that are compatible with the national legal framework. Furthermore, practical challenges encountered during the internship process are analyzed using real-life examples, and scientifically grounded proposals and recommendations are put forward for addressing these issues.

Kalit so'zlar: advokat stajyori, stajirovka tartibi, huquqiy tartibga solish, milliy advokatura qonunchiligi, xorijiy tajriba, amaliy tahlil.

Ключевые слова: адвокат-стажёр, порядок стажировки, правовое регулирование, национальное законодательство об адвокатуре, зарубежный опыт, практический анализ.

Key words: trainee lawyer, internship procedure, legal regulation, national legislation on the legal profession, foreign experience, practical analysis.

Advokatura institutining barqaror va samarali faoliyati eng avvalo yuqori malakaga ega, kasbiy mahorati va axloqiy sifatleri mukammal bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonning dastlabki bosqichi sifatida advokat stajyorining stajirovka o'tashi alohida o'rin tutadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqda-ki, advokatlik kasbiga kirishishdan avval nazariy bilimlarni mustahkamlash, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va amaliy malakani shakllantirish bevosita stajyorlik institutining faoliyati orqali ta'minlanadi.

Shu sababli stajirovkaning huquqiy asosla-

ri, uni tashkil etish tartibi hamda davomiyligiga doir masalalarni nafaqat ilmiy-nazariy, balki normativ-huquqiy nuqtayi nazardan ham atroflicha tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi amaliyotda advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxslarning stajirovka o'tash jarayoni ko'p hollarda yetarlicha samarali emas, ayrim vaziyatlarda esa bu talab faqat rasmiyatchilik darajasida bajarilayotganligi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida advokat stajyorlarining stajirovka o'tash tartibi, uning davomiyligi hamda ushbu jara-



yonda ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari asosan qonunosti hujjatlari orqali tartibga solinadi. Xususan, Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan nizomlarda advokat stajyori faoliyati va uni o‘tash tartibi belgilangan bo‘lib, unda amaliy faoliyatda bevosita qatnashish jarayonlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. Shu bilan birga, mavjud tartiblarning zamonaviy talablarga mos ravishda to‘liq baholanmaganligi ayrim amaliy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda advokat stajyorlarining stajirovka o‘tash tartibi, uning davomiyligi hamda ushbu jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari hamda yakuniy natijalarini baholash mezonlari bevosita maxsus qonunlar yoki alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday huquqiy yondashuv stajyorlik institutining kasbiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini kuchaytiribgina qolmay, balki advokatlik kasbining ijtimoiy nufuzini mustahkamlashda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada advokat stajyorining stajirovka o‘tash tartibiga oid milliy va xorijiy yondashuvlar qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi.

Shu jarayonda O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ilmiy-nazariy asosda o‘rganilib, ularni takomillashtirish zarurati yoritib beriladi. Shuningdek, xorijiy tajribani inobatga olgan holda stajyorlik institutining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar qatoriga qiyosiy-huquqiy tahlil metodi kirib, u orqali milliy va xorijiy tajribalar o‘zaro solish-

tirildi. Shuningdek, tarixiy-huquqiy metod yordamida stajirovka institutining shakllanish jarayoni va huquqiy asoslari evolyutsion nuqtayi nazardan o‘rganildi. Tizimli yondashuv metodi asosida stajirovka institutining nazariy, normativ va amaliy jihatlarini bir butun tizim sifatida tahlil qilindi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi orqali milliy qonunchilikda mavjud bo‘lgan tartib-taomillar, Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan nizomlar va amaliyotda qo‘llanilayotgan huquqiy mexanizmlar o‘rganildi.

Tadqiqot davomida advokat stajyorining stajirovka o‘tash tartibiga oid milliy tajribadan tashqari xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti ham o‘rganildi. Jumladan, Rossiya, Armaniston, Turkmaniston, Moldova hamda Qozog‘iston davlatlarining mazkur sohadagi ijobiy tajribasi tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. Advokat maqomini qo‘lga kiritishni istagan shaxs nafaqat chuqur nazariy bilimlarga, balki zarur darajadagi amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasida advokat stajyorining stajirovka jarayoni va ushbu jarayondagi faoliyati “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun¹ hamda adliya vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom² asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

“Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 81-moddasida advokat stajyorining mehnat sharoitlari qonunchilikda belgilangan tartib asosida tuziladigan mehnat shartnomasi orqali belgilanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, stajyor faoliyatini tashkil etish tartibi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlarning palatasi bilan kelishilgan holda belgilanishi qayd etilgan.

Mazkur sohani tartibga soluvchi asosiy

1 O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi 349-I-sonli qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-54503>

2 O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6951674>



me'yoriy hujjatlardan yana biri bu O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom hisoblanadi. Ushbu hujjatning 2-bobi "Stajirovkani tashkil etish" deb nomlanib, unda advokat stajyorining stajirovka jarayoniga oid huquqiy asoslar, bosqichlar va subyektlar tarkibi, stajirovka muddati, shuningdek, stajirovka rahbari bilan stajyor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tartibi batafsil yoritib berilgan.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra, advokat stajyorining stajirovka jarayonidagi faoliyati bevosita advokatlik tuzilmasida tashkil etilib, tajribali advokat – stajirovka rahbari nazorati ostida amalga oshiriladi. Stajyor o'z faoliyatini rahbar-advokat tomonidan berilgan topshiriqlar asosida olib boradi va ularning bajarilishi jarayonida zarur amaliy tajribani egallaydi. Shu bilan birga, stajyorning mustaqil ravishda advokatlik faoliyatini amalga oshirishi qat'iyan taqiqlanadi, bu esa advokatlik kasbining yuqori darajadagi mas'uliyat talab etuvchi faoliyat turi ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur tartib stajyorlik institutining mohiyat e'tibori bilan o'quv-amaliy bosqich sifatida shakllantirilganligini ko'rsatadi. Stajyorning mustaqil advokatlik faoliyatini yuritish huquqiga ega emasligi unga advokat kasbiga xos mas'uliyat va axloqiy tamoyillarni puxta o'zlashtirgandan so'nggina to'liq huquqli advokat maqomini berish prinsipiga asoslanadi. Natijada stajirovka jarayonining qat'iy nazorat ostida, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomning 17-bandida stajyorni ishga qabul qilish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra ushbu jarayon advokatlik tuzilmasi yoki hududiy boshqarma rahbari-

ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur buyruqni chiqarish uchun stajyor bilan tuzilgan mehnat shartnomasi huquqiy asos hisoblanadi hamda shu buyruq orqali stajyor uchun stajirovka rahbari tayinlanadi. Mehnat shartnomasining mavjudligi stajyorning mehnatga oid huquqiy manfaatlarini himoyalash bilan bir qatorda, kasbiy tayyorgarlik davrida mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan ijtimoiy kafolatlardan foydalanish imkoniyatini ham yaratadi. Shuningdek, mehnat shartnomasi stajyor zimmasiga yuklatiladigan vazifalar doirasini aniq huquqiy chegaralarda belgilab beradi.

Mazkur nizomga muvofiq stajyorlarning mehnatiga haq to'lash hamda ijtimoiy sug'urtalashga oid xarajatlar advokatlik tuzilmasiga tushadigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Stajyor bilan mehnat shartnomasini tuzish yoki bekor qilish jarayoni esa O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi normalariga muvofiq amalga oshiriladi. Shu bilan birga, amaldagi tartibga asosan advokatlik tuzilmasi yoki hududiy boshqarma rahbari stajyor bilan tuzilgan yoki bekor qilingan mehnat shartnomasi haqidagi buyruq nusxalarini ular rasmiylashtirilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritishi shart hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Armaniston Respublikasida advokat stajyorining huquqiy maqomi hamda uning stajirovka jarayonidagi o'rni "Advokatura to'g'risida"gi qonunning³ 23 va 24-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga, Armanistonda stajirovkani o'tash tartibi, uning shartlari va yakunlanish asoslari bevosita Armaniston Advokatlar palatasi kengashi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bunday tartib advokatura institutining o'zini o'zi boshqarish tamoyillarini mustahkamlash bilan bir qatorda, kasbga kirish jarayonida advokat-

3 https://www.legislationline.org/download/id/7436/file/Armenia_law_advocacy_2004_ru.pdf



lar palatasining vakolatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan muhim huquqiy yutuq sifatida baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasida esa advokat stajyorining faoliyati Adliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat asosida tartibga solinadi. Shu bois Armaniston tajribasi O‘zbekiston uchun qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, stajirovka jarayonini tartibga solish bo‘yicha asosiy vakolatlarni Advokatlar palatasiga berish mexanizmi advokatura tizimining o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatlarini kuchaytiradi, bu esa stajyorlik institutining sifat jihatidan rivojlanishiga va advokaturaning mustaqilligini yanada ta‘minlashga zamin yaratadi.

Xususan, Armaniston Respublikasining qonunchiligida advokat stajyoriga maxsus guvohnoma berilishi bevosita nazarda tutilgan bo‘lib, uning namunasi va berilish tartibi Armaniston Advokatlar palatasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shu jihat bilan mazkur institut stajyor shaxsining rasmiy maqomini huquqiy hujjat orqali belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasida esa advokat stajyoriga guvohnoma berish amaliyoti mavjud bo‘lishiga qaramay, ushbu hujjatning shakli, uni tasdiqlash vakolatiga ega organ hamda aniq namunasi qonunchilikda ochiq-oydin belgilab qo‘yilmagan. Bunday holat huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli Armaniston tajribasi O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, advokat stajyorining maqomini tasdiqlovchi hujjatning shakli va uni berish tartibini aniq huquqiy asoslarda belgilash zarurati paydo bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, Armaniston qonunchiligiga muvofiq advokat stajyori Advokatlar palatasi tarkibidagi tashkilotlarda yoki yakka tartibda faoliyat yurituvchi advokatlar huzu-

rida mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib borishi shart etib belgilangan. Qayd etish joizki, mehnat shartnomasining tuzilishi stajyor uchun mehnat qonunchiligi doirasidagi kafolatlardan foydalanish imkonini yaratadi hamda stajirovka jarayonining huquqiy asosda tashkil etilishini ta‘minlaydi. Ushbu yondashuv mazmunan O‘zbekiston qonunchiligi bilan muayyan darajada o‘xshashlikka ega bo‘lsa-da, ayrim jihatlarida yanada takomillashtirishni talab etadi.

Turkmaniston Respublikasining “Advokatlik faoliyati va advokatura to‘g‘risida”-gi qonunida⁴ advokat stajyorining stajirovka o‘tash tartibi va shartlari bevosita Turkmaniston Advokatlar konferensiyasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan. Mazkur yondashuv ushbu mamlakatda advokatura faoliyatining korporativ boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etilganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, stajirovka jarayonini tartibga solish bo‘yicha qarorlar davlat organlari ishtirokisiz, to‘laqonli ravishda professional hamjamiyat tomonidan qabul qilinishi advokatura institutining institutsional mustaqilligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Moldova Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunining⁵ 19-moddasi 3-qismida esa advokat stajyorining kasbiy stajirovkasi advokat-stajyor va advokat-ustoz o‘rtasida tuziladigan, Advokatlar ittifoqi kengashida majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladigan shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu shartnomaning Advokatlar ittifoqi kengashi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi stajirovkaning mazmuni, davomiyligi hamda tashkiliy jihatlarining markazlashgan tartibda nazorat qilinishiga imkon beradi. Bunday mexanizm stajyorlik institutining huquqiy asosda tartibga solinishi va kasbiy tayyorgarlik jarayonining institutlashtirilishida muhim huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi.

4 <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/86642/98169/F1895252782/TKM86642.pdf>

5 https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=126609&lang=r



Belarus Respublikasida advokat stajyorining faoliyati huquqiy jihatdan ancha batafsil tartibga solingan. Jumladan, "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning⁶ 10-moddasi 4-bandida stajyorning stajirovka o'tash tartibini belgilash vakolati Belarus Respublikasi Adliya vazirligiga yuklatilgan. Mazkur modelda stajyorlik jarayonining to'liq davlat organi tomonidan tartibga solinishi advokatura institutining kasbiy mustaqilligi bilan bog'liq bahslarga sabab bo'lmoqda. Chunki stajyorlik faoliyatining faqat davlat idorasining qarorlari asosida tashkil etilishi advokaturaning o'zini o'zi boshqarish prinsipi bilan muayyan ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida ushbu masalada nisbatan muvozanatli yondashuv qo'llaniladi. Garchi advokat stajyorining faoliyatini tartibga solish vakolati Adliya vazirligiga berilgan bo'lsa-da, ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Bu yondashuv professional advokatura tuzilmalari ishtirokini ta'minlab, normativ-huquqiy tartibotda hamkorlik mexanizmini yuzaga keltiradi. Belarus Respublikasida esa bunday vakolat Adliya vazirligi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi, bu esa advokatura institutining o'zini o'zi boshqarish tamoyiliga zid holatlar yuzaga kelishiga olib kelishi ehtimolini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, Belarus Respublikasida advokat stajyorining kasbiy tayyorgarlik jarayoni maxsus hujjat bilan, ya'ni Belarus Respublikasi fuqarolari tomonidan advokat bo'lish maqsadida stajirovkani o'tash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma asosida tartibga solinadi⁷. Ushbu yo'riqnoma stajirovkaning huquqiy, tashkiliy va mehnat-huquqiy jihatlarini belgilash bilan birga, advokatlik kasbiga

kirishdagi muhim bosqich sifatida stajyorlik institutining mazmunini aniqlashtiradi. Xususan, yo'riqnomaning 10-bandida stajyorning hududiy advokatlar kollegiyasiga, yuridik maslahatxonaga, advokatlik byurosiga yoki yakka tartibda faoliyat yuritayotgan advokat huzuriga stajirovka uchun yuborilishi, bunda muddatli mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinishi belgilangan. Bunday tartib stajyorlik faoliyatini rasmiy mehnat munosabatlari asosida tashkil etib, tomonlarning o'zaro huquq va majburiyatlarini aniq huquqiy asosda belgilash imkonini yaratadi.

Shu o'rinda advokat stajirovkasining mazmun-mohiyati va asosiy maqsadlarini huquqiy-nazariy jihatdan o'rganish, shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasida ushbu institut qanday maqsadlarga yo'naltirilganini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish joizki, Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomda stajirovkaning asosiy vazifasi bu stajyor tomonidan advokat maqomiga ega bo'lishga tayyorlanish va uning kasbiy bilimlarini hamda ko'nikmalarini hosil qilish ekani qayd etilgan.

Mazkur masalada tadqiqot olib borgan A.Matmurotovning fikricha⁸, advokatlik faoliyatiga kirishning dastlabki bosqichi – stajyorlik davri – advokatlik kasbiga puxta tayyorgarlik ko'rish, kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Muallif ta'kidlaganidek, advokat stajyori tomonidan stajirovka davomida egallangan nazariy bilimlar hamda amaliy tajriba, keyinchalik advokat maqomi berilgandan so'ng, himoya ostidagi shaxslarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqilsa, stajirovka faqatgina tashkiliy yoki rasmiy ja-

6 <http://www.rka.by/content/zakon-respubliki-belarus>

7 <http://www.rka.by/content/zakon-respubliki-belarus>

8 Matmurotov A.R. Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxsning stajirovka o'tash tartibini takomillashtirish masalalari // "Yuridik fanlar axborotnomasi", 2023-yil, №2, 45– 47-betlar



rayon emas, balki huquqiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan kasb egasini tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Shu boisdan ham advokat stajirovkasining asosiy maqsadini huquqiy-nazariy jihatdan tahlil etish hamda turli xorijiy davlatlar tajribasida mazkur institut qanday maqsadlar asosida tashkil etilishini ko‘rib chiqish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Belarus Respublikasida esa stajirovkaning maqsadi biroz boshqacharoq tarzda belgilangan bo‘lib, bunda stajyorlar oldiga nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash vazifasi qo‘yilgan. Xususan, stajyorlarning amaldagi qonunchilikni tahlil qilish, advokatlik faoliyati bilan bog‘liq normativ-huquqiy asoslarni puxta o‘zlashtirish hamda huquqiy axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv stajirovkaning amaliy jihatlarini ikkinchi planga surilib, ko‘proq nazariy tayyorgarlikka yo‘naltirilganligini anglatadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tajribalar bilan bir qatorda Rossiya Federatsiyasida ham mazkur institut o‘ziga xos tartibga ega. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Advokatlar federal palatasi tomonidan tasdiqlangan Advokat stajyori va stajirovka o‘tash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomning 1-bandida qayd etilishicha⁹, stajirovka advokat maqomini olishga tayyorgarlik shakli bo‘lib, stajyor tomonidan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu huquqiy ta’rif Rossiya modelida stajirovkaning asosiy maqsadi sifatida nazariya va amaliyot uyg‘unligida kasbiy malaka hosil qilishga qaratilgan yondashuvni ifodalaydi.

Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy davlatlar tajribasini, xususan, O‘zbekiston Respublikasida qabul

qilingan Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, advokatlik stajirovkasining asosiy maqsadi bu stajyorning mustaqil ravishda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chuqur kasbiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va tajribani egallashini ta’minlashdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tahlillar, olimlarning fikrlari hamda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasiga tayanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, advokat stajyorining faoliyati Adliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda emas, balki O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tomonidan tartibga solinishini nazarda tutuvchi normani “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunga kiritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ijobiy tajriba Turkmaniston va Armaniston qonunchiligida mavjud.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunida advokat stajyoriga maxsus guvohnoma berilishini bevosita nazarda tutuvchi normani mustahkamlash, shuningdek, guvohnoma namunasi va berilish tartibi O‘zbekiston Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanishini qonunda belgilash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunida advokat stajyoriga maxsus guvohnoma berilishini bevosita nazarda tutuvchi normani mustahkamlagan holda uning huquqiy maqomini belgilash, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 49-51-moddalarida nazarda tutilgan hollarda surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida ishtirokini huquqiy jihatdan belgilash, tergov harakatlardagi ishtirokini ta’minlash zarur bo‘ladi.



Bekzod RAJABOV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi, yu.f.f.d. (PhD)

TERGOV SIFATI: MOHIYAT VA NAZARIY XUSUSIYATLAR

ANNOTATSIYA. Muallif o'z maqolasida tergov sifati tushunchasiga ilk marotaba ilmiy-nazariy jihatdan ta'rif bergan. Tergov sifati tushunchasining mazmun-mohiyati, ushbu tushuncha bo'yicha nazariy asoslar tahlil qilingan, olimlarning qarashlari nazariy jihatdan o'rganilgan. Tergov sifatini baholash mezonlari, "sifatli tergov", "o'rta sifatli" va "sifatsiz tergov" kabi tushunchalarning mohiyati nazariy jihatdan ochib berilgan. Mamlakatimizda hozirgi kunda tergov sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinib, tergov sifatini oshirishga qaratilgan qator taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В своей статье автор впервые даёт научно-теоретическое определение понятию качество следствия. Анализируется содержание и сущность понятия качество следствия, теоретические основы этого понятия, а также теоретически изучаются взгляды учёных. Теоретически раскрывается сущность таких понятий, как критерии оценки качества следствия, "качественное следствие", "следствие среднего качества" и "некачественное следствие". Проанализированы меры, принимаемые в настоящее время в нашей стране для повышения качества следствия, а также выдвинут ряд предложений и рекомендаций, направленных на повышение качества следствия.

ABSTRACT. In this article, the author provides the first scientific and theoretical definition of the concept of investigation quality. The content and essence of this concept are analyzed, its theoretical foundations are examined, and the views of scholars are explored. The author theoretically reveals the core of such terms as criteria for evaluating the quality of investigation, "high-quality investigation", "medium-quality investigation", and "low-quality investigation". The article analyzes the measures currently being taken in our country to improve the quality of investigation and puts forward a number of proposals and recommendations aimed at enhancing its effectiveness.

Kalit so'zlar: tergov sifati, "sifatli tergov", "o'rta sifatli tergov" va "sifatsiz tergov", tergov sifatini baholash mezonlari.

Ключевые слова: качество следствия, "качественное следствие", "следствие среднего качества" и "некачественное следствие", критерии оценки качества следствия.

Key words: investigation quality, "high-quality investigation", "medium-quality investigation", "low-quality investigation", criteria for evaluating investigation quality.

Ma'lumki mamlakatimizda tergov sifatini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatini avvalo inson huquqlarini himoya qilishga qaratish, qonun bilan belgilangan protsessual huquqlarini amalda real ta'minlagan holda jinoyat ishlarini yuritish, aybdorligi isbotlangan har qanday shaxsning javobgarligini ta'minlash, aybi bo'lmagan shaxslar noqonuniy javobgarlikka tortilishining oldini olish kabi konstitutsiyaviy kafolatlarni ta'minlash tergov organlarining oldida turgan eng mas'uliyatli vazifadir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerak"¹.

Mamlakatimizda tergov sifatini yanada

yaxshilashga qaratilgan bir qator zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, tergov sifatini oshirish, huquq-tartibot idoralarini yangicha ishlashga o'rgata oladigan yangicha tizim yaratish borasida muayyan natijalarga erishildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi sifatida qayta tashkil etildi (2022-yil), shuningdek, akademiyaning Raqamli kriminalistika ilmiy-uslubiy markazi negizida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti (2024-yil) faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirla-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/oz/lists/view/5774>



ri to‘g‘risida”gi 229-sonli qarori²da raqamli texnologiyalar yordamida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va ularni tergov qilish amaliyotidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu vazifalar tergov harakatlarini sifatli amalga oshirish, surishtiruv, tergov va prokuratura organlarining jinoyatlarni tergov qilishdagi ishtirokini protsessual jihatdan yanada mustahkamlash, jinoyatlarni fosh etish borasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish, tergov amaliyotini metodik jihatdan ta‘minlash borasida rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribasini chuqur tahlil qilish, tergovni kriminalistik ta‘minlashda zarur bo‘ladigan ilmiy asoslangan tavsiya va usullar, zamonaviy kriminalistik texnik vositalardan foydalanish ushbu sohada qonunchilik normalarini yanada takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Shuningdek, 2025-yil 5-mart kuni davlatimiz rahbarining Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ham tergov ustidan nazorat va tergov sifatini oshirishga oid fikrlari³ ushbu sohada hali qator islohotlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 3-noyabr kuni imzolangan tergov sifatini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutuvchi “Raqamli prokuratura — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli farmon⁴ ham bu jabhada navbatdagi qo‘yilgan qadamdir. Ushbu farmonda tergov va prokuror nazorati jarayonlarini

elektron shaklga o‘tkazish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Prokuratura organlarini raqamlashtirish sohasida jinoyat ishlari bo‘yicha ish yurituvni elektron shaklga o‘tkazish, jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma‘lumotlar kelib tushganidan jazoni ijro etishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladigan yangi axborot tizimini yaratish, uni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatiga joriy etish hamda tegishli davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tergov sifatini oshirib borish kabi bir qator vazifalar qo‘yilgan.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari “tergovda inson huquqlari himoyasini kuchaytirishning sharti – tergovni raqamlashtirish” ekanligini ham alohida ta’kidladilar⁵.

Huquqni qo‘llash amaliyotida “tergov sifati” tushunchasi ko‘p qo‘llanilsa-da, biroq ushbu tushunchaning ilmiy-nazariy xususiyatlari, ilmiy-yuridik ta’rifi, mezonlari, belgilari va uning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatilgan holda yagona ta’rif ishlab chiqilmagan.

So‘nggi yillarda tergov sifatini oshirishga qaratilgan jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchilik normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, jinoyatlarni tergov qilishning yangicha ilg‘or metodikalari ishlab chiqilib huquqni qo‘llash amaliyotiga tatbiq qilinmoqda.

Tergov amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy loyiha va ish-

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 229-sonli qarori // lex.uz/docs/6977736

3 <https://president.uz/uz/lists/view/7924>

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli farmoni // www.lex.uz/uz/docs/-7813706

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>



lanmalar, qolaversa doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda⁶. Biroq ilmiy-nazariy tahlillarimiz olimlar "tergov sifati" tushunchasiga oid o'zining ilmiy-nazariy qarashlarini kam ifoda etganligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, tergov sifati quyidagi jihatlariga bevosita bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'zida mujassam qiladi:

- jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning ko'rib chiqilishi natijasi bo'yicha vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilinganligiga;

- jinoyatlarning malakali tergov qilinganligiga;

- jinoyat ishi bo'yicha aybdor bo'lgan shaxslarning harakatlariga har tomonlama, to'la va xolisona baho berilganligiga;

- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari mansabdor shaxslari tomonidan jinoyat ishi yurituvda moddiy va protsessual huquq normalariga rioya qilinganligiga.

Tergov sifati – tergov jarayonining qanchalik samarali, ishonchli va qonuniy amalga oshirilganligini ifodalovchi xususiyatlar yig'indisi deyish mumkin⁷. Mazkur tushuncha jinoyatni fosh etish va aniqlash jarayonida qo'llaniladigan kriminalistik vositalar va usullar tergov sifati hamda samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, tergov jarayonining qanchalik moddiy va protsessual qonun normalari asosida olib borilganligi, to'plangan dalillarning haqqoniyligi, qisqa vaqtda aniq va to'liq natijalarga erishilishi uchun ish samaradorligiga erishish, tergovda manfaatlar ta'siri bo'lmasligi, xolisona yondashuv,

amalga oshiriladigan harakatlar mantiqiy izchillikda ketma-ket bo'lishi, tergov jarayonida oshkor qilinmasligi kerak bo'lgan ma'lumotlarning qat'iy himoya qilinishi kabi choralar ham tergov sifatiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

"Tergov sifati" bo'yicha protsessualist va kriminalist olimlar o'zlarining turli xildagi qarashlarini ifodalaydi.

Rus olim L.Drapkin jinoyatlarni tergov qilish va fosh etish samaradorligini matematik usullardan foydalanish orqali bilish mumkinligi haqida⁸, faoliyatning amaliy natijalari oldindan qo'yilgan maqsadga mos kelishini maqsadli samaradorlik ko'rsatkichi sifatida baholaydi. Samaradorlikning asosiy mezon – qo'lga kiritilgan natijaning qo'yilgan maqsadga o'zaro bog'liq mos holda bo'lishidir deb hisoblaydi.

Huquqshunos olim F.Fatkulin jinoyat so'dir etish holatlarini protsessual va huquqiy jihatdan aniqlashning samaradorligi deganda, ma'lum bir yo'nalishdagi ijtimoiy munosabatlarga eng kam xarajat bilan ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati deb tushunilishi kerak⁹ deb ta'kidlaydi.

Fikrimizcha, dastlabki tergov sifati va samaradorligini oshirishda surishtiruvchi va tergovchilarni, tergov harakatlarini o'tkazish vakolatiga ega bo'lgan protsessual shaxslarni jinoyatlarni huquqiy, tezkor, har tomonlama, to'liq va xolisona fosh etish, tergov qilish bo'yicha aniq tavsiyalar bilan qurollantiradigan ilmiy va tashkiliy-huquqiy usullarni ishlab chiqish va joriy etish zarur bo'ladi.

Xuddi shunga yaqin fikrni rus olimi V.Znkin ham dastlabki tergovning sifati va samaradorligini oshirishga alohida ilmiy-huquqiy usullar joriy qilish orqali erishilishi mumkin-

6 Rajabov B.X. "Prokuror-kriminalistning jinoyat-protsessual va kriminalistik faoliyatini takomillashtirish" nomli yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi

7 Rajabov B.X. "Prokuror-kriminalistning jinoyat-protsessual va kriminalistik faoliyatini takomillashtirish" nomli yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi, 29-bet

8 Драпкин Л.Я. Целенаправленность деятельности следователя и эффективность раскрытия преступлений // Проблемы криминалистики и доказывания при расследовании преступлений: межвузовский тематический сб. Барнаул: АГУ, 1990 г. – С. 61–72.

9 Фаткулин Ф.Н. Актуальные вопросы эффективности советского уголовного процесса // Вопросы эффективности советского уголовного процесса. Казан: Изд-во Казан. ун-та, 1976 г. – С. 3–27.



ligini alohida ta’kidlangan¹⁰.

Fikrimizcha, dastlabki tergovning samaradorligi uning sudga qadar va sud bosqichlarida jinoyat protsessining maqsadli vazifalarini bajarish natijasidan aniqlanishi mumkin.

Soddaroq qilib aytganda, jinoyat ishini yuritish boshlanishidan tortib ishning qanday yakun topishidan qat’i nazar, ish yuritishga mas’ul bo’lgan mansabdor shaxs tomonidan moddiy va protsessual huquq normalariga qat’iy rioya qilinishi, har bir jabhada qonun normalarida belgilangan talablarga qat’iy rioya qilgan holda harakat qilinishi natijasida aybi borning aybdorligini, aybi bo’lmagan shaxsni aybsiz ekanligini isbotlash orqali jinoyat protsessida belgilangan qoidalarga so’zsiz rioya qilinishi natijasiga qarab tergov sifati va samaradorligiga baho berish mumkin.

Tergov sifatiga ta’sir qiluvchi omillardan yana biri surishtiruvchi, tergovchi, prokurorlarning jinoyatlarni tergov qilish malakasi hamdir.

Hozirgi kunda tergov sohasida faoliyat ko’rsatib kelayotgan tezkor xodimlarning malakasini oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi oldingi o‘rinlarda turib, amaliyotchi xodimlarimizning tergov sohasidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarini boyitib borish uning asosiy vazifasiga aylangan.

Shunday qilib, **“tergov sifati”** – jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini ko‘rib chiqish, jinoyatlarni tergov qilish, shaxsning harakatlari malakalash, qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilishda moddiy va protsessual huquq normalariga qat’iy rioya qilish, jinoyat ishlarini yuritishda har tomonlama, to‘la va xolisona qaror qabul qilinishini ta’minlash darajasi (yuqori, o‘rta, quyi) yig‘indisidir.

Sifatli tergov (yuqori) – jinoyat ishi bo‘yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan barcha sa-

vollarga to‘liq, har tomonlama va xolisona javoblarni o‘z ichiga olgan, moddiy va protsessual qonun buzilishlarisiz, ushbu darajani boshqalardan ajratib turuvchi barcha muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan tergov deyish mumkin.

O‘rta sifatli tergov – qonunlarda belgilangan talablarni yetarli darajada o‘z ichiga olmagan, jinoyat-protsessual yoki jinoyat-huquqiy normalarning prokuror yoki sud tomonidan bartaraf etiladigan yoki bartaraf etilmaydigan kamchiliklariga ega bo‘lgan, ammo ish bo‘yicha qonuniy va asosli qaror qabul qilish imkonini beradigan tergov deb ta’riflash mumkin.

Sifatsiz tergov – moddiy va protsessual qonunning asosiy talablari bajarilmagan yoki uning talablari jiddiy ravishda buzilgan, tergov natijasida obyektiv haqiqat aniqlanmagan tergov tushuniladi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda tergov sifatini oshirishga qaratilgan amaliy choralar ko‘rib borilmoqda. Xususan, Bosh prokuratura tomonidan viloyatlarda tergov sifatini oshirish va uni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan turli o‘quv-seminarlar o‘tkazilib, tergovchilarning ish yurituvdagi jinoyat ishlari nazorat tartibida o‘rganilib, tegishli ko‘rsatmalar berilmoqda.

Asosan jinoyatchilikda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan kiberjinoyatlarning fosh etilishi ahvoli doimiy ravishda muhokama qilib borilmoqda. O‘tkazilayotgan seminarlarda “Kiberjinoyatlarni tergov qilish”, “Sudga oid biologik va DNK ekspertizalari bo‘yicha yo‘l qo‘yilayotgan xatolar”, “Pora olish jinoyati bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi”, “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonlari: muammo va yechimlar”, “Yo‘l-transport vositalari bilan bog‘liq hodisalarini ko‘zdan kechirish tartibi” kabi mavzular ham qamrab olinmoqda.

10 Зинкин В.К. Понятие эффективности и качества предварительного расследования // Вестн. Том. гос. ун-та. Право. 2014 г., №1 (11)



Yuqoridagi keltirilgan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida quyidagi zarur choralar ham bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali tergov sifatini oshirishga erishish mumkin. Jumladan, surishtiruv va tergov organlari faoliyatini raqamlashtirish, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxslari, prokurorlarning malakasini oshirishning yangicha usullarini joriy qilish, tergovchilarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida amaliy fanlarni ko'paytirish, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish, fosh etish uchun qo'llaniladigan yangi ilg'or zamonaviy ilmiy-texnika vositalarini tergov amaliyotiga joriy qilib borish, tergovda xato va kamchilikka yo'l qo'yilganligi, sudlar tomonidan ko'rib chiqib oqlangan

jinoyat ishlarining tergovini amalga oshirgan surishtiruvchi, tergovchilarni o'qitib borishning yangicha tizimini yo'lga qo'yish, noma'lum sharoitda sodir etilgan jinoyatlarning fosh etilishini ta'minlagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning tergovida faol ishtirok etgan, jinoyat ishining tergov bo'yicha fuqarolarning huquqlarini tiklashda faol bo'lgan tergovchi xodimlarni muntazam ravishda rag'batlantirib borish mexanizmini yo'lga qo'yish, yosh tergovchilar, ish o'rganuvchilar, yosh mutaxassislarning professional tajribasi yetarli bo'lmaganligi sababli ularga tergovchilik sir-asrorlarini o'rgata oladigan prokuror-kriminalistlar faoliyatini yanada jonlantirish, ularning huquqiy maqomini qonunda aniq belgilash kabi choralar ko'rilishi lozimligi taklif qilinadi.

.....
#



Zulxumor IBROHIMOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov
akademiyasi doktoranti (DSc), yu.f.f.d. (PhD)

JINOIY RAVISHDA HOMILA TUSHIRISH JINOYATINING YURIDIK TAHLILI VA JINOYAT QONUNINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati obyektiv (obyekti va obyektiv tomoni) va subyektiv (subyekt va subyektiv tomoni) belgilari, ushbu jinoyat uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar, shuningdek, mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda o‘xshash jinoyatlardan farqlash masalalari atroflicha tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, Jinoyat kodeksining 114-moddasini takomillashtirish bo‘yicha ayrim taklif va tavsiyalar ilgari surilgan, xususan, homilador ayol yoki uning vakilining roziligini belgilangan tartibda olmagan holda homilani sun‘iy ravishda tushirish uchun ham jinoiy javobgarlik belgilash taklifi asoslab berilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье подробно анализируются объективные (объект и объективная сторона) и субъективные (субъект и субъективная сторона) признаки преступления преступного аборта, обстоятельства, отягчающие ответственность за данное преступление, а также вопросы отличия данного преступления от аналогичных преступлений при его квалификации. В статье также выдвинуты некоторые предложения и рекомендации по совершенствованию статьи 114 Уголовного кодекса, в частности, обосновано предложение об установлении уголовной ответственности за искусственное прерывание беременности без получения в установленном порядке согласия беременной женщины или ее представителя.

ABSTRACT. The article thoroughly analyzes the objective (object and objective side) and subjective (subject and subjective side) signs of the crime of criminal abortion, the circumstances that aggravated the liability for this crime, and the issues of distinguishing this crime from similar crimes when qualifying it. The article also puts forward some proposals and recommendations for improving Article 114 of the Criminal Code, in particular, it is proposed to establish criminal liability for artificial termination of pregnancy without obtaining the consent of the pregnant woman or her representative in the prescribed manner.

Kalit so‘zlar: homila tushirish, jinoyat tarkibi, yuridik tahlil, jinoiy javobgarlik, ijtimoiy zarurati, qonuniy va noqonuniy abort, sun‘iy abort, reproduktiv salomatlik.

Ключевые слова: аборт, состав преступления, юридический анализ, уголовная ответственность, социальная необходимость, законный и незаконный аборт, искусственный аборт, репродуктивное здоровье.

Key words: abortion, crime composition, legal analysis, criminal liability, social necessity, legal and illegal abortion, artificial abortion, reproductive health.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) ayollarning reproduktiv huquqlariga, oilaviy munosabatlarni sog‘lom va barqaror rivojlantirishga, millat genofondiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy xavfli illatlardan hisoblanadi.

Shu bois ham Jinoyat kodeksi 114-moddasida mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddani va u joylashgan JK bo‘limi va bobining tahlili uning obyekti to‘g‘risida quyidagicha xulosalarga kelish imkonini beradi.

Avvalo jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining **maxsus obyekti** – shaxsning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga

qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining **turdosh obyekti** – homilador ayolning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar bo‘lib, mazkur jinoyatning maxsus obyekti sifatida ayolning jismoniy sog‘lig‘i, ayolning hayoti, ona bo‘lish bilan bog‘liq xavfsizlik manfaatlarini e’tirof etiladi.

Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyatining **bevosita obyekti** turlicha talqin etiladi, xususan, adabiyotlarda mazkur jinoyat obyekti sifatida “ayollar sog‘lig‘i”¹, “ayollar sog‘lig‘i va hayoti”², “aholining to‘g‘ri

1 Уголовное право Республики Беларусь. Особенная часть: Учебное пособие / Под ред. Н.А.Бабия, И.О.Грунтова. – Минск, 2002 г. – С. 114.

2 Никифоров А.С. Ответственность за убийство в современном уголовном праве. – М., 2000 г. – С.22-23.; Горбатова М.А. Некоторые проблемы уголовной ответственности за незаконное производство аборта // Вестник ЮУрГУ. – 2013 г. №4. – С. 45-46.



ko'payish manfaatlari", "hozirgi va kelajak avlod salomatligi"³, "abortni amalga oshirish tartibi" kabilar ko'rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining bevosita obyekti – homilador ayolning sog'lig'i, shu jumladan, uning reproduktiv salomatligi, ayrim hollarda esa uning hayotini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlaridir. Uning qo'shimcha bevosita obyekti esa abort qilishni amalga oshirishning qonuniy tartibi hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati jabrlanuvchisi bo'lib homilador ahvoldagi ayol hisoblanadi. Sun'iy ravishda homila tushirish (abort) jabrlanuvchining o'ziga zarar yetkazishiga roziligi talab etiladigan kam sonli jinoyatlardan biri hisoblanadi⁴.

Shu munosabat bilan shaxs o'ziga tegishli bo'lgan nomoddiy huquqlardan voz kechish sohasida qay darajada mustaqil harakat qilishi mumkinligi to'g'risidagi masala kun tartibiga chiqadi. Boshqacha aytganda, mazkur holatda ommaviy va xususiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatga to'qnash kelamiz.

Homilador ayol abort vaqtida tegishli malaka va ko'nikmaga ega bo'lmagan shaxs tomonidan o'z sog'lig'iga ehtimoliy zarar yetkazishga rozilik beradi, o'z navbatida davlat bunday shaxslarga homilani sun'iy tushirishni taqiqlaydi. Shu munosabat bilan adabiyotlarda ayolning o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga roziligini inobatga olib, ushbu qilmishni dekriminalizatsiya qilish to'g'risidagi takliflar yangramoqda⁵. Ushbu taklifga qo'shib bo'lmaydi, chunki jinoiy abortda ayolning ha-

yoti va sog'lig'i xavf ostida qoldiriladi va bu ijtimoiy xavfli xususiyatga ega bo'ladi.

Shu bois ham davlat homilani sun'iy ravishda tushirishning qonuniy tartibini belgilab bergan. Zero, har bir ayol onalik masalasini mustaqil ravishda hal etishi zarur.

Ta'kidlash lozimki, homilani sun'iy tushirish faqatgina ayolning oldindan bildirgan ixtiyoriy roziligi asosida amalga oshiriladi. Bunda homila muddati 12 haftadan oshmagan bo'lishi talab qilinadi. Shu o'rinda basharti, homiladorlik nomusga tegish jinoyati oqibati o'laroq yuzaga kelgan bo'lsa, shuningdek, homilani dunyoga keltirishga qarshi tibbiy ko'rsatmalar (homilador ayolning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf bo'lsa) mavjud bo'lsa, bunday hollarda homila 22 haftalikka qadar bo'lgan davrida abortga ruxsat berish maqsadga muvofiq.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 12-iyundagi 124-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomda⁶ homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish tibbiyot muassasalari tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi: homiladorlikning o'n ikki haftagacha bo'lgan muddatida homilador ayolning xohishiga ko'ra; homiladorning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lganda homiladorlik muddatidan qat'i nazar.

Homiladorning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko'rsatmalar (jami – 86 ta) ro'yxati mazkur nizomning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan.

Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish akusherlik-ginekologik muassasa tomonidan

3 Ковальчук А.В. Уголовная ответственность за незаконное производство аборта // Вестник Белорусского государственного университета. – 2004 г. №1. – С. 107.

4 Лыткина Г.В. Незаконное искусственное прерывание беременности (ст. 123 УК РФ): проблемные аспекты // Современные проблемы правотворчества и правоприменения: материалы Всероссийской научно-практической конференции. Том 2. Отв. ред. А.М. Бычкова, Н.В. Кешикова. – Иркутск, 2022 г. – С. 99-100.

5 Красиков А.Н. Уголовно-правовая охрана прав и свобод человека в России. – Саратов, 1996.; Мустафаев С.Э. Уголовно наказуемое прерывание беременности: проблемные аспекты уголовного законодательства // Вестник Московского университета. – 2015 г. №1. – С. 114.

6 O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 12-iyundagi "Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 124-sonli buyrug'i (Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3274) // www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi



er va xotinning yozma roziligi bilan, er bo‘lmagan taqdirda ayolning o‘z roziligi yoki ota-onasining roziligi yoxud u voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo‘lgan taqdirda boshqa qonuniy vakillarining homiladorlikni sun‘iy ravishda to‘xtatishni qo‘llash bo‘yicha ixtiyoriy rozilik arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Obyektiv tomondan jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati quyidagi xatti-harakatlar orqali sodir etiladi.

1. Davolash muassasalaridan tashqari joylarda sun‘iy ravishda homila tushirish

– homilani sun‘iy ravishda tushirish uchun zarur ruxsati (litsenziyasi) bo‘lmagan davolash muassasalarida yoki davolash muassasasi bo‘lmagan joylarda (uy sharoitida, dorixonalarda, garaj, omborxona, ofis xonalari yoki vaqtinchalik ijaraga olingan boshqa joylarda va boshqalar) amalga oshiriladigan abort.

Shifoxonadan tashqarida amalga oshirilgan abort ayolning hayoti uchun o‘ta xavfli bo‘lib, kuchli qon ketishiga (davolash muassasasi bo‘lmasa to‘xtatib bo‘lmaydi), antisanitariya sharoitida infeksiya tushishi natijasida sepsis (qon zaharlanishi) yuqishi, bepustlik yoki malakali tibbiy yordam ko‘rsatilmaligi oqibatida o‘lim holatiga sabab bo‘lishi mumkin;

2. Tibbiy nuqtayi nazardan mumkin bo‘lmagan holda sun‘iy ravishda homila tushirish – homiladorlikni to‘xtatish uchun tibbiy qarshi ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan vaziyatda ushbu muolajani amalga oshirish.

Tibbiy nuqtayi nazardan mumkin bo‘lmagan holatlar, ya‘ni homilani sun‘iy ravishda tushirishga qarshi tibbiy ko‘rsatmalarga muddat bilan bog‘liq cheklovlar (12 haftaga-cha), turli kasalliklarning mavjudligi, bachadondan tashqari homiladorlik kabilar kiradi.

Fikrimizcha, JKning 114-moddasida ushbu jinoyatning obyektiv tomoni sodir etish usuli sifatida “homilador ayol yoki uning vakilining roziligini belgilangan tartibda olmaganda” homilani sun‘iy ravishda tushirishni ham kiritish maqsadga muvofiq.

Chunki homilador ayolning belgilangan tartibda roziligini olmay turib sodir etilgan abortning ijtimoiy xavflilik darajasi ham yuqori bo‘lib qoladi. JK 114-moddasi sanksiyalarining nisbatan yengilligi shundaki, mazkur jinoyatda jabrlanuvchi ayol o‘z sog‘lig‘iga zarar yetishiga rozi bo‘ladi, bu esa jinoyatchining ayb darajasini yengillashtiradi. Basharti, abort haqida homilador ayolni oldindan ogohlantirmasdan ushbu harakat amalga oshirilsa, unda bu ham jinoyat hisoblanishi lozim.

Bayon etilganlardan kelib chiqib JKning 114-moddasiga yuqoridagi tahrirda qo‘shimcha kiritishni taklif etamiz.

R.Mambetov noqonuniy abort qilish jinoyatini tahlil qilib, uni kesik tarkibli jinoyat sifatida tavsiflaydi, chunki abort homilani tushirish bilan bog‘liq harakatlar majmui bo‘lsa, jinoiy qilmishni sodir etish vaqti va homilaning tushishi vaqti o‘rtasida muayyan muddat o‘tishi ham mumkin bo‘ladi⁷.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining birinchi qismi maxsus subyekt, ya‘ni shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan sodir etiladi.

“Jinoyatning maxsus subyekt alomatlari mavjud bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyat subyektining nafaqat umumiy alomatlarini (aybdorning aqli rasoligi va jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lganligini), balki alohida jinoyatlarning subyektlarigagina xos bo‘lgan alohida alomatlarini ham aniqlanishi zarur bo‘ladi”.

Shifokor akusher – ayollarning reproduktiv salomatligi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis bo‘lib, u homiladorlikni kuzatib boradi, tug‘ruqni qabul qiladi, shuningdek, ginekologik kasalliklarni davolaydi, bir so‘z bilan aytganda, uning faoliyati ayollar reproduktiv tizimining profilaktikasidan (prenatal qarov) boshlab, tug‘ish va tug‘ruqdan



keyingi davrni ham qamrab oladi. Shifokor akusher – akusherlik (homiladorlik, tug‘ruq, tug‘ishdan keyingi jarayon) va gineologiya-ga (ayollar kasalliklari) ixtisoslashgan, oliy ma’lumotli tibbiyot xodimi hisoblanadi.

Ginekolog – ayollar reproduktiv salomatligiga ixtisoslashgan shifokor bo‘lib, ayollar jinsiy a’zolari tizimi kasalliklari hamda ular bilan bog‘liq holatlarga (masalan, sikl buzilishi, bepushtlik, infeksiyalar, gormonal buzilishlar, homiladorlik va klimaks) tashxis qo‘yish, davolash va profilaktika qilish bilan shug‘ullanadi.

Mazkur jinoyatni og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida quyidagilar nazarda tutilgan:

1) sun‘iy ravishda homila tushirishga huquqi bo‘lmagan shaxsning bunday ishni amalga oshirishi (114-moddaning ikkinchi qismi);

2) ushbu harakatlar ehtiyotsizlik orqasida jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqacha og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa (114-moddaning uchinchi qismi).

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining ikkinchi qismi sun‘iy ravishda homila tushirishga huquqi bo‘lmagan shaxs tomonidan sodir etiladi. Sun‘iy ravishda homila tushirishga huquqi bo‘lmagan shaxsga shifokor akusher yoki ginekolog bo‘lmagan boshqa toifadagi (mutaxassisdagi) shifokorlar (terapevt, pediatr va boshqalar), hamshiralar, akusherkalar, tibbiy ta’lim tashkilotlari talabalari, shuningdek, tibbiy ma’lumotga ega bo‘lmagan har qanday boshqa shaxslar, masalan, ayolning onasi, qarindoshi hamda boshqa shaxslar kiradi.

Bu bejiz emas, chunki jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatini sun‘iy ravishda homila tushirishga huquqi bo‘lmagan shaxs tomonidan sodir etilishi ushbu qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi. Sun‘iy ra-

vishda homila tushirishga huquqi bo‘lmagan shaxs tomonidan homila tushirilishi (abort) natijasida ayolning hayoti va sog‘lig‘iga shikast yetish ehtimoli (xavfi) ortadi, chunki mazkur shaxslar ushbu amaliyotni homilador ayollarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz tarzda amalga oshirish uchun zarur ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmaydi.

JKning 114-moddasi uchinchi qismida jinoiy ravishda homila tushirish subyektidan qat’i nazar, ehtiyotsizlik orqasida jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqacha og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lgan holatlar uchun kuchaytirilgan javobgarlik belgilangan. Bunda boshqacha og‘ir oqibatlar sifatida homilador ayolning sog‘lig‘iga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetishi, reproduktiv salomatligini buzilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Xulosa o‘rnida, JKning 114-moddasi uchinchi qismi JK 116-moddasi (Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajar-maslik) jinoyati bilan normalar raqobatiga kirishadi. Masalan, homilani sun‘iy ravishda tushirish bo‘yicha vakolatga ega bo‘lgan shifokor akusher homilani noqonuniy tushirishi natijasida homilador ayol sog‘lig‘iga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga yoki o‘limiga sabab bo‘lsa, uning harakatlari ham JKning 114-moddasi uchinchi qismi JKning 116-moddasi belgilariga ega bo‘ladi. Fikrimizcha, bunday hollarda JKning 116-moddasi abortni qonuniy ravishda amalga oshirish jarayonida shifokorning o‘z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo‘lishi natijasida homilador ayol sog‘lig‘iga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga yoki o‘limiga sabab bo‘lgan hollarda qo‘llanilishi lozim. Basharti, abort noqonuniy ravishda amalga oshirilgan bo‘lsa, unda JKning 114-moddasi uchinchi qismi qo‘llanilishi kerak.



O'ZBEKISTON TERGOVCHISI ILMIY-AMALIY YURIDIK JURNALI

Jurnalda nashr etiladigan maqolaga quyidagi talablar qo'yiladi:

– maqolada jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning umumnazariy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy masalalari, mazkur sohalarda amalga oshirilgan ishlarning tizimli tahlili hamda aniq yangi nazariy va amaliy takliflar aks etishi;

– matn takrorlarsiz, mantiqiy izchil, bayon qilingan fikrlar aniq, qisqa va lo'nda bo'lishi;

– keltirilayotgan ma'lumotlar ishonchli va to'g'ri bo'lishi;

– maqolaga jurnalda nashr qilish mumkinligi haqida shu sohadagi yetakchi huquqshunos olim va mutaxassisning, muallif ishlaydigan yoki tadqiqotchi hisoblanadigan oliy o'quv muassasasi kafedrası yoki instituti rahbari taqrizi;

– matn o'zbek va rus tilida taqdim etilishi;

– matn kompyuterda Wordning "Times New Roman"ida 14 shriftda 1,5 intervalda A4 formatli standart oq qog'ozning bir tomonida yozilishi, elektron nusxada taqdim etilishi hamda matnning chap qismi 3 sm, o'ng qismi 1,5 sm, tepa va pastki qismlari 2 sm bo'lishi;

– maqolada ilmiy bahs-munozara, iqtiboslarning mavjud bo'lishi; iqtiboslar 12 shriftda 1,0 intervalda yozilishi;

– maqolaning hajmi 8 betdan 10 betgacha bo'lishi;

– maqolaning so'nggi sahifasida muallifning ism-sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi va lavozimi, yashash va xizmat manzili, telefon raqamlari yozilgan;

– o'zbek, rus va ingliz tilidagi qisqa annotatsiya hamda tayanch so'zlar bo'lishi lozim.

На статьи, публикуемые в журнале, распространяются следующие требования:

– обзор общих политических, общественно-политических, правовых и практических вопросов темы, а также систематический анализ работы, проделанной в этих областях, новых теоретических и практических выводов, предложений и рекомендаций;

– постановка проблем, полнота теоретических и методологических аспектов материала, достоверность предоставленной информации, обоснованность проблемы, выводов, предложений и рекомендаций;

– логическое, последовательное, точное и лаконичное изложение идей, предложений и рекомендаций;

– отсутствие информации, не подлежащей публикации в открытой печати.

Статьи публикуются на узбекском, русском и английском языках.

Текст набирается на компьютере, шрифт «Times New Roman», размер шрифта 14 пт, межстрочный интервал 1.5, общий размер не более 8-10 страниц, напечатан на одной стороне стандартного формата бумаги A4, поля слева 3 сантиметра, справа 1,5 сантиметров, сверху и снизу 2 сантиметра;

– научные дискуссии, цитаты (ссылки) на использованные источники, цитаты, написанные шрифтом 12 пт, в однострочном интервале.

Первая страница статьи должна содержать следующую информацию:

– имя, фамилия и отчество (полное) автора (ов), место работы и должность, ученая степень и звание, почетное звание, номер телефона (сотового), адрес электронной почты;

– краткая аннотация и ключевые слова на узбекском, английском и русском языках.

Статья не будет принята к рассмотрению и публикации в следующих случаях:

– статья не соответствует вышеуказанным требованиям;

– наличие отрицательных рецензий;

– в случае принятия на заседаниях редколлегии решение не публиковать научную статью;

– если выявлено научное мнение другого автора, выводы и взгляды (плагиат).

Авторы и рецензенты несут ответственность за содержание представленных статей и достоверность фактов. Рукописи не рассматриваются и не возвращаются.